O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI

HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR



XALQARO ILMIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI TO'PLAMI

Toshkent 2024

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI
HARBIY TA’LIM MUASSASALARI PEDAGOG KADRLARINING MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI

HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

Xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to‘plami

2024-yil 14-iyun

Toshkent - 2024

UO‘K 355.233

Harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda zamonaviy texnologiyalar: Xalqaro ilmiy-nazariy onlayn konferensiya materiallari to‘plami, 2024-yil 14-iyun [O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig‘i polkovnik B.A. Shayakubovning umumiy tahriri ostida]. – T.: O‘R QK Akademiyasi, 2024. – 228 b.

O‘zbekiston Respublikasida bugungi kunda zamon talablaridan kelib chiqib ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘qitish, bilim berish jarayonini zamonaviy, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish, mutaxassislarni tayyorlashni yangi sifat darajasiga ko‘tarish mamlakat kelajagiga qaratilgan muhim vazifalardan sanaladi. Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual va ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan harbiy kadrlarni, shu jumladan, harbiy pedagog mutaxassislarni tayyorlash ham bugunning dolzarb talablaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasida **“Harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda zamonaviy texnologiyalar”** mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy onlayn konferensiyada bir qator xorijiy mamlakatlarning va respublikamizning oliy harbiy ta’lim muassasalari yetakchi mutaxassislari ishtirok etib, ular tomonidan harbiy ta’lim, harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida, yuqori saviyada tashkillashtirish, rejalashtirish va o‘tkazish, undagi dolzarb muammolar hamda ularni yechish yo‘llarini muhokama qilindi, o‘zaro fikr almashildi.

Ushbu to‘plamdan konferensiya materiallari, maqolalar va tezislar o‘rin olgan.

UO‘K 355.233

Tahrir hay’ati:
Qodirov A.R., harbiy fanlar doktori (DSc), dotsent;
Gayibnazarov O.X., dotsent;
Yunusov Z.M., harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Axmadjonov B.A., harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD);
Satib-Aldiyev A.A., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Xoliqova D.A., filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

© O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2024

ЦЕНТР ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ АКАДЕМИИ ВООРУЖЁННЫХ СИЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ И ПОВЫШЕНИИ КВАЛИФИКАЦИИ ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСИХ КАДРОВ

Сборник материалов международной научно-теоретической онлайн конференции

14 июня 2024 года

Ташкент 2024

УДК 355.48(063)

«**Современные технологии при подготовке и повышении квалификации военно-педагогичесих кадров»**: сборник материалов Международной научно-теоретической онлайн конференции, 14 июня 2024 года /[под общей редакцией начальника академии полковника Шаякубова Б.А.]. – Т.: Академия ВС РУ, 2023. – 228 с.

В Республике Узбекистан исходя из современных требований сегодня осуществляется работа по совершенствованию и поднятию на более качественный уровень образовательной системы всех ступеней, системы подготовки высококвалифицированных кадров на основе инновационных педагогических и информационных технологий. Современные технологии при подготовке и повышения квалификации военно-педагогических кадров для наших Вооруженных сил являются одним из актуальных вопросов повестки сегодняшнего дня.

Проведённая в Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан международная научно-теоретическая онлайн конференция на тему: **“Современные технологии при подготовке и повышении квалификации военно-педагогических кадров”** с участием ведущих специалистов военно-образовательных учреждений ряда зарубежных государств и Республики Узбекистан была посвящена обсуждению проблем подготовки и повышения квалификации военно-педагогических кадров, совершенствованию этого процесса на основе инновационных образовательных технологий.

Данный сборник включает в себя материалы, статьи и тезисы конференции.

УДК 355.48(063)

Редакционная коллегия:

Кодиров А.Р., доктор военных наук (DSc), доцент;

Гайибназаров О.Х., доцент;

Юнусов З.М., доктор философии по военным наукам (PhD), доцент;

Ахмаджонов Б.А., доктор философии по военным наукам (PhD);

Сатиб-Алдиев А.А., доктор философии по педагогическим наукам (PhD), доцент;

Холикова Д.А., кандидат филологических наук, доцент.

© Академия Вооруженных Сил Республики Узбекистан, 2024

KIRISH SO‘ZI
ВСТУПИТЕЛЬНОЕ СЛОВО
OPENING REMARKS



SHAYAKUBOV Babur Axmadjanovich,
O‘zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig‘i

ШАЯКУБОВ Бабур Ахмаджанович,
начальник Академии Вооруженных Сил
Республики Узбекистан

Mr. Babur A. SHAYAKUBOV,
Commandant of the Academy
of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Assalomu alaykum hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadrli mehmonlar!

Avvalo, taklifimizga javob berib, bugungi anjumanimizda ishtirok etish istagini bildirganingiz uchun samimiy minnatdorchilik bildiraman.

Aziz do‘stlar!

Bugungi kunda harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish, yuksak harbiy-kasbiy mahoratga va ilmiy-pedagogik salohiyatga ega, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagog kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini va kompetentligini oshirish masalasi o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “**Barcha sohalar qatori harbiy ta’lim bo‘yicha ham doimo zamon bilan birga qadam tashlashimiz, kerak bo‘lsa, undan oldinda yurishimiz zarur. Harbiylarimiz, kursant va tinglovchilar eng ilg‘or innovatsion bilim va ko‘nikmalarni egallashi, soha bo‘yicha dunyodagi yangiliklardan xabardor bo‘lishi, doim izlanishi lozim**”. Ushbu dolzarb vazifani bajarishda harbiy o‘qituvchilarning o‘rni beqiyosdir. Negaki, harbiy ta’lim muassasalarida bo‘lajak professional harbiy kadrlarni tayyorlash harbiy xizmat va hayot tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislar safidan tanlab olinadigan pedagoglar zimmasiga yuklatilgan.

Barcha sohada bo‘lgani kabi, harbiy ta’lim sohasida ham o‘qituvchi kadrlarning kasbiy-pedagogik kompetentligini takomillashtirish, harbiy va pedagogik ilm-fanning zamonaviy yutuqlari bilan, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv

jarayonida samarali qo‘llash uslubiyati bilan o‘z vaqtida tanishtirib borish harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining asosiy vazifasidir.

Bugungi **“Harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishda zamonaviy texnologiyalar”** o‘tkazilayotgan xalqaro ilmiy-nazariy konferensiyamiz ana shu dolzarb masala yuzasidan fikr almashishga, ilg‘or tajribani o‘rtoqlashishga, mavjud muammolarni muhokama qilib, ularning yechimini izlashga qaratilgan.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Yuqori kasbiy salohiyatli, kompetentli ilmiy-pedagogik kadrlar har sohada bo‘lgani kabi harbiy mutaxassislarni tayyorlashda bosh tashkilotchi va ijrochi hisoblanadi. Ana shu sababdan ham harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashga alohida ahamiyat qaratiladi.

Shu ma’noda, bugungi konferensiya ham harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida hozirgi holatni tahlil qilish va o‘zaro tajriba almashishga xizmat qiladigan samarali muloqot maydoniga aylanib, barchamiz bir bo‘lib, yangi yondashuvlar va yechimlar ishlab chiqishimizga xizmat qiladi, deb ishonaman.

Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Sizlarga xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya doirasidagi sermahsul faoliyatingizga ijodiy muvaffaqiyatlar tilayman

E’tiboringiz uchun rahmat!

ZAMONAVIY HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH

ВНЕДРЕНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОДГОТОВКЕ СОВРЕМЕННЫХ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ

IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF MODERN MILITARY PEDAGOGICAL STAFF



XOLIQOVA Dilnavoz Alimatovna,
dotsent, filologiya fanlari nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi markazi dotsenti

ХОЛИКОВА Дилнавоз Алиматовна,
доцент Центра Академии ВС Республики Узбекистан, кандидат филологических наук, доцент

Ms. Dilnavoz KHOLIKOVA,
Candidate of Philology, Associate Professor, Head of of Centre of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan

Rezyume: ushbu maqolada mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar, , harbiy ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilish, yosh ofitserlarni har tomonlama faol, favqulodda holatlarda mustaqil fikr yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omillari borasidagi fikrlar berilgan. O‘R MV HT Markazimizda 5ta mezonga asoslangan pedagog kadrlar malakasini oshirishning yangi texnologiyasi taklif qilingan. Tahlil qismida esa aynan pedagogning texnologiya tanlash mahorati borasida muallif yondashuvi berilgan. Maqola so‘ngida harbiy pedagoglarni tayyorlash borasida xulosa va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy soha, tezkor o‘zgarishlar, harbiy ta’lim, tizim, isloh qilish, yosh ofitserlar, faol, favqulodda holatlar, mustaqil fikr, asosiy omillar, pedagog kadrlar, malaka oshirish, yangi texnologiya, texnologiya tanlash, mahorat, harbiy pedagog.

Резюме: В данной статье представлены мысли о быстрых социально-экономических, политических и культурных изменениях, происходящих в нашей стране, о радикальной реформе системы военного образования и о ключевых факторах, которые способствуют воспитанию молодых офицеров как активных, способных к самостоятельному мышлению в чрезвычайных ситуациях. В Центре Министерства Обороны Республики Узбекистан предложена новая технология повышения квалификации педагогических кадров, основанная на пяти критериях. В разделе анализа автор представляет свой подход к выбору технологий педагогом. В конце статьи приведены выводы и предложения по подготовке военных педагогов.

Ключевые слова: социально-экономические, политические, культурные сферы, быстрые изменения, военное образование, система, реформирование, молодые офицеры, активные, чрезвычайные ситуации, независимое мышление, ключевые факторы, педагогические кадры, повышение квалификации, новая технология, выбор технологии, навыки, военный педагог.

Resume: In this article, the rapid changes in the socio-economic, political, and cultural spheres of our country, the fundamental reform of the military education system, and the main factors in educating young officers to be active in all aspects and to think independently in emergency situations are given. O'R MV HT Our center offers a new technology for improving the qualifications of pedagogues based on 5 criteria. In the analysis part, the author's approach to the technology selection skill of the pedagogue is given. At the end of the article, conclusions and suggestions are given regarding the training of military pedagogues.

Keywords: socio-economic, political, cultural field, rapid changes, military education, system, reform, young officers, active, emergencies, independent opinion, key factors, teaching staff, training, new technology, technology selection, skill, military pedagogue.

Har qanday zamonda har qanday ta’lim insoniyat talab-ehtiyojiga asosan rivojlanadi. Bugun katta avlod vakillari talabiga to‘g‘ri kelmayotgan Z avlod qarashlari, talablari, ilmga yondashuvlari ta’lim-tarbiyaga ham ularga mos yondashishni talab etmoqda. Ta’limni takomillashtirishga qaratilgan davlat siyosati asosida harbiy pedagoglarni tayyorlash yo‘nalishda qlinayotgan innovatsiyalar yoritilgan.

XXI asr – texnika va texnologiyalar shiddatli rivojlanayotgan asr. Dunyoda bo‘layotgan o‘zgarishlar ularni o‘rganishga qiziqishni oshirdi. Bu qiziqish esa ilm-fan, texnika taraqqiyotini tezlashtirdi, natijada barcha sohalarda misli ko‘rilmagan kashfiyotlar paydo bo‘ldi va paydo bo‘lmoqda. Kundan kunga kishini hayratga soladigan yangiliklar yaratilmoqda. Hatto odamzod bu yangiliklardan ajablanmay ham qo‘ydi.

Aytib o‘tish lozimki, bu yangiliklar, xususan, turli informatsion qurilma-yu moslamalar inson hayotining ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda. Bugungi kunda ulardan unumli foydalanish dolzarb mavzulardan hisoblanadi. Ya’ni ulardan foydalanuvchi intellekti, ongu shuuri, dunyoqarashi ham kengayib, talab darajasi ham o‘zgarib bormoqda. Bu esa ta’lim tizimida ham yangicha yondashuvlar talab etadi. “Ta’limning bugunda asosiy maqsadi o‘quvchilarda nafaqat ma’lum miqtordagi bilim, ko‘nikma va malakalar bo‘lishini, balki ularni ta’limning mustaqil subekti sifatida tayyorlash zaruriyatidan iborat”[1, B.110].

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo‘layotgan tezkor o‘zgarishlar mudofaa tizimini ham chetlab o‘tmayapti. Jumladan, harbiy ta’lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta’lim tizimi – sohaning kelajak kasbiy va intellektual imkoniyatlarini va takomillashuvi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yosh ofitserlarni har tomonlama faol, favqulodda holatlarda mustaqil fikr yuritadigan qilib tarbiyalashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun ta’limda eng muhim strategik yo‘nalish ta’lim muassasalarining doimiy zamonaviylashuvi, ta’lim beruvchilarni faoliyati, dunyoqarashi, bilimini boyitib borishi hisoblanadi.

Ayni masala Harbiy ta’lim muassasalarida qanday kechayotganini tahlil qilish bugungi konferensiyamizning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytish lozimki, harbiy kadrlarni tayyorlash sifatini oshirish,

buning asl negizi harbiy pedagog kadrlarni zamonaviy harbiy ta’lim talablariga javob beradigan sifat ko‘rsatkichini oshirish kunning ustivor vazifalaridan biridir.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoev «Yangi O‘zbekiston strategiyasi» kitobida: «Ta’lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo‘lgan yangi avlodni, ilm-fan va o‘z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz»[1], - deya ta’kidlagan. Zamonaviy mutaxassis esa, xalqaro talablarga ham javob bera oladigan, eng so‘nggi ilmiy yangiliklardan xabardor bo‘lishi lozim.

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning, ijtimoiy hayotning real talablaridan kelib chiqqan holda, yurtimizda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, unga o‘qitishning zamonaviy shakl va texnologiyalarini joriy etish, mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslik yo‘nalishlarini takomillashtirish borasida katta ishlar qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947- son, 2019- yil 27- avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019- yil 8- oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847- sonli, 2020- yil 29- oktabrdagi “Ilm-fanni 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097- sonli Farmonlari, zamonaviy talablarga javob beradigan O‘zbekiston Respublikasining 2020- yil 23- sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 23- sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797- sonli Qarorlari va ularning ijrolari bugun yoshlarni kasbiy tayyorgarligini tubdan o‘zgartirishga e’tibor qanchalar jiddiy ekanligini ko‘rsatadi.

Shu yillarda harbiy pedagoglarning har taraflama rivojlantirish maqsadida qator davlatlar bilan o‘zaro tajriba almashish faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Ofitser pedagoglarimiz, Rossiya, Belorussiya, Koreya Respublikasi, Turkiya, AQSh, Germaniya kabi qator davlatlarda malakalarini oshirib kelmoqdalar. Shu ma’noda bu mamlakatlarning professor o‘qituvchilari ham bizning ta’lim muassasalarimizda o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashmoqdalar.

So‘nggi yillarda xalqaro harbiy o‘yinlar, musobaqalarda bo‘y ko‘rsatayotgan O‘zbekiston armiyasi, xalqaro fan olimpiadalarida kursantlarimizning ishtiroki o‘z-o‘zidan jahon afkor ommasini e’tiborini tortdi. Qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar harbiy ta’lim samarasini amalda qanchalar rivojlanib borayotganining yorqin isbotidir.

Ammo dialektikaning qonuni o‘laroq zamon, ilm-fan taraqqiyoti to‘xtamas ekan, professor o‘qituvchilar malakasini oshirish dolzarb bo‘lib qolaveradi. Chunki ta’lim beruvchi ta’lim oluvchidan ildam bo‘lishi pedagogikaning qonuniyati.

Bugungi globallashuv, harbiy ilmiy taraqqiyot, mazmuni kundan kun rang-baranglashayotgan kiber-psixologik urushlar harbiy ta’lim tizimida ham keng qamrovli innovatsion yondashuvlarni talab etaveradi. Bu talab pedagog shaxsini tanlovini taqozo qiladi.

O‘R MVning 2019- yil 20- fevraldagi 135-sonli buyrug‘iga ilova tarzida O‘zbekiston Respublikasi MV HTM harbiy o‘qituvchi lavozimiga nomzodlarni saralab olish va ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida NIZOM qabul qilindi.

O‘R MVning 2021- yil 30- avgustdagi 704-sonli “O‘R MV HTMida professor-o‘qituvchilar tarkibi ish faoliyatini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi buyrug‘ining 1-ilovasida harbiy o‘qituvchi lavozimiga nomzodlarni saralab olish va ularning malakasini oshirish tartibi to‘g‘risida NIZOM qayta ishlab chiqib, tasdiqlandi.

Bu Nizomlarda harbiy pedagog nomzodi talablari, tanlab olish jarayoni va saralash komissiyasining vazifalari aniq ko‘rsatib berildi. Qaysidir ma’noda bu tanlov pedagogik kasbga munosabatni, hurmatni ham o‘zgartirdi. Bugun harbiy pedagog lavozimi qanchalar jiddiy, salmoqli va javobgarli ekanligi, unga loyiq bo‘lish shartlari, talablari ham yuqori ekanligi sir emas.

2019- yil 8- oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 985-sonli buyrugi bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi harbiy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining malakasini oshirish markazi to‘g‘risida Nizom qabul qilindi.

Markazda mazkur Nizom asosida zamonaviy ofitser-pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun muhim bo‘lgan fanlar dasturlari asosida o‘quv kurslari amalga oshiriladi. Ko‘p yillik pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ofitser-o‘qituvchilar malakasini oshirish kursida 144 soatlik dasturlar bo‘yicha bir oy davomida ishdan ajragan holda, yangitdan o‘qituvchi lavozimiga tayinlangan ofitser o‘qituvchilar esa, 288 soatlik dasturlar bo‘yicha ikki oy davomida ishdan ajragan holda Markazda qayta tayyorlash kurslarida o‘qitiladi. Bunda qayta tayyorlash kurslari uchun – aynan boshlovchi pedagoglar tarkibi pedagogik ko‘nikmakari inobatga olib tayyorlangan dastur asosida mashg‘ulotlar tashkil etiladi. Malaka oshirish kursi esa uch yildan ortiq pedagogik tajribaga ega ofitser-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan. Qayta tayyorlash kursida o‘qish jarayonida 48 soatlik pedagogik amaliyot bo‘lib, Yosh o‘qituvchilar QK Akademiyasi kafedralarida tajribali pedagoglar boshchiligida tajriba orttiradilar. har ikki yo‘nalishda olib boriladigan kurslar davomida o‘qitish samaradorligi nazorat qilinib boriladi. Kurslar yakunida o‘tilgan mashg‘ulotlat o‘zlashtirilishi fanlar bo‘yicha yakuniy imtihon va malaka himoyasi bilan aniqlanadi.

Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshlig‘ining 2023-yil 16-sentabrdagi 676-sonli buyrug‘iga asosan Markazda “Yosh pedagog” ilmiy maktabi tashkil etildi. Ilmiy maktab Qurolli Kuchlar akademiyasiga endi pedagogik faoliyat boshlagan Qurolli Kuchlar xizmatchilari va qayta tayyorlash kursiga hali jalb etilmagan yosh pedagog ofitserlarga boshlang‘ich harbiy pedagogik faoliyat ko‘nikmalarini hosil qilish maqsadida tashkil etildi.

Qurolli Kuchlar tizimidagi harbiy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagog kadrlar kasbiy tayyorgarligi, pedagogik faoliyatga salohiyati va bilimini doimiy takomillashtirishda QK Akademiyasi HTM PK malakasini oshirish markazining o‘ziga xos o‘rni bor. Markaz o‘quv kurslari Fan dasturlari har uch yilda harbiy pedagogik jarayondagi o‘zgarishlar, talablar, fanlar yo‘nalishidagi ilmiy yangiliklar sarhisobiga ko‘ra qayta ishlab chiqish texnologiyasi asosida faoliyat olib borilmoqda.

O‘quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta’lim mazmunini, ta’lim maqsadi, kutilayotgan natijani aniq belgilash, ta’lim metodlari, shakllari va vositalarini to‘g‘ri tanlash, kursant va tinglovchilar bilim, ko‘nikma va malakalarini baholashni real mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg‘ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni samarali amalga oshirish va bir-biri bilan uyg‘unlashuviga e’tiborni qaratish kutiladigan natijani ijobiyligini belgilaydi.

Shu ma’noda Markazimizda pedagog kadrlar malakasini oshirishning yangi texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu texnoligiya quyidagi 5ta mezonga asoslanadi.

1. **Konseptuallik** – harbiy pedagoglarni malakasini oshirish va qayta tayyorlashda maqsad kurslarni zamonaviy pedagog kadrlarga bo‘lgan talab asosida tashkil etishga qaratiladi.

2. Tizimlilik – malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida harbiy pedagog uchun muhim bo‘lgan bilimlar o‘quv dasturida belgilangan fanlar doirasida beriladi. Kurs dasturi tinglovchilar pedagogik salohiyatini inobatga olgan holda tuzilib, takomillashtirib boriladi.

3. **Texnologik mazmun** – mashg‘ulotlar fanlar kesimida kurs tinglovchilarini bilim, ko‘nikma, malakalarini o‘rganish(kirish testih) bilan boshlanadi va daraja inobatga olinib, mashg‘ulotlarga metod, pedagogik texnologiyalar tanlanadi.

4. **Samaradorlik** – har ikki yo‘nalishda olib boriladigan kurslar davomida o‘qitish samaradorligi nazorat qilinib boriladi. Kurslar yakunida o‘tilgan mashg‘ulotlat o‘zlashtirilishi fanlar bo‘yicha yakuniy imtihon va malaka himoyasi bilan aniqlanadi. Natijalarga asosan o‘quv dasturlari takomillashtiriladi.

5. **Natijalar tahlili** – kurs yakunlanganida, Markaz professor-o‘qituvchilar tarkibi bilan o‘quv kursi jarayoni va yakuni umumiy tahlil qilinadi, xulosa, takliflar ishlab chiqiladi. O‘tgan o‘quv kursi tashkiliy samaradorligiga ko‘ra keyingi kurs uchun mashg‘ulotlar rejalariga yangiliklar, yangi yondashuvlar kiritiladi (1-rasm).

Chizmada ko‘rsatilganidek, Markazda pedagog kadrlar malakasini oshirish texnologiyasi konseptuallik, ya’ni asosiy maqsaddan kelib chiqadi. Ya’ni pedagog kadrlarni malakasini oshirish, yoki qayta tayyorlash maqsadi – kurs nima uchun, nima maqsadda tashkil etilmoqda, kurs natijasida pedagog nimaga, tinglovchi nimaga erishadi, natijaga erishish uchin faoliyat qanday tizimlashtirilishi lozim, Markazda kurs o‘quv jarayonini tashkil etish, tinglovchilarni qiziqtirish, faolligini oshirish uchun texnoligiyalar tanlash va natijani o‘rganish bilan yakunlanadi (1-rasm).

1-rasm



Ushbu texnologiyaning ijobiy tomonlari shundaki, Markazda tashkil etiladigan o‘quv jarayoniga yondashuv doimiy yangilanib turadi.

Ushbu texnologiyaning markaziy qismi - Texnologik mazmunga – ya’ni ta’lim jarayonini tashkil etishga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ta’lim jarayoni qanday tashkil etilmasin, qanaqa metod, texnologiya tanlanmasin samarali natija berishga qaratilmog‘i lozim. Bu esa yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Innovatsion yondashishdan asosiy maqsad bugungi kunda ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, ta’lim sifatini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga yo‘naltirilgan zamonaviy axborot texnologiyalar, innovatsion dasturlar, yaratmalar, qo‘llanmalarni keng tatbiq etishdan iborat. Bu ro‘yxatni markazida esa aynan pedagogning **texnologiya tanlash**

mahorati turadi. Hozirda ta’limda keng qo‘llanilayotgan “Baliq ckleti”, “3x4”, “Aqliy hujum”, “Blis-so‘rov”, “Keys-stadi”, “Klaster” [6] kabi interfaol va innovatsion texnologiyalar allaqachon “Innovatsion” emas “an’anaviy”lik kasb etib b’ldi. Bugunda QKA HTM PK MOM professor-o‘qituvchilari pedagogik amaliyotlari davomida turli yangi texnologiyalar ishlab chiqib, mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llab, ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Jumladan, “O‘n qadam” “Mustaqil o‘qituvchi”, “Tig‘iz holat”, “uch guruh” texnologiyalagini qo‘llab, seminar va amaliy mashg‘ulotlarni bir vaqtni o‘zida qiziqarli, muammoli, ijodiy, samarali bo‘lishiga erishish mumkin. Bu texnologiyalarning yana bir yutug‘i – mashg‘ulot davomida barcha to‘liq birgalikda ishlaydi, muammolar kichik jamoalarda birgalikda yechiladi, hamma baholanadi, hech bir tinglovchi nazoratdan chetda qolmaydi.

Kurs davomida prinsipial yangi yondashuvning joriy etilishi orqali tinglovchilar olgan bilimlarini amaliyotda to‘g‘ri qo‘llay olish, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, mustaqil ijodiy fikrlash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirilish bilan birga, ayni metodikalardan kelajakda o‘zlarining pedagogik faoliyatlarida ham foydalanishlari mumkin.

Ushbu texnologiya yakunida ta’lim **samaradorlig**ini aniqlash uchun kurs yakunida **natijalar tahlil** qilinadi. Bu tahlil yakuniy imtihon va malakaviy ish himoyasida individual boshlanadi, kurs yakunlangach umumiy – markaz professor-o‘qituvchilari yig‘ilishida umumlashtiriladi.

Xulosalar asosida keying guruh mashg‘ulotlarini tashkil etish, turli pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo‘cha fikr almashiniladi, fikrlar asosida rejalashtiriladi.

Kelajakda ta’lim taraqqiyotining haqqoniy harakatlantiruvchi kuch sifatida o‘qituvchi faoliyatini yangilashga, ta’lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, kursantlarda mustaqil fikr yuritish, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish – ularni o‘qitadigan pedagoglar ongu-shuurida aynan malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslarida shakllantirilsa albatta kelajakda o‘z natijasini beradi.

Xulosa qilib aytsak:

Ta’lim tizimini isloh etish masalalari – zamonaviy davlatning izchil va barqaror taraqqiyoti, avvalambor, uning iqtisodiy rivojlanishi yo‘lidagi muammolarni yechish bilan bevosita bog‘liq;

Ta’limda moddiy ba’za, standart, o‘quv rejalar, dastur va darsliklar qanchalik takomillashtirilmasin, kutilgan asosiy natijaga erishish, chuqur va puxta bilim berish, yuqori sifatdagi o‘zlashtirishga erishish bevosita nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni olib boruvchi **o‘qituvchining** ijodkorligi, izlanuvchanligi, malakasiga, pedagogik mahoratiga bog‘lanib qolaveradi, o‘quv-biluv markazida esa o‘quvchi turmog‘ini taqozo etadi [7];

Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish shunday imkoniyat beradiki, unda qo‘yilgan maqsadlarga erishish kafolatini beruvchi o‘quv jarayoni paydo bo‘ladi. Tinglovchilarning bilim olishga qiziqishi oshadi va materiallar oson egallanadi.

Aytish joizki, Markazda tahsil olayotgan ofitser pedagoglarning mashg‘ulotlar jarayonida har taraflama o‘rganish yildan yilga ularning sifat ko‘rsatkichi oshib borayotganini ko‘rsatmoqda. Demakki, oliy harbiy ta’lim sifati ham o‘sish jarayonida. Ammo akademiya, qator harbiy bilim yurtlari, o‘quv markazlari, kichik harbiy xizmatchilar tayyorlash markazi va Temurbeklar maktablariga ega bo‘lgan butun Qurolli Kuchlar harbiy ta’lim tizimida ofitser-o‘qituvchi kasbiy-pedagogik mahoratining rivojlanishini ta’minlovchi bilim, malaka va ko‘nikmalarini yangilash va takomillashtirish uchun harbiy pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Markazi yetarli deb bo‘lmaydi.

Pedagogika – kelajak avlodni tayyorlash kabi eng mas’uliyatli, zalvorli yuk yelkasidagi soha. Bu kasb bugungi rang barang fikrli, dunyoqarashli yoshlarni kasbiy tayyorlash uchun juda katta mehnat, fidoiylik, tinimsiz o‘z ustida ishlashni talab etadi. Demakki, kasb ilmiy amaliy sirlarini bilgan har bir inson pedagog bo‘la olmaydi. Ularning tanloviga katta e’tibor qaratish lozim.

Chiqarilgan xulosalarga tayanib quyidagi mulohazalarni taklif etamiz:

Pedagogika inson-inson munosabati kasbi hisoblanadi, ya’ni pedagog inson bilan ishlaydi. Demak, harbiy pedagog kadrlarni saralashda ularning nafaqat kasbiy bilim-ko‘nikmalari, balki pedagogik mahoratlari, psixologiyasi, shaxsiy sifatlari ham inobatga olinishi kerak bo‘ladi.

Harbiy pedagog kadrlar faoliyati sifatini oshirish maqsadida, ularning kasbiy tajribalari asosidagi shaxsiy fikrlari, muammolari, takliflari o‘rganilishi va ularning moddiy-ma’naviy yechimlari orqali sifat ko‘rsatkichini oshirish imkoniyatdlarini topish darkor.

Aytib o‘tish lozimki, yangi tayinlangan o‘qituvchilarning sohaga kelishi bilan, kerakli tajribalarni egallamay turib, mashg‘ulotlarga jalb etilishi kasbdan bezish, sohaga salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. O‘z o‘zidan ta’lim sifatiga ham putur yetadi.

Har bir kasb yo‘nalishida yuksak natijalarga erishishning asosiy omili kasb egasining qiziqishi, mehri, etibori. Shu ma’noda pedagog kadrlarning kasbiga moslashuvi jarayonidayoq ularni sohaga qiziqtirish, motivatsiyasini ham oshirish lozim.

HTM PK malakasini oshirish va qayta tayyorlash jarayoniga yangi ishlab chiqilgan texnologiyani tadbiq etish orqali ta’lim samaradorligi uzviyligiga erishish.

Xullas, Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda yangilanish davri keldi: “Yangi, demokratik jamiyatni barpo etish, kelajak poydevorini qurish, hech shubhasiz, har birimizdan qat’iyatli va omilkor bo‘lishni, yangicha fikr yuritish, yangicha ishlashni talab etmoqda [2. –B 9]”. Bu yo‘lda sizga tolmas iroda va chidam, ishonch va harakat tilab qolaman.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi [Matn] /. Toshkent: ”O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. ISBN 978-9943-6992-3-6.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.:”O’zbekiston” – 2017 y. 295 – 297 b.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T. Ma’naviyat, 2008, - 138 – 140 – bet.
4. Сатиб-Алдиев А.А. Офицер-ўқитувчининг педагогик маҳорати./ Дарслик. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари Академияси, 2019. – 264 б.
5. Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996.
6. Муслимов Н.А. Усмонбоева М., Сайфуров Д., Тўраев А. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Sano-standart, 2015. – 130 б.
7. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования. // “Эксперимент и инновации в школе” журнали. 2009. №2.
8. Зеер Э.Ф. Психолого-дидактические конструкты качества профессионального образования. // “Образование и наука” журнали. 2002. №2 (14).
9. Кузьмина Н.В. Акмеологическая теория повышения качества подготовки специалистов образования. - М.: 2001
10. Чошанов М. А. Дидактическое конструирование гибкой технологии обучения // Педагогика, 1997. - № 2. – С. 21–29.

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ



ORIFZODA Rustam Matlab,
harbiy fanlar nomzodi, Tojikiston Respublikasi Mudofaa vazirligi
Harbiy Instituti taktika kafedrasi boshlig‘i o‘rinbosari

ОРИФЗОДА Рустам Матлаб,
кандидат военных наук, заместитель начальника кафедры
тактики Военного Института Министерства обороны
Республики Таджикистан

В статье рассмотрены особенности применяемых образовательных технологий при подготовке военно-педагогических кадров, в частности рассматриваются такие виды обучения, как программированное, проблемное, адаптивное, модульное, а также различные технологии направленные на повышение эффективности обучения и воспитания военно-педагогических кадров в военно-учебных заведениях.

Ключевые слова: обучение, воспитание, образовательные технологии, военно-педагогические кадры.

При подготовке военно-педагогических кадров рассмотрены следующие современные образовательные технологии:

1. Программированное обучение.
2. Проблемное обучение.
3. Адаптивное обучение.
4. Модульное обучение.
5. Компьютерные технологии.
6. Мультимедийные технологии.
7. Технологии базирующиеся на графических методах сжатия информации (методика В.Ф. Шаталова и другие).
8. Технологии, использующие психологическое воздействие на обучающихся, т.е. суггестивные технологии (психотроника, медитация и т.п.).
9. Технологии дистанционного образования.

Программированное обучение

Программированное обучение – обучение по специально разработанной обучающей программе, которое представляет собой определенную последовательность конкретных задач, путем которых выполняется и контролируется деятельность педагога и учащихся.

Программированное обучение строится по четким алгоритмам (точным инструкциям), которые приводят к ожидаемому результату. Оно обязательно включает обратную связь: внутреннюю - к обучаемому и внешнюю - к преподавателю.

Программированное обучение – управляемое усвоение алгоритмированного учебного материала с помощью обучающего устройства (ЭВМ, программированного учебника, кинотренажера, др.).

Положительные стороны программированного обучения:

- индивидуализация обучения,
- активизация самостоятельной работы обучаемых,
- развитие их внимания и наблюдательности,
- прочность усвоения учебного материала.

Отрицательными сторонами являются:

- частая работа обучаемых по жёсткому алгоритму не способствует развитию их творческого мышления;
- сложность разработки обучающих программ повышает вероятность наличия в ней ошибок;
- существенная сложность обновления учебного материала, необходимость коррекции программы.

Проблемное обучение

Проблемное обучение – способ организации деятельности учащихся, который основан на получении информации путем решения теоретических и практических проблем в создающихся в силу этого проблемных ситуациях.

В таком виде обучения, организация учебных занятий, предполагает создание под руководством преподавателя проблемных ситуаций и активную самостоятельную деятельность обучаемых по их разрешению, в результате которой происходит творческое овладение профессиональными знаниями, навыками, умениями и развитие мыслительных способностей.

Уровни проблемности в проблемном обучении подразделяются на следующие категории:

первый уровень – преподаватель сам создает проблемную ситуацию и сам её разрешает, а обучающиеся, следуя за рассуждениями педагога, осмысливают полученный результат;

второй уровень – преподаватель создает проблемную ситуацию и в диалоге с обучающимися разрешает её;

третий уровень – преподаватель создает проблемную ситуацию, а обучающиеся, осознав лежащее в сё основе противоречие, самостоятельно её разрешают;

первый уровень – обучающиеся самостоятельно, на основе специально подобранного преподавателем учебного материала, обнаруживают противоречие и разрешают его.

Адаптивное обучение

Адаптивное обучение – это метод, который позволяет персонализировать учебный процесс под нужды конкретного ученика.

Сегодня под адаптивным обучением обычно подразумевают адаптивные образовательные системы – технологии, которые взаимодействуют с обучаемым в режиме реального времени и предлагают ему тот или иной вид индивидуальной поддержки.

Соответственно, адаптивное обучение, представляет собой метод обучения, который использует компьютерные алгоритмы, а также искусственный интеллект для организации взаимодействия с учащимся и предоставления индивидуальных ресурсов и учебных действий для удовлетворения уникальных потребностей каждого учащегося

Модульное обучение

Модульное обучение – это педагогическая технология, позволяющая обучающемуся самостоятельно (или с определенной долей помощи) достигать конкретных целей учебно-познавательной деятельности в процессе работы с модулем. Учебный процесс строится на основе блочно-модульного представления учебной информации.

В таком методе обучения, обучение строится на основании разделения содержания обучения на небольшие части, называемые модулями. Этот подход позволяет обучаемым изучать отдельные части материала в удобном темпе и по собственному графику. При этом применяется чёткая технология, базирующаяся на научно обоснованных данных, не допускающая экспромтов, как это возможно в традиционном обучении, а рейтинговая оценка позволяет характеризовать качество подготовки обучающихся к будущей профессиональной деятельности.

При модульной интерпретации учебной дисциплины следует установить число и наполняемость модулей, соотношение теоретической и практической частей в каждом из них, их очередность, содержание и формы модульного контроля, график выполнения проектного задания, содержание и формы итогового контроля.

Основными достоинствами такой методики является то, что осуществляется предварительный, текущий и итоговый контроль. Текущий контроль в свою очередь выступает как средство обучения, так и средство обратной связи.

Компьютерные технологии обучения

Компьютерная технология обучения – это совокупность методов, приемов, способов, средств обеспечения педагогических условий для обеспечения целенаправленности процесса обучения, самообучения и самоконтроля на основе компьютерной техники, средств телекоммуникационной связи, интерактивного программно-методического обеспечения, моделирующего часть функций педагога по представлению, передаче информации и управлению познавательной личностно-ориентированной деятельности обучающегося.

Компьютерные технологии обучение включают в себя *обучающую программу* – специально созданное учебное пособие, электронный учебник разработанные с учетом психофизиологических закономерностей восприятия человеком информации с дисплея, методических особенностей подачи учебного материала, а также возможностей ЭВМ.

Мультимедиа технологии обучения

Мультимедийные обучающие технологии – совокупность аппаратных и программных средств, которые обеспечивают такое представление информации, при котором человек воспринимает её одновременно и параллельно несколькими органами чувств.

Положительными сторонами такого способа является то что, сочетание аудиокомментариев с видеоинформацией или анимацией, позволяет постепенно, шаг за шагом разъяснять самые сложные процессы в развитии объектов, а также наличие точек разветвления в обучающих программах, что позволяет обучающимся индивидуально регулировать процесс восприятия информации. Причём, чем больше точек разветвления, тем выше интенсивность программы и гибкость её использования в процессе обучения.

Педагогическая система П.Ф. Шаталова

Суть педагогики Шаталова – система «опорных конспектов (сигналов). Шаталов сначала давал скелет (основу предмета). А затем уже «наращивал» знания. Особое внимание уделялось повторению — так постепенно могут усвоить материал все обучаемые. Следующий раздел проходят только после того, как предыдущий разобрали и поняли все обучаемые. «Опорные сигналы» - важные элементы темы, которые сохраняются в памяти.

Суть педагогической технологии В.Ф.Шаталова выражается в том, чтобы обучающийся *представлял*, *понимал*, *помнил* и *применял*.

Основными постулатами данной системы являются:

1. Объяснить материал предельно понятно, даже упрощенно.
2. Не разрешать, чтобы обучающиеся одновременно слушали и записывали.
3. Преподносить материал в логической последовательности, красочно, ярко, необычно, закреплять его в блок-схемах или опорных конспектах.

Суггестивное обучение

Суггестивное обучение – обучение на основе эмоционального внушения в бодрствующем состоянии, приводящее к сверхзапоминанию. Оно предполагает комплексное использование всех вербальных и невербальных, внешних и внутренних средств суггестии (внушения).

Суггестология - наука о внушении, а суггестопедия – это её применение в педагогике.

Требования к применению методики: максимальная мобилизация интеллектуальных и эмоциональных ресурсов, а также определенные актерские способности преподавателя.

Положительными сторонами такого способа является то что, за короткий промежуток времени можно добиться колоссальных результатов.

Технологии дистанционного образования

Дистанционное обучение – образовательный процесс с применением совокупности телекоммуникационных технологий, имеющих целью предоставление возможности обучаемым освоить основной объём требуемой им информации без непосредственного контакта обучаемых и преподавателей в ходе процесса обучении.

Соответственно, под данным образованием понимается комплекс образовательных услуг, предоставляемых широким слоям населения в стране и за рубежом с помощью специализированной информационно-образовательной среды на любом расстоянии от образовательных учреждений.

Рассмотреные образовательные технологии не исчерпывают весь перечень существующих технологий при подготовке военно-педагогических кадров. Рассмотреные технологии являются также альтернативой применяемых в современных образовательных системах методов, форм и способов обучения.

Список использованной литературы:

1. Технология профессионально-ориентированного обучения. Учебник. - М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2019, инв. № 1644.

2. Технология профессионально-ориентированного обучения. Электронный учебник. - М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2019.

3. профессионально-ориентированного обучения. Учебное пособие. - М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2016, инв. № 1477.

4. Психология человека. Учебное пособие. – М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2019, инв.№ 8107.

5. Педагогика. Учебное пособие. – М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2019, инв.№ 8112.

6. Педагогика и психология высшей военной школы. Учебное пособие. – М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2019, инв.№ 8106.

7. Сборник методик преподавания учебных дисциплин кафедры. Учебное пособие. - М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2017, инв. № 1507.

8. Федеральный закон Российской Федерации от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации».

9. Приказ Министра обороны РФ № 670 от 15.09. 2014 г. «О мерах по реализации отдельных положений статьи 81 Федерального закона от 29 декабря 2012 г. № 273-ФЗ «Об образовании в Российской Федерации»».

10. Положение об организации и осуществлении методической деятельности Общевойсковой академии Вооруженных Сил Российской Федерации. -М.: ВУНЦ СВ «ОВА ВС РФ», 2018, инв. № 8070.

11. Военный энциклопедический словарь. – М.: Эксмо, 2010.

TA’LIM JARAYONIDA ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH



MAMATKULOV Davlatjon Maxamatjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavsizligi universiteti
dotsenti, falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

МАМАТКУЛОВ Давлатжон Махаматжонович,
доцент Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан, доктор философских наук (DSc), доцент

«O‘qitish metodikasi o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham,
mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi»
Shavkat Mirziyoyev

Yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo‘ygan O‘zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi inson va uning manfaatlari, xavfsizligi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritgach qisqa vaqt ichida bosib o‘tgan taraqqiyot yo‘li asrlarga arzigulik mazmun va mohiyat kasb etmoqda.

Ma’lumki, taraqqiyotni harakatga keltirishda va jamiyatda ro‘y berayotgan jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazishda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma’naviy yangilanishning muhim sub’ekti bo‘lgan yoshlarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Ta’kidlash lozimki, yoshlarni barkamol avlod qilib shakllantirish jarayoni pedagogika fanining «nimani o‘qitamiz», «qanday o‘qitamiz», «qanday baholaymiz» kabi fundamental savollariga javob berilishiga bevosita bog‘liq.

O‘z vaqtida mazkur savollarga qadimgi tamaddunlar, Antik Yunon plasteralari, Qadimgi Rimning grammatika va ritorika maktablari, Qadimgi Sharq: Eron, Turon, Xindiston va Xitoy maktablarida uzluksiz javob izlangan. Jumladan, «Qur’oni Karimda ilk nozil bo‘lgan «Iqro‘ bismi robbika» ya’ni «O‘qi!», «O‘qi!», «O‘qi!» oyati ham yuqoridagi savollarga javob tariqasida kelgan.

Insoniyatning uzoq ming yillik taraqqiyoti davomida pedagogikaning «nimani o‘qitamiz», «qanday o‘qitamiz», «qanday baholaymiz» kabi fundamental savollariga atroflicha javoblar shakllangan. Jumladan, «nimani o‘qitamiz» savoli bo‘yicha «didaktika – ta’lim nazariyasi, ta’lim metodologiyasi, davlat ta’lim standarti (DTS), davlat talablari, o‘quv reja va dasturlar, o‘quv-uslubiy majmualar, dars taqdimoti (slayd)larning shakl va mazmuni;

«Qanday o‘qitamiz» savoli bo‘yicha ta’lim shakllari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy), dars mashg‘ulotlarining turlari (ma’ruza, amaliy, seminar, labaratoriya), dars o‘tish (an’anaviy, no‘ananaviy) metodikalarning shakl va mazmuni;

«Qanday baholaymiz» savoli bo‘yicha testologiya, pedagogik kvalimetriya (baholash nazariyalari); og‘zaki, yozma, test, amaliy kabi baholash shakllari, joriy, oraliq va yakuniy kabi baholash turlarining shakl va mazmuni yuqoridagi savollarga bevosita javob sifatida yuzaga kelgan.

Shu o‘rinda tabiiy savol tug‘iladi? Nima uchun bizning davrimizda «ilg‘or pedagogik texnologiyalar»ga bo‘lgan talab ortib bormoqda? Bu talab ish beruvchining «injiqligimi» yoki zaruriy ehtiyojmi?

Ta’kidlash kerakki, Amerikalik olimlar tomonidan yaratilgan avlodlar nazariyasiga ko‘ra 34 yoshgacha bo‘lgan avlod «Y» va «Z» avlod bo‘lib, ular o‘zidan avvalgi «X» avlodlaridan diqqatining tarqoqligi, aqliy-takabburligi, o‘qish va mehnat faoliyatida qiziqishning tez so‘nishi, «aql»li texnologiyalarga tobeligi bilan ajralib turadi.

Insoniyat taraqqiyotida mana shunday xususiyatga ega avlodni shakllanayotgani bois ham endilikda, ta’lim sohasida ular bilan olib boriladigan ishlarda yangicha yondashuv, ilg‘or pedagogik usul va texnologiyalar talab etilmoqda.

Shu o‘rinda ilg‘or pedagogik texnologiyaning o‘zi ham yaxlid yagona narsa emasligini, uning quyidagi turlari mavjudligini eslatib o‘tmoqchimiz. Ular:

1) Pedagogik enerjayderlar;
2) Pedogogik texnologiyalar;
3) Pedagogik usullar;
4) Pedagogik improvizatsiya.

Mazkur ilg‘or pedagogik texnologiyalar o‘zining maqsadi, mazmuni, shakli hamda qo‘llanilish joyi va vaqtiga qarab albatta bir-biridan farq qiladi. Shu o‘rinda barcha farqli jihatlarining mazmuniga to‘xtalib o‘tirmagan xolda ularning birgina maqsadini aniqlashtiradigan bo‘lsak:

Pedagogik enerjayderlarning maqsadi – jamoani muhitga moslashtirish, jamoaga kayfiyat berish, «uyg‘otish»;

Pedogogik texnologiyalarning maqsadi – ta’lim berish, mashg‘ulotni to‘liq qamrab olish, bosqichma-bosqich natijaga erishish;

Pedagogik usullarning maqsadi – ta’lim berish, mashg‘ulot mavzusidagi eng «og‘ir» nuqtani oson yo‘l bilan yetkazish;

Pedagogik improvizatsiyaning maqsadi – muhitga moslashtirish, kayfiyat berish, bilimga qiziqish uyg‘otish va ta’lim berish hisoblanadi.

Yuqoridagi pedagogik texnologiyalar bo‘yicha asosiy eslatmani keltiradigan bo‘lsak, albatta dars jarayoni pedagogik texnologiyalarga emas, pedagogik texnologiyalar dars natijadorligiga xizmat qilishi zarur! Mazkur qoida ta’limtarbiya jarayoniga mas’ul bo‘lgan har bir shaxsning diqqat markazida bo‘lmog‘i lozim.

Ta’kidlash kerakki, ayrim professor-o‘qituvchilar ilg‘or pedagogik texnologiyalar deganda faqat zamonaviy o‘quv-vizual materiallardan hamda zamonaviy texnik vositalar (kompyuterlar, elektron doskalar va boshqalar)dan foydalanish kabilarni tushunishadi. Albatta, bu to‘g‘ri fikr emas. Yuqoridagi fikrlarga

tayangan xolda aytish mumkinki, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni xatto ma’ruza darsida ham qo‘llash mumkin. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar avvalgi o‘qitishning «nofaol» usulidan «faol» usuliga o‘tmoqni, dars mashg‘ulotini bahs, munozara, suhbat, muhokama hamda amaliy ishlar uyg‘unligi shaklida tashkil etmoqni bildiradi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda «X» avlodning diqqatini tarqoqligi, aqliy-takabburligi, o‘qish va mehnat faoliyatida qiziqishning tez so‘nishi, «aql»li texnologiyalarga tobeligi hamda ob’ektiv bo‘lmagan jadallashgan axborot oqimi ta’lim jarayonini nisbatan qiynlashtirmoqda. Mana shunday sharoitda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan ilg‘or pedagogik texnologiyalarning ahamiyati beqiyos bo‘lib, mazkur omil ta’lim oluvchilarga dars mashg‘ulotini qulay yo‘llar mavzuning «mag‘zini», ilmiy «yadrosini» aniqlash orqali o‘zaro yakdil xulosaga kelishlariga nazariy va amaliy jihatdan yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abdullaeva X.A. Mashg‘ulotlarda faol ta’lim usullaridan foydalanish. – Farg‘ona: FarDU, 2018.

2. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2008.

3. Ishmuhamedov R., Abduqarodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. Ta’lim muassasalari o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: «Iste’dod» jamg‘armasi, 2019.

4. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Innovatsion ta’lim texnologiyalari .- T.: «Sano standart» nashriyoti, 2021.

5. Pirmuxamedova M. Pedagogik mahorat asoslari . - T.: 2021.

OFITSERLARNING OLIY HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI PEDAGOGIK FAOLIYATGA ADAPTATSIYASI

АДАПТАЦИЯ ОФИЦЕРОВ К ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ВОЕННОМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ

ADAPTATION OF OFFICERS TO PEDAGOGICAL ACTIVITIES IN A MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTION



SATIB-ALDIYEV Azim Abdu-Shakirovich,
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
O‘R QK Akademiyasi dotsenti

САТИБ-АЛДИЕВ Азим Абду-Шакирович,
Доцент, доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
доцент Академии Вооружённых Сил Республики Узбекистан

Mr. Azim A. SATIB-ALDIEV,
Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD),
Associate Professor of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Ofitserlami oliy harbiy ta’lim muassasasidagi pedagogik faoliyatga to‘g‘ri va o‘z vaqtida tayyorlash, ularning adaptatsiyasi boshlovchi pedagoglami harbiy mutaxassislami tayyorlash bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli kirishib ketishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada harbiy-pedagogik faoliyatning mazmuni, oqituvchilik ishini boshlash jarayonida ofitserlar duch kelishi mumkin bo‘lgan asosiy qiyinchiliklar, ularning pedagogik sifatlarini o‘rganish yo'nalishlari hamda pedagogik faoliyatga adaptatsiya jarayoni elementlari haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Harbiy-pedagogik jarayon, pedagogik faoliyat, ofitserni pedagogik faoliyatga tayyorlash, o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, kasbiy-pedagogik kompetentlik, pedagogik mahorat.

равномерная игровая нагрузка на всех участников игры;
соревновательность игровых групп;
правдоподобие моделируемой ситуации.

Важным признаком деловых игр является свободная комфортная обстановка в процессе игры. Й. Хейзинга отмечал: «Всякая игра есть прежде всего и в первую голову свободная деятельность. Игра по приказу уже больше не игра» [5, с. 20]. Какова же периодичность проведения деловых игр в учебном процессе?

Практика подготовки кадровых офицеров военных вузов России показывает, что целесообразно в вузе планировать и проводить в каждом семестре 1-2 игры и не менее 2-3 игровых занятий типа имитационных упражнений, анализа конкретных ситуаций, разыгрывания профессиональных ролей. Таким образом, при пятилетнем сроке обучения обучающемуся придется участвовать в 8-12 играх и 16-18 игровых занятиях.

Результаты проведенного исследования показывают, что для студентов, обучающихся по программам подготовки офицеров запаса, целесообразно в течение всего периода обучения проводить 10-12 деловых игр (для приобретения обучающимися опыта принятия управленческих решений); до 70% практических занятий – методом ролевых игр с обязательной работой на боевой технике, приборах, тренажерах [6, с. 40]. Контролируемую самостоятельную работу и самостоятельную подготовку студентов необходимо обеспечить виртуальными тренажерами (обучающими программными средствами), разработанными на основе информационно-коммуникационных технологий в виде компьютерных игр.

Коротко рассмотрим порядок подготовки к дидактической игре:

учебную игру лучше планировать в завершении изучения темы (освоения обучающимися учебного модуля), когда студенты теоретически подготовлены к участию в ней. Игре может предшествовать промежуточный контроль знаний;

для игры, по возможности, необходимо планировать отдельные, не загруженные другими занятиями дни, чтобы сосредоточить внимание и силы участников на самой игре. Если же игра занимает 2 или 4 ч., то лучше ею завершать учебный день, так как студенты после игры не могут сразу выйти из роли, переключиться на другие дисциплины;

за одну неделю до проведения игры студентов целесообразно разделить на группы, распределить в них роли и выдать обучающимся инструкции участников игры;

если игра занимает более одного учебного дня, нужно продумать, следует ли назначать эти дни подряд или лучше сделать перерыв. За это время студенты могут выполнять отдельные домашние задания, а отставшие на начальном этапе ее участники смогут догнать идущих в нормальном темпе и тем самым не затруднят продолжения игры;

в связи с тем, что игра занимает много времени и внимания студентов, необходимо согласовать время ее проведения с расписанием занятий на семестр;

игру, включающую в себя как принятие управленческого решения, так и его реализацию, например выбор командно-наблюдательного пункта, организацию разведки, ведение разведки, обслуживание стрельбы проводимую в поле (на полигоне) по дисциплине «Тактическая подготовка», целесообразно планировать в период итоговой практики студентов продолжительностью до 6-8 ч.

Важной составляющей информационного обеспечения дидактической игры являются боевые документы, выдаваемые участникам для отработки (карточки, схемы, бланки распоряжений, приказов и т.п.), являющиеся отчетными документами, в которых зафиксированы результаты выполнения управленческих решений. Такие результаты в играх чаще всего выявляются с помощью экспертных оценок, выставляемых группой наиболее подготовленных студентов или преподавателями, проводящими данные занятия.

Нормативно-справочные данные, как правило, представляются специальным набором документов, которыми пользуются участники игрового занятия. Нормативы могут быть постоянными, т. е. неизменными на все время игры или постоянными лишь в течение конкретного этапа, либо они могут принимать определенное значение (с учетом установленных вероятностей) из диапазона возможных значений. Значения некоторых нормативов могут меняться в зависимости от принимаемых участниками занятия решений.

Развитое информационное обеспечение позволяет создать игровую модель, составляющую основу игрового занятия.

Успех учебных игр как метода обучения в гораздо большей степени, чем традиционных, зависит от материально-технического обеспечения, в состав которого входят компьютерные классы, специально оборудованные для ролевых игр, средства управления, тренажеры, приборы, боевая техника и т. п.

Для успеха игровых занятий особую важность имеет система стимулирования и оценки деятельности обучающихся. Оценка деятельности участников игры всякий раз складывается из оценки анализа обстановки, выработанного и принятого решения, его реализации в установленное нормативами время, а также оптимальной и творческой деятельности во время исполнения ролей. Разбор каждой отдельной ситуации – это тренировка не столько в выборе решений, как иногда считается, сколько в анализе, который является преддверием их принятия. В ряде случаев анализ бывает важнее самого решения, хотя для многих студентов труднее всего дается именно последнее.

Педагогическая практика использования в военных вузах игровых методов обучения свидетельствует о целесообразности построения системы стимулирования на основе арбитража. В состав арбитражной группы могут входить преподаватель и 1-2 студента. Система установленных поощрительных и штрафных баллов позволит объективно оценить как творческий подход к решению проблемы, так и допущенные ошибки и нарушение правил игры. Опыт применения арбитража показывает, что указанным способом удается успешно

решать ряд важных дидактических и воспитательных задач, среди которых выделяются:

оперативная и обоснованная оценка всех видов практической деятельности отдельных групп и каждого участника игры, а также степени их подготовленности к выполнению соответствующих функциональных обязанностей;

самооценка и взаимооценка обучающимися результатов деятельности;

определение эффективности организации учебного процесса по дисциплине.

Обобщение опыта проведения дидактических игр позволило выявить следующие проблемы:

сложность обеспечения участников игры сравнительно равномерной и непрерывной рабочей нагрузкой на протяжении всей игры, различный уровень ответственности должностных лиц, разный объем функциональных обязанностей;

объективная оценка индивидуальной работы каждого участника игры.

Первую проблему, по нашему мнению, можно решить, осуществляя периодическую смену ролей (должностей) в течение игры, либо при проведении этой же игры несколько раз. Вторая проблема решается только сопоставлением само- и взаимооценки студентов с результатами наблюдений преподавателей.

Существенную роль в поднятии эффективности игрового процесса играет заключительный этап игры (рефлексия). На этом этапе участники игры должны оценить свои действия, действия других участников игрового взаимодействия, определить допущенные ошибки, неверные решения, выявить для себя, чего и каким образом они достигли.

Список использованной литературы:

1. Дорохин, Ю.С. Организационно-педагогические условия отбора студентов на факультет военного обучения классического университета: автореф. … дис. канд. пед. наук: 13.00.08. Тула, 2010.

2. Жук, О.Л. Педагогическая подготовка студентов: компетентностный подход: монография. Минск, 2009.

3. Загвязинский, В.И. Теория обучения: современная интерпретация: учеб. пособие. М., 2006.

4. Панфилова, А.П. Игровое моделирование в деятельности педагога: учеб. пособие. – 2-е изд. М, 2008.

5. Хейзинга, Й. Homo Ludens. Человек играющий; пер. с нидерл. В.В. Ошиса. М., 2001.

6. Коклевский, А.В. Дисциплины военной подготовки. Практикум: учебное пособие / А.В. Коклевский. – Минск : БГУ, 2012. – 151 с.

AVIATSIYA HARBIY QISMLARIDAGI OFITSERLARNI PEDAGOGIK MAHORATINI SHAKILLANTIRISH

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ НАВЫКОВ У ОФИЦЕРОВ АВИАЦИОННЫХ ВОИНСКИХ ЧАСТЕЙ

FORMATION OF PEDAGOGICAL SKILLS OFFICERS OF AVIATION MILITARY UNITS

YAKUBOV Jasur Ro‘zmetovich,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti katta o‘qituvchisi

ЯКУБОВ Жасур Рузметович,
старший преподаватель Института военной авиации Республики Узбекистан

XOLMATOV Aziz Barotovich,
O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti o‘qituvchisi

ХОЛМАТОВ Азиз Баротович,
преподаватель Института военной авиации Республики Узбекистан

AXMADJONOV Botirjon Alidjonovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Markazi boshlig‘ining o‘rinbosari,
harbiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

АХМАДЖОНОВ Ботиржон Алиджонович,
Заместитель начальника Центра Академии ВС РУ,
доктор философии по военным наукам (PhD)

Annotatsiya: ushbu maqolada Harbiy-Havo Kuchlari harbiy qismlarida xizmat o‘tayotgan yosh, amaliy tajribaga boy bo‘lgan, harbiy xizmatchilarda pedagogik mahoratni shakllantirish, shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi zamonda, ularni ilmiy ishlar bilan shug‘ulanishga jalb etish to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: muhandis-texnik tayyorgarligi, Harbiy-Havo Kuchlari, harbiy pedagogika, o‘quv kurs, sertsifikat.

Аннотация: в данной статье раскрывается суть формирований педагогических навыков у молодых, офицеров имеющих богатый практический опыт службы в воинских частях Военно-Воздушных Сил, в бурно развивающуюся современную эпоху, для привлечения их к исследовательской научной работе.

Ключевые слова: инженерно-техническая подготовка, Военно-Воздушные силы, военная педагогика, курс обучения, сертификат.

Abstract: this article reveals the essence of the formation of pedagogical skills among young officers with rich practical experience of service in military units of the Air Force in the rapidly developing modern era, in order to attract them to research scientific work.

Keywords: engineering and technical training, Air Force, military pedagogy, course of study, certificate.

Pedagogika atamasi qadimgi yunon tilidan kirib kelgan bo‘lib, bola yetaklovchi mazmunini bildiradi. Eramizdan oldingi III-I asrlarda qadimgi Yunonistonda quldorlarning bolasini ovqatlantiradigan, sayr qildiradigan, maktabga olib boradigan tarbiyachi-qullar "pedagog" deb atalgan. Keyinchalik bu atama ma’nosi birmuncha o‘zgardi, hozirgi kunga kelib, pedagogika alohida fan sifatida taraqqiy etgan bo‘lib, o‘zining bir nechta mustaqil tarmoqlariga ega.

Hozirgi kunda “harbiy pedagogika” pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etmoqda.

“Harbiy pedagogika” askarlar va harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangavor tayyorgarlikka ega bo‘lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitida o‘z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma’naviy, siyosiy va jangavor xislatlarni, jangavor mahoratni shakillantirish, aqliy va jismoniy kuchlarni rivojlantirish, ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari oliy harbiy ta’lim muassasalarida harbiy pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimli ravishda amalga oshirib kelinmoqda.

Oliy harbiy ta’lim muassasalariga harbiy qismlardan harbiy o‘qituvchi lavozimlariga nomzodlarni saralab olish va ularni malakasini oshirish Nizomiga asosan amalga oshiriladi.

Ushbu Nizomda nomzodlarga qo‘yilgan talablar quyidagicha:

harbiy ta‘lim muassasalari harbiy o‘qituvchi lavozimlariga nomzodlar pedagogik va psixologik jihatdan o‘z ixtisosligi bo‘yicha maxsus ma‘lumotga ega, kasbiy tayyorgarlik va yuksak axloqiy fazilatlarga boy, ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatishga tayyor harbiy xizmatchilar saralab olinishi;

o‘qituvchi lavozimiga harbiy qism va muassasalarda harbiy xizmatni o‘tayotgan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchi ofitserlar tarkibidan mutaxassislik toifasiga ega bo‘lgan, ofitserlik lavozimlaridan 7 kalendar yildan kam bo‘lmagan muddat davomida xizmat o‘tagan, xizmati davomida batalyon komandiri va unga tenglashtirilgan lavozimlarda xizmatni o‘tagan nomzodlar tayinlanishi;

ilmiy daraja va ilmiy unvonga ega bo‘lgan nomzodlar imtiyozli ravishda ko‘rib chiqilishi belgilab qo‘yilgan.

Harbiy Havo Kuchlari harbiy qismlarida muhandis-texnik tayyorgarligi fanidan mashg‘ulotlar Mudofaa vazirining tegishli buyrug‘ilariga asosan o‘tkazilib kelinmoqda.

Muxandis-texnik tarkibiga, muhandis-texnik tayyorgarligi jangavor tayyorgarlikning asosiy ko‘rinishi hisoblanadi va u shaxsiy tarkibning nazariy va amaliy bilimlarini takomillashtirish, kasbiy mahoratini oshirish va uchish apparatlarini sifatli ekspluatatsiya qilish maqsadida, Harbiy-Havo Kuchlari harbiy qismlarida muhandis-texnik tayyorgarligi fanidan ofitserlar, serjant va oddiy askarlar tarkibiga

harbiy qism katta muhandislari va guruh boshliqlari tamonidan muntazam ravishda ma‘ruza, guruh, seminar va amaliy turdagi mashg‘ulotlar o‘tkazilib kelinmoqda.

Aviatsiya harbiy qismlardagi amaliy tajribaga boy, malakali mutaxassislarni ya‘ni, qism katta muhandislari va guruh boshliqlarini pedagogik mahoratini shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida pedagogik mahoratini oshirish o‘quv kurslarini tashkillashtirish maqsadga muvofiq.

Aviatsiya harbiy qismlaridagi katta muhandislar va guruh boshliqlarini pedagogik mahoratini shakllantirish o‘quv kurslari 15 kunlik, 72 soat etib belgilansa, unda quyidagi fanlar o‘qitilishi ko‘zda tutiladi:

operativ-taktik fanlarni o‘qitish metodikasi fanidan;

o‘qituvchining ilmiy salohiyatini oshirish asoslari fanidan;

ofitser-o‘qituvchining metodik tayyorgarligini shakllantirish asoslari fanidan.

Tahsil olish davomida harbiy xizmatchilar mashg‘ulotlarning ketma-ketligi va mantiqiy bog‘lanishini, mashg‘ulotni rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko‘rish, hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek, ma‘ruza turlari, ularni o‘tkazish tartibi va metodikalarini, mavzuni o‘zlashtirishda seminar mashg‘ulotining samaradorligi va metodikalarini, guruh va amaliy mashg‘ulotlar qanday o‘tkazilishini, yaxshi natijaga erishish uchun qanday turdagi metodlardan foyladalanish yoki qo‘llash lozimligi bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtiradilar, va bu bilan o‘quv ishlari yo‘nalishi bo‘yicha o‘zlarining malaka va ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Bundan tashqari Oliy Bosh Qo‘mondonimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Mudofaani boshqarish Milliy markaziga tashrifi va unda o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan majlisida “Bizga ilmiy darajalilar kerak...” degan fikr bildirganlar. Shu bois harbiy qismlarda faoliyat olib borayotgan malakali yosh kadrlarga pedagogik mahoratlarini shakillantirish, o‘z ilmiy salohiyatini oshirish uchun, o‘quv adabiyotlar va ilmiy maqolalar chop etish uchun zamin yaratib beradi va shu bilan bir qatorda harbiy qismlarda ham ilmiy salohiyatga ega malakali ofitser kadrlar yetishib chiqadi.

O‘quv kursini muvaffaqqiyatli tamomlagan harbiy xizmatchilarga tegishli namunadagi sertifikat topshiriladi.

O‘quv kursini tamomlagan harbiy xizmatchilar harbiy qismlarda o‘z qo‘l ostidagi shaxsiy tarkibga ta‘lim-tarbiya berishda, ularga zamonaviy uchish apparatlarini ekspluatatsiya qilishni o‘rgatishda, ma‘ruza, guruh, seminar va amaliy turdagi mashg‘ulotlarni pedagogik mahorat bilan tashkillashtiradilar.

Bundan tashqari harbiy xizmatchilar o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar nashr etishi, ilmiy jurnallarga maqolalar va ilmiy konfirensiyalarga tezislar chop etishi mumkin.

Kelgusida o‘z xizmat faoliyatini harbiy ta‘lim muassalarida o‘qituvchi lavozimida davom ettirish istagini bildirib murojaat qilsa, harbiy o‘qituvchi lavozimiga nomzodlarni saralab olishda, pedagogik mahoratini oshirganlik to‘g‘risidagi sertifikat inobatga olinadi.

Xulosa

Ofitserlarni pedogogik mahoratini shakillantirishdan maqsad, aviatsiya harbiy qismlarida xizmatini o‘tayotgan yosh ofitserlar, serjant va oddiy askarlarga sifatli mashg‘ulotlar tashkilashtirish, ularni pedagogik mahorat bilan o‘tkazish, kelajakda harbiy qismlarda ham ilmiy salohiyatga ega ofitserlar yetishib chiqishi, harbiy ta’lim muassasalariga harbiy o‘qituvchi lavozimlariga nomzodlarini saralab olishda keng imkoniyatlar beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgust kunidagi “Oliy ta‘lim muasssasalari rahbar va pedagog kadrlarning uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risidagi” PF-5789 sonli farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Makamasining 2019-yil 23-sentabr kunidagi “Oliy ta‘lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi” 797-sonli qarori.
3. Harbiy pedagogika o‘quv qo‘llanmasi A. Sotib-Aldiyev, A. Karimjonov O‘zbekiston Respublikasi Sharq 2005.

HARBIY TA‘LIM MUASSASALARIDA HARBIY PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLANILISHI

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ПОДГОТОВКЕ ВОЕННЫХ ПЕДАГОГОВ В ВОЕННЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

USE OF MODERN TECHNOLOGIES IN THE TRAINING OF MILITARY TEACHERS IN MILITARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS



TASHKENTBAYEV Z.,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi sikl boshlig‘i

ТАШКЕНТБАЕВ Я.,
Начальник цикла Центра подготовки младших специалистов Вооруженных Сил Республики Узбекистан

Mr. Z.TASHKENTBAYEV,
head of the training center for junior specialists of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Ushbu tezisda xozirgi kunda Qurolli Kuchlarimiz harbiy ta’lim muassasalarida harbiy pedagoglar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashi, harbiy xizmatchilarga ta’lim va tarbiya berishni yangi usullaridan foydalanishi hamda harbiy pedagogikaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari keng yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli o’quv platformalari, interfaol ta’lim usullari, o’yin texnologiyasi, harbiy pedagogikaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari.

Аннотация: В данном тезисе широко освещено использование современных технологий военными педагогами в военно-учебных учреждениях наших Вооруженных Сил, использование новых методов обучения и воспитания военнослужащих, а также преимущества внедрения современных технологий в военную педагогику.

Ключевые слова: цифровые образовательные платформы, интерактивные методы обучения, игровые технологии, преимущества внедрения современных технологий в военную педагогику.

Annotation: In this thesis, the use of modern technologies by military pedagogues in military educational institutions of our Armed Forces, the use of new methods of education and upbringing of military personnel, and the advantages of introducing modern technologies into military pedagogy are widely covered.

Key words: digital educational platforms, interactive educational methods, game technology, advantages of introducing modern technologies to military pedagogy.

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchi kadrlarni tayyorlashda harbiy pedagog kadrlarni tayyorlashda zamonaviy

texnologiyalar harbiy pedagogikada faol joriy etilib, harbiy kadrlar tayyorlash va tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega ekanligi nomoyon bo‘lmoqda.

Shu maqsadda pedagog kadrlarni tayyorlashga yondashuvni tubdan o’zgartirmoqlik zamon talabidir, yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagilarni ta’kidlab o‘tishni lozim deb bildim.

Raqamli o’quv platformanin virtual haqiqat va qo‘shimcha qilingan haqiqat jangovar harakatlar, o’quv poligonlari va turli senariylarning real simulyatsiyasini yaratish, bu tinglovchilarga xavfsiz muhitda qaror qabul qilish va ko’nikmalarni mashq qilish imkonini beradi. Onlayn kurslar va ta’lim platformalari o‘quv materiallari, testlar, simulyatorlar va videoma’ruzalarga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirishni ta’minlab, o‘rganishning qulayligi va samaradorligini oshirishni ta‘minlaydi. Mobil ilovalarga kiruvchi trening, taraqqiyotni kuzatish va dolzarb ma’lumotlarga kirishni ta’minlash uchun ishlatiladi.

Interfaol ta’lim usullariga o’yin texnologiyasi bu strategik fikrlash, jamoada ishlash, bosim ostida qaror qabul qilish va o’zgaruvchan muhitga moslashish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Simulyatsiya o’yinlari haqiqiy jangovar vaziyatlarni taqlid qilish, taktika va strategiyani o’rganish, qo’mondonlik va boshqaruvni mashq qilish imkonini beradi. Interfaol doska va taqdimotlar talabalarni o’quv jarayoniga jalb qilish va ularning faolligini rag’batlantirish orqali o’rganishni yanada dinamik va interaktiv qilish.

Ma’lumotlar tahlili va sun’iy intellekt harbiylarni kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash, o‘quv dasturlarini optimallashtirish va samaradorlikni bashorat qilish uchun foydalaniladi. Sun’iy intellekt tinglovchilarni tayyorlaydi, razvedkani tahlil qiladi, strategiyalarni ishlab chiqadi va jangovar vaziyatda qaror qabul qilishni qo’llab-quvvatlaydi.

Qo‘shimcha ravishda uchuvchisiz uchish apparatlari uchuvchilarni tayyorlash, razvedka, kuzatuv va jangovar harakatlar uchun ishlatiladi. 3D bosib chiqarish qurollari, jihozlar va boshqa ob’ektlarning modellarini yaratishga imkon beradi, bu esa mashg’ulotlarni yanada ko‘rgazmali o‘tkazishda qulay foydalaniladi. Bir nechta qurilmalar, tizimlarni ulash, samaradorlik va xavfsizlikni oshirish orqali aqlli harbiy muhit yaratadi. Harbiy ta’lim muassasalarida harbiy pedagogikada zamonaviy texnologiyalarni joriy etishning afzalliklari bo‘yicha quyidagilardan keng qo‘llash yaxshi natija beradi.

Ta’lim samaradorligini oshirish *treningni shaxsiylashtirish* texnologiya har bir tinglovchining shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan shaxsiy o’quv dasturlarini yaratishga imkon beradi. Yaxshilangan ta’lim virtual va kengaytirilgan haqiqat, interaktiv o’yinlar va simulyatsiyalar mashg’ulotlarni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi, shuningdek, haqiqiy jangovar sharoitlarda xavf-xatarsiz mashq qilish imkoniyatini beradi. O’rganish tezligi zamonaviy texnologiyalar sizga materiallarni optimallashtirish, vazifalarni avtomatlashtirish va o’quv resurslariga kirish orqali o’quv jarayonini tezlashtirish imkonini beradi.

Yangi ko‘nikma va malakalarni rivojlantirish uchun raqamli ko’nikmalar zamonaviy armiya uchun zarur bo’lgan turli xil raqamli texnologiyalar, tahliliy vositalar, platformalar va tizimlar bo’yicha o’qitish. Strategik fikrlash o’yin texnologiyalari va simulyatsiyalari vaziyatni tahlil qilish, bosim ostida qaror qabul qilish, jamoaviy ishlash, muvofiqlashtirish va strategik rejalashtirish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Professional moslashuv *sun’iy intellekt* va ma’lumotlar tahlili o’zgaruvchan jangovar sharoitlarga tezda moslashishga, ma’lumotlarni tahlil qilishga va maqbul qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalari bo‘yicha paydo bo‘lishini ta’limga joriy etilishi 1970 yillarga borib taqaladi. Dastlabki urinishlar har bir talaba uchun o‘rganishni avtomatik ravishda moslashtirish yoki individuallashtirish qoidalariga asoslangan sun’iy intellekt usullaridan foydalanish orqali namoyon bo‘ldi. Mazkur davrdan boshlab ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bir necha yo‘nalishlarda talabalarga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt, o‘qituvchiga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt va tizimga yo‘naltirilgan sun’iy intellekt ko‘rinishida davom etdi.

Sun’iy intellekt sohasi bilan shug‘ullanadigan mutaxassislarning qo‘pchiligi sun’iy intellekt texnologiyasini to‘rt turga ajratishadi:

Zaif sun’iy intellekt — tajriba to‘plash va to‘plangan ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan sun’iy intellekt. Zaif sun’iy intellekt muayyan bir vazifani amalga oshirish uchun yaratilgan bo‘lib, qo‘shimcha funksiyalarni bajara olmaydi.

Cheklangan xotiraga ega sun’iy intellekt — ma’lumotlar parchalarini eslab qolish va ular asosida mavjud vaziyatni tahlil qilish uchun mo‘ljallangan. To‘plangan tajriba xotirada saqlanmaydi va boshqa ma’lumotlar bilan integratsiyaga kirishmaydi.

Kuchli sun’iy intellekt — kuchli mashinalar odamlarning fikrlashi va motivlarini egallashi, inson bilan muloqot qilishi, hattoki ijtimoiy va hissiy aqlga ega bo‘lishi mumkin. Kuchli sun’iy intellektga o‘xshash mashinalar allaqachon mavjud. Apple kompaniyasining Siri va Yandeks kompaniyasining Alice nomli virtual yordamchilari shular jumlasidandir. Mazkur kuchli sun’iy intellekt vositalari odamlar bilan muloqot qilish usullarini o‘rgatadi.

Superintellekt — har tomonlama odamlardan oshib ketadigan sun’iy intellektni rivojlantirishning yakuniy bosqichi. Bunday darajadagi tizimlarning paydo bo‘lishi olimlar inson ongining ishlash tizimini to‘liq o‘rganib, modellashtirganida mumkin bo‘ladi.

O’rganish motivatsiyasini oshirish bu ta‘lim berishda interaktivlik zamonaviy texnologiyalar o’rganishni yanada interaktiv va qiziqarli qiladi, o’rganish motivatsiyasini oshiradi va harbiy xizmatga qiziqishni oshiradi. Mavjudlik trening istalgan vaqtda, istalgan joyda mavjud bo’lib, tinglovchilar o’zlarining ta’lim tajribalarini rejalashtirishlari va o’zlarining ta’limga egaliklarini oshirishlari mumkin. Realizm hissi virtual va kengaytirilgan haqiqat jangovar sharoitlarning haqiqatini his

qilish imkonini beradi, bu esa o’rganish va haqiqiy jangovar harakatlarga tayyorgarlik ko’rish motivatsiyasini oshiradi.

Harbiy ta’lim muassasalarida ta’lim xarajatlarini kamaytirishda resurslarni tejash zamonaviy texnologiyalar virtual simulyatorlar, simulyatsiyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalanish orqali o’quv xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. Samaradorlikni oshirish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish mashg’ulotlar samaradorligini oshiradi, uni qisqaroq va arzonroq qiladi. Xatarlarni minimallashtirish simulyatsiyalar va virtual simulyatorlardan foydalanish mashg’ulot paytida jarohatlar va shikastlanish xavfini minimallashtirishga imkon beradi, bu esa davolanish va reabilitatsiya xarajatlarini kamaytiradi.

Xavfsiz ta’lim muhitini yaratish xavfsizlik virtual simulyatorlar va simulyatsiyalardan foydalanish tinglovchilarning hayoti va sog’lig’ini xavf ostiga qo’ymasdan haqiqiy jangovar sharoitlarda mashq qilish imkonini beradi. Shikastlanish xavfini minimallashtiring virtual haqiqat va simulyatsiya mashg’ulotlari mashg’ulot paytida shikastlanish va shikastlanish xavfini kamaytirishga yordam beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o’quv maydonchalari narxini pasaytirishga katta turtki beradi va atrof-muhitga ta’sirini kamaytirishida.

Harbiy kuchlarning raqobatbardoshligini oshirish texnologik afzalliklariga zamonaviy texnologiyalardan foydalanish harbiy kuchlarga dushmanga nisbatan texnologik ustunlik beradi.

Samaradorlikni oshirish zamonaviy texnologiyalar jangovar samaradorlikni oshirishga imkon beradi, bu esa harbiy kuchlarni yanada raqobatbardosh qiladi.

Innovatsiyalarni rivojlantirish harbiy pedagogikaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish harbiy sohada yangi innovatsiyalarni rivojlantirishni rag’batlantiradi.

Harbiy pedagogikaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish puxta rejalashtirish, moliyalashtirish va professor-o’qituvchilar malakasini oshirishni talab qiladigan murakkab jarayon ekanligini tushunish muhimdir.

Biroq, bunday amalga oshirishning afzalliklari barcha sa’yi harakatlarni oqlaydi va ba’zi xavflarni hisobga olish kerak:

Axborotga ruxsatsiz kirish imkoniyati;

Texnologiyaga qaramlik xavfi;

Kiberxavfsizlikka bo’lgan ehtiyoj;

Umuman olganda, harbiy pedagogikaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish harbiy kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirish va harbiy kuchlarning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omili bo’lmoqda.

Xulosa: harbiy kadr va pedagog kadrlarni tayyorlashda yuqorida keltirilgan usul va tavsiyalarni amalda qo‘llanilishi, harbiy ta’limda juda katta ahamiyatliligi va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash xozirgi kun talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Satib-Aldiyev, A.A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika: O‘quv qo‘llanma./ Satib-Aldiyev, A.A., Karimjonov A. O‘R MV. – T.: “Sharq”, 2005. – 256 b.

2. Satib-Aldiyev A. Ofitser-o‘qituvchining pedagogik mahorati: darslik/ – T.: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2019. – 264 b.

3. Азизходжаева Н.Н. Инновации в реформировании непрерывного образования Республики Узбекистан. Наука «Педагогика»

4. Муслимов Н.А., Кадыров Х.Ш. Формирование профессиональной компетенции будущих педагогов на основе применения информационных и педагогических технологий // Вестник ЛГУ им. А.С. Пушкина. 2011.

Internet manbalari:

1. moluch.ru›archive/137/38209/

2. elar.urfu.ru›bitstream/10995/128149/1/978-5-8295-…

3.https://murzim.ru/nauka/pedagogika/28980-innovacii-v-reformirovanii nepreryvnogoobrazovaniya-respubliki-uzbekistan.html

4. https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-professionalnoy-kompetentsii-buduschihpedagogov-na-osnove-primeneniya-informatsionnyh-i-pedagogicheskih-tehnologiy (дата обращения: 02.11.2019).

INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNING HARBIY TA’LIM SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ



KASIMOV Farrux Tursunovich,
O’zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi katta o‘qituvchisi.
КАСИМОВ Фаррух Турсунович,
Старший преподователь Специализированного учебного центра
Национальной гвардии Республики Узбекистан.
Mr. Farrukh KASIMOV,
Senior Lecturer of the specialized educational center
of the National guard of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya: Maqolada harbiy ta’lim muasasalarida mutaxassislarni tayyorlashda muhim omil hisoblangan harbiy ta’limda zamonaviy innovatsion yondashuvlarning o‘rni,faol metodlardan foydalanishning yo‘llari va o‘ziga xos hususiyatlari yoritilgan.
Kalit so‘zlari: Innovatsion faoliyat, ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik innovatsiya, pedagogik amaliyot, mualliflik konseptsiyalar, kasbiy kompetentlik.

Аннотация: В статье описывается роль современных инновационных подходов, способов использования активных методов и их особенности в военном образовании, которое считается важным фактором подготовки специалистов в военных учебных заведениях.
Ключевые слова: Инновационная деятельность, передовые информационно-коммуникационные технологии, педогогическая инновация, педагогическая практика, авторская концепция, профессиональная компетентность.

Annatation: The article prepares specialists in military educational institutions Modern innovative approaches in military training, which is considered an important factor ways of using the methods and their specific features are highlighted.
Keywords: Innovative activity, advanced information and communication technological, pedagogical innovation, pedagogical practice, author’s concepts, professional competence.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti–Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida: “Eng katta boyligimiz bo‘lgan tinch hayotni asrash, xalqimiz farovonligini ta’minlash, kelajak rejalarimizni belgilashda ana shu holatlarning barchasini inobatga olishimiz zarur. Biz har qanday vaziyatda ham O‘zbekistonning davlat suvereniteti, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini ta’minlashimiz

shart. Bu – bizning tarix va kelajak avlodlar oldidagi muqaddas burchimiz va majburiyatimizdir”, [Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi]–deb ta’kidlab o‘tdilar.

Hozirgi shiddatli geosiyosiy qarama-qarshiliklar sharoitida iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, axborot xavfsizligi va boshqa sohalarda keskin muammolar paydo bo‘lmoqda. Murakkab xalqaro vaziyat,xavfsizlikka nisbatan xavf-xatar va tahdidlarning kuchayishi Markaziy Osiyoda ham kuzatilmoqda. Bunday xavf xatar va tahdidlar mamlakatimiz ya’ni mustaqil O‘zbekistonimizni chetlab o‘tishiga hech kim kafolat bermaydi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari harbiy xizmatchilarining intelektual va jangovar qobiliyatini mustahkamlash va har qanday nostandart vaziyatlarda to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan harbiy kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Harbiy xizmatchilar qo‘yilgan vazifani muvofaqiyatli bajarishlari uchun eng avvalo ruhiy tayyorgarligini yuqori darajaga ko‘tarish lozim. Shularni inobatga olib Milliy gvardiya ta’lim muassasalarida harbiy kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi kundan kunga jadallashib bormoqda.

Xalqimizning “Bilagi zo‘r birni yengadi, bilimi zo‘r–mingni” degan maqolida chuqur ma’no bor. Shu nuqtai nazardan, Qurolli Kuchlarimizni modernizatsiya qilish, xususan, harbiy ta’lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg‘or xorijiy tajribalar, innovatsion g‘oyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo‘yicha boshlangan ishlar sifat bosqichiga ko‘tarilmoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalari hamda zamonaviy qurolli nizolar hususiyatlari inobatga olingan holda qo‘shinlarni boshqarish tizimini takomillashtirish, ularni bosqichma-bosqich zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta’minlash bo‘yicha manzilli chora-tadbirlar belgilanib, bu yo‘nalishlarga ham ilmiy yondashuv va ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, so‘nggi yillarda respublikamiz va xorijiy yetakchi ilmiy markazlar bilan uzviy hamkorlikni rivojlantirgan holda oliy harbiy ta’lim muassasalari ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish, harbiy ta’lim sifatini takomillashtirish, ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash ko‘lamini kengaytirish, professor-o‘qituvchilarni uslubiy mahoratini oshirish–eng muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ta’kidlash lozimki, bu yo‘nalishlarda olib borilayotgan ishlar, albatta, o‘z samarasini bermoqda. Ya’ni harbiy sohada ilmiy tadqiqotlarning olib borilishi, harbiy xizmatchilarning xorijiy tillar va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini o‘zlashtirishi keng dunyoqarashga ega va yuqori malakali harbiy mutaxassislarning kamol topishiga, ularning xalqaro tanlov va harbiy o‘yinlarda munosib o‘rinlarni egallab, Qurolli Kuchlarimizning dunyodagi nufuzi oshishiga keng imkon yaratdi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev “Innovatsiya - bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak” deb aytib o‘tganlar.

Demak, bugungi kunda har bir soha va tizim faoliyatini innovatsion g‘oyalar va texnologiyalar asosida olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuga kirishishdan oldin “innovatsiya” so‘zining ma’nosiga biroz to‘xtalishni lozim topdik.

Innovatsiya tushunchasi (lotincha *novus* yangi) tadqiqotlarda va ilmiy ishlarda XIX asrlarda qo‘llanila boshlagan. Avval u alohida elementlarni birsohadan boshqa sohaga kiritishni ifodalagan. Texnikaviy yangiliklar kiritish qonuniyatlarini o‘rganib firmalar foyda olish uchun “innovatsion siyosatni” butun bir tizim sifatida o‘zlashtirishdi. Mazkur faoliyat jamiyat hayotining ixtiyoriy bo‘g‘inini yangilash bo‘yicha umumiy belgilarga, qonuniyatlar, yangilik kiritish mexanizmiga ega. Harbiy ta’lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko‘lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi chora-tadbirlarni qo‘llash talab etiladi. Shu maqsadda pedagoglarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni pedagogik innovatsiyalar bilan izchil qurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o‘rgatish vazifasini qo‘yish lozim. Pedagogika fanida ta’lim tizimidagi yangilik masalalari mutaxassislar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta’lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo‘lganligi sababli, boshqa tomondan, ta’limni markazlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, xususiy, to‘g‘ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi, agar ular ijtimoiy-pedagogik rejada qo‘llab-quvvatlanmasa ancha past bo‘ladi. Shunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma’lum hajm, miqyosida va darajada umuman mintaqaviy ta’lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin. Harbiy didaktika harbiy xizmatchilar ta’limini murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida o‘rganadi va bu jarayonning quyidagi asosiy funksiyalarini belgilaydi:

- ta’limiy (harbiy xizmatchilarni bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish);
- tarbiyaviy (harbiy xizmatchilarda o‘z Vatanining qurolli himoyachisi uchun zarur shaxsiy sifatlarni tarbiyalash);
- rivojlantiruvchi (harbiy xizmatchi shaxsini komil inson sifatida rivojlantirish, yuzaga kelgan turli vazifalarni hal qilishga ijodiy yondashish malakalarini rivojlantirish) va ruhiy tayyorlash (harbiy xizmatchilarda xizmat vazifalarini bajarishga va jangovar vaziyatda muvaffaqiyatli harakat qilishga ruhiy tayyorlikni shakllantirish).

Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko‘p bo‘lsa, o‘qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi.

Innovatsion faoliyat – pedagogning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta’limdagi innovatsiyalar shuningdek innovatsion pedagogik faoliyat haqida barqaror shu bilan bir qatorda hammaga ma’qul bo‘lgan ilmiy tasavvurlar va tasniflar shu paytgacha mukammal tarkib topgan emasligini ham e’tirof etish lozim. Bunday holatning asosiy sabablaridan biri ta’limga yo‘naltirilgan ilmiy bilimlar tizimlari o‘rtasidagi qiyinchilik bilan yengib o‘tiladigan uzilishlardir. Yana kattaroq sabab esa ta’limiy bilim va amaliy pedagogik faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. O‘qituvchi innovatsion faoliyatningsubyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo‘llash hamda

ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an’analardagi o‘zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli bu tushunchalar mazmunini izoxlamasdan turib, innovatsion faoliyatmazmunini anglash mumkin emas.

Innovatsiya–amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo‘lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga yo‘naltirilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimidir. Bu g‘oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo‘lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug‘ilib, ta’lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo‘ladi, shuningdek, umuman ta’lim tizimi rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Innovatsiyaning maqsadi – sarflangan mablag‘ yoki kuchdan eng yuqori natija olishdan iborat. Boshqa turli-tuman o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan yangiliklardan farqli o‘laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o‘zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta’lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo‘la olmaydi. Shu sababli “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalari o‘rtasidagi asosiy farqlarni ko‘rsatib o‘tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko‘lami asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli bo‘lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lmasa, o‘z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba’zi elementlarini o‘zgartirishni vazifa qilib qo‘ygan bo‘lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo‘lamiz. Agar faoliyat ma’lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo‘lsa va uning natijasi o‘sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsipial o‘zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Har ikkala tushuncha mezonlari quyidagicha: innovatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo‘ladi, ma’lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot subyektlari pozitsiyalarini to‘la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo‘nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o‘zi ham yangilanadi. Innovatsion faoliyat–uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash

bo‘lib, uzoq vaqt davomida shakllanadi va takomillashib boradi. O‘qituvchi innovatsion faoliyati hususiyatlarini o‘rganib chiqqan pedagog olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin:

- ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;
- pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;
- mualliflik konseptsiyalarini yaratish qobiliyati;
- tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;
- o‘zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo‘llay olish;
- hamkasblar bilan hamkorlik;
- fikr almashish va metodik yordam ko‘rsata olishlik;
- ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;
- yangiliklarni izlab topish va ularni o‘z sharoitiga moslashtirib borish.

Pedagogik innovatsiya bu pedagogik faoliyatdagi yangilik, o‘qitish va tarbiya mazmuni va texnologiyasidagi o‘zgarishlar, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Innovatsiya-innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi sifatida qaraladi: *g‘oyani yaratish* (ma’lum bir holatda, ilmiy kashfiyot), *amaliy jihatlarda g‘oyalarni rivojlantirish* va *yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish*.

Xususan, turli xil innovatsion jarayonlarning hayotiy davrlarini o‘rgangan pedagogik innovatsiyalar sohasi mutaxassisi V.I.Zagvyazinskiy ta’kidlashicha yangilikni rivojlantirish natijasida ijobiy natijalarga erishgan holda, pedagoglarni asossiz ravishda uni universallashtirishga, uni pedagogik amaliyotning barcha sohalariga tatbiq etishga intilayotganliklarini ta’kidlaydilar. Harbiy xizmatchilarga ta’lim berish jarayonida ular harbiy xizmat faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun tegishli bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar. Shu bilan bir vaqtda ularning tafakkuri rivojlanadi, irodasi va xarakteri chiniqadi, ma’naviy-axloqiy va jangovar sifatlari, hissiy-irodaviy turg‘unligi, jangovar holatlarda aniq va ishonchli harakat qilish uchun ruhiy tayyorgarligi shakllanadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun harbiy ta’lim jarayonini tashkil etishda turlicha yondashuvlar mavjud. Ularni asosiylarini ko’rib chiqish lozim. Harbiy ta’limga davlat va jamiyat tomonidan qo‘yiladigan talablarda harbiy ta’lim sohalari bo‘yicha o‘zaro muvofiqlik va mutanosiblik to‘la ta’minlanadi. Shu jihatdan harbiy ta’lim standartini belgilashda ta’lim jarayonining tarkibi, huddi shu tarkibiy qismlarning mazmunini modernizatsiyalash, zamonaviy pedagogik texnologiyani qo‘llash imkoni hisobga olingan. Pedagogika fani va ta’lim-tarbiya amaliyotida turli yondashuvlar qo‘llaniladi. Yillar davomida qo‘llanib kelinayotgan an’anaviy yondashuv bilan bir qatorda hozirgi kunda ta’limga zamonaviy yondashuvga alohida e’tibor berilmoqda. Ta’limga tizimli, texnologik, tadqiqiy, funksional, kompleks, faoliyatli yondashuvlar zamonaviy yondashuvga misol bo‘la oladi.

An’anaviy yondashuv. Uning asosiy hususiyati, pedagog ma’lum axborotni gapirib beradi, tushuntiradi, ta’lim oluvchi harbiy xizmatchilar esa bu bilimni xotirasida saqlaydi. “Bilim” tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma’nosida tushuniladi. Ta’lim oluvchida bilim bor-yo‘qligi imtihonda shu axborotga doir berilgan savolga yoddan bergan javobiga qarab aniqlanadi.

Tizimli yondashuv. Tizimli yondashuv ilmiy bilish metodologiyasi va pedagogik amaliyotning bir yo‘nalishi sifatida universal tavsifga ega bo‘lib, pedagogikada keng qo‘llaniladi. Ta‘lim-tarbiyaga ham pedagogik tizim sifatida qarash lozim.

Texnologik yondashuv. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida yuzlab texnologik loyihalar (jarayonlar) yaratilgan. Ular, agar texnik hujjat talablariga amal qilinsa, ishni kim va qayerda bajarganidan qat’iy nazar, mahsulot sifati va natijasi kafolatlanadi. Ta’lim jarayonida texnologik yondashuv esa:

- o‘qish-o‘qitish jarayonini o‘zaro uzviy bog‘liq bosqichlar, fazalar, amallarga ajratish, bo‘lishni;
- ta’limdan mo‘ljallangan natijaga erishish uchun bajariladigan harakatlarni muvofiqlashtirishni, ketma-ket, bosqichma-bosqich amalga oshirishni;
- loyihalashtirilgan ishlar, amallarning barchasini birdek bajarishni nazarda tutadi.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv. Bunday yondashuv ta’limning maqsadidan kelib chiqib ta’lim oluvchida biror muammoni yechish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o‘zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko‘rsatishni ko‘zda tutadi.[Satib-Aldiev A.A. Ta’limning faol shakl va metodlari –45 b.]

O‘quv mashg‘ulotlarini o‘tish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish, amaliy o‘quvlar, kundalik xizmat, jangovar vazifalarni bajarish vaqtida kutilmagan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. O‘qituvchi o‘zining tajribasiga, intuitsiyasiga tayanib pedagogik jarayon davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan pedagogik vaziyatlarni oldindan ko‘ra bilishi va uni ijobiy yechimga keltirish yo‘llarini tanlashi, ta’lim-tarbiya maqsadlari va vazifalariga muvofiq pedagogik vaziyatlarni oldindan loyihalashtira olishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o‘qituvchi ma’lum bir ta’limiy yoki tarbiyaviy masalani yechish, muammoni, hal qilish maqsadida biron bir pedagogik vaziyatni sun’iy ravishda, ataylab oldindan rejalashtira olishi lozim.

Pedagogik vaziyatlarni loyihalashtirishda ofitser-o‘qituvchi o‘zining kasbiy kompetentligi, mahorati, harbiy xizmat va pedagogik tajribasiga tayanib loyiha natijalarini oldindan bashorat qila olishi, pedagogik jarayonni konkret shaxs yoki guruhga moslashtirishi, real vaziyatni hisobga olishi, vaziyatdan kelib chiqib qo‘llay olishi uchun bir necha xil variantini ishlab chiqishi lozim. Eng asosiysi – loyihalashtirilgan vaziyatlarning natijasi pedagogik masalalarning ijrosiga xizmat qilishi lozimligini unutmaslik kerak. Pedagogik vaziyat kutilmaganda yuzaga keladimi

yoki oldindan loyihalashtiriladimi, qanday bo‘lishidan qat’i nazar, uning yechimi ta’lim-tarbiya va shaxs rivoji masalarigan qaratilgan bo‘lishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganimizda, innovatsion faoliyat – bu ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba–sinov ishlari olib borish yoki boshqa fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda yangi texnologik jarayon yoki yangi takomillashtirilgan mahsulot yaratish bo‘lib, uning progmatik hususiyati shundaki,u g‘oyalar maydonida ham va alohida bir subyektning harakat maydonida ham amalga oshirilmaydi, balki bu faoliyatni amalga oshirish tajribasi kishilar hayotida hammabop bo‘ladigan holdagina haqiqiy innovatsion hisoblanadi. Innovatsion faoliyatning asl mazmuni amalda yangi texnologiyaning shakllanishi bo‘lib, uning natijasi innovatsiya sifatida yuzaga kelgan ixtironi–loyihaga, loyihani–texnologiyaga aylantirishga yo‘naltirilgan faoliyatdir. Innovatsion faoliyatda ilmiy tasavvurlar akademik ilm mantiqi bo‘yicha tug‘ilmaydi, balki rivojlanish jarayonining modifikatsiyalari qo‘llab-quvatlanishinatijasida rivojlanayotgan amaliyot mulohazasidan paydo bo‘ladi. O‘qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, o‘qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma‘naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo‘llashga ham alohida e’tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-Toshkent: O‘zbekiston, 2023 y.
2. Mudofaa doktrinasi - Toshkent: O‘zbekiston, 2018 yil, 9 yanvar.
3. Satib-Aldiev A.A. Ta’limning faol shakl va metodlari.//Metodik tavsiyalar:– Toshkent OUQBYU, 2007. – 45 b.
4. Сергеев И.С. Основы педагогической деятельности. Санкт- Петербург: Питер, 2004. – 316 с.
5. Xoliqova D. Harbiy didaktika va psixologiya asoslari [матн]:дарслик/–T.:O‘R Qurolli Kuchlari Akademiyasi. 2019. - 320 b.
6. https://kun.uz 13 yanvar, Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi

ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ОПЫТ КАК ВАЖНЕЙШИЙ КОМПОНЕНТ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ВОЕННОГО ВУЗА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ

MILITARY PEDAGOGICAL EXPERIENCE AS THE MOST IMPORTANT COMPONENT OF THE ACTIVITY OF A TEACHER OF A DEPARTMENTAL UNIVERSITY IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION OF EDUCATION

AXROROV O.A.
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi katta o‘qituvchisi

АХРОРОВ О.А.,
Старший преподаватель Центра подготовки младших специалистов Вооруженных Сил Республики Узбекистан

AXROROV O.A.
Senior lecturer of the Junior Specialists Training Center the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

Аннотация. В статье рассмотрен военно-педагогический опыт как многогранный и целостный феномен педагогической культуры преподавателя военного вуза, проявляющийся в различных видах его деятельности: военно-служебной, образовательной, научной, воспитательной, управленческой. Раскрыто содержание военно-педагогического опыта, синтезирующего в себе мировоззренческую, нравственную, профессиональную, интеллектуальную, эмоциональную, эстетическую и физическую стороны. Теоретически обоснованы слагаемые военно-педагогического опыта: высокое мастерство, гармоничное сочетание учебно-воспитательной работы с научными поисками путей ее совершенствования, система профессионально-педагогических качеств.

Pedagogik kompetentlik barcha pedagoglar uchun qolipdagi ish uslubi emas, balki u har bir o‘qituvchining o‘z ustida ishlashi, ijodiy mehnati evaziga yuzaga keladigan jarayondir. Shu jihatdan olganda, pedagog mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagilarga e’tibor berish kerak:

- shaxs ma’naviy-axloqiy sifatlarining faol shakllanishi, pedagogik texnologiyalarning tamoyillari bilan boo‘liqlikda keyingi amaliy faoliyatda ta’lim jarayonini pedagogik jihatdan bir butun tarzda tashkil etish va amalga oshirish;
- ta’limga texnologik yondashuv asosida masho‘ulotlarning o‘quv maqsadini qo‘ya olish, pedagogik faoliyatni rejalashtirish; - amaliy masho‘ulotlarni modellashtirish, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini bashorat qila olish, xatolarni tuzata olish strategiyasini ishlab chiqish;
- ta’lim oluvchi shaxsining har tomonlama taraqqiy etishi, ta’lim jarayonining «jonli», ijodiy tashkil etishga yordam beruvchi ta’limning zamonaviy integrativ, bilish faoliyatini boshqarish metodlarini egallash;
- ta’lim standartlarining yangi talablari va o‘zining ehtiyojlari bilan boo‘liqlikda o‘qitish va ta’lim sifatini tashxis etishining turli usul va vositalaridan samarali foydalanish, bundan tashqari yangi metodik yo‘llarni mustaqil yaratish va nazorat qilish ko‘nikmalarini egallash;

- pedagogika va psixologiyaga oid yangi adabiyotlarni muntazam mutolaa qilib borish;

- ilg‘or pedagogik tajribalar va pedagogika fanining zamonaviy yutuqlaridan amaliyotda foydalanib, ijodkor, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxsni shakllan - tiruvchi ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni olib borish. **Bunda pedagogning faoliyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:**

- o‘z-o‘zini rivojlantirish;

- o‘quv faoliyatini ilo‘or texnologiyalar asosida qurish;

- pedagog va o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikning qaror topishiga zamin yaratish;

- o‘quv faoliyatining o‘quvchilar ichki motiviga asoslangan izlanuvchanlik yo‘nalishining kasb etishini ta’minlash va boshqalar. Pedagogik faoliyat o‘quvchilarga uch xil pedagogik ta’sir ko‘rsatishni nazarda tutadi: nimani o‘qitish, kimni o‘qitish va qanday o‘qitish? Demak, mohir o‘qituvchi o‘quv predmetidan material tanlash va uni guruhlarga ajratish uquvini oshirishi, o‘quvchilarning mavjud imkoniyatlari, ta’limning umumiy maqsadlarini amalga oshirib, o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul va metodlarini oqilona tanlashi va qo‘llashi lozim [2]. Tabiiyki, mohir o‘qituvchi o‘zining shaxsiy faoliyatini o‘zi tahlil qilib boradi. Ish davomida o‘quvchilar va o‘zining shaxsiy mehnati hamda sarflangan vaqtini hisobga olish, ishdagi kamchiliklar mavjud joylarni ko‘ra bilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini tanlash, o‘z tajribasini va hamkasblarining ishlarini tahlil qilish o‘ta muhim. Agar pedagogik faoliyatning barcha sanab o‘tilgan tarkibiy qismlari mavjud bo‘lsa, u holda uni psixologik jihatdan to‘la va yetuk, deb hisoblash mumkin. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish uchun faoliyat davomida pedagogik vazifa va maqsadlarni qo‘yish, uni o‘zgartirish, pedagogik vaziyatlarni taqqoslash va klassifikasiyalash, qaror qabul qilish, pedagogik tafakkur va pedagogik intuisiya, tahlil etish, baholash, o‘zini o‘zi tuzatish, pedagogik refleksiya va boshqalar kabi muhim kasbiy sifatlar mujassamlanadi. Pedagogik kompetentlikni rivojlantirish bevosita uning faoliyatida ro‘y beradigan o‘zgarishlar, motivlar, maqsadlar, yangi vositalarni qo‘llash, usullar hamda faoliyat dasturi bilan bog‘liq holda kechadi. Turli pedagogik o‘zgarishlar asosida o‘qituvchi faoliyati shakllanadi. Pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchi tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo‘lgan nufuzli rahbar, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ichki dunyosini tushuna oladigan, ularning tuyg‘ularini his qila oladigan, ichki dunyosi nozik va zaif bo‘lgan bola shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondashadigan, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziya, chuqur ilmiy tafakkurga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi [3].

Pedagogik nazariya va amaliy faoliyat natijalariga ko‘ra o‘qituvchi pedagogik kompetentligining shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillari mavjud bo‘lib, ulardan eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, nazariy-usuliy bilimlar; ixtisos fanlari va pedagogik faoliyat; pedagogik turkum fanlar;

-psixologik muhit;

-madaniy-tarixiy an’analar;

-urf - odatlar; diniy qadriyatlar;

-siyosiy voqealar; pedagogning intelektual salohiyati, axborot – kommunikativ vositalar. Ularni umumlashtirgan holda quyidagi jadvalda o‘qituvchi pedagogik kompetentligining shakllanishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy-pedagogik omillarni keltiramiz. Qarang, jadvalda keltirilgan unsurlar pedagogik kompetentlikni shakllantirish, mustaqillik yo‘lidan dadil odimlab, fuqarolik jamiyatini qurishga intilayotgan mamlakat o‘qituvchisini faol mehnatga tayyorlab, uning uzluksiz mahoratini oshirish ko‘nikmalarini shakllantirish, ilmiy nazariy, amaliy -usuliy tayyorgarligini oshirish, jamiyatda, atrof-muhitda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga ongli munosabatini tarkib toptirish, har bir harbiy ta’lim o‘qituvchisining individual ijodiy qobiliyatlarini mustahkamlash uchun omil bo‘lib hizmat qiladi[4].

Harbiy pedagoglarni pedagogik kompetentligiga
ta’sir etuvchi omillar

-Ta'lim to‘g‘risidagi, O‘zbekiston Respublikasi Qonuni;

- Pedagogik faoliyat;
- Urf-odatlar;
- Intellekt;
- Ma’naviyma’rifiy ishlar;
- Nazariy-usuliy tayyorgarlik;
- Psixologik muhit;
- Pedagogik turkum fanlar;
- O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyas.

Pedagogik kompetentlikning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar Shuningdek, bu kasbiy-shaxsiy xususiyatlar o‘qituvchi – tarbiyachiga, o‘quvchi yoshlarning ruhiy-jismoniy rivojlanishlari, o‘quv-biluv faoliyatlarining aktivlashuvini ta’minlash kabi bir necha pedagogik vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishning tamal toshi bo‘la oladi.

Qayd qilib o‘tganimizdek pedagogik kompetentlik har bir harbiy ta’lim o‘qituvchi tarbiyachi uchun xos bo‘lgan ta’lim – tarbiya ishlarini doimo yuksakka ko‘tarishga, uni takomillashtirishga asos bo‘luvchi san’atdir. Bu san’at o‘z ishini bilish faoliyatini muntazam tartibga solib, nazorat qilib, yuksaklikka ko‘tarish bilan tavsiflanadi. Unda eng asosiysi pedagogik-psixologik nazariyalarni samarali qo‘llash nazarda tutilgan[5].

Shu o‘rinda e’tirof etib o‘tish joizki, hozirgi davr, milliy mustaqillik o‘qituvchi – tarbiyachining o‘z faoliyati jarayonida quyidagi uch muhim vazifani amalga oshirishini talab etadi:

1. Ijtimoiy buyurtma sifatida ta’lim muassasalarida o‘quv – tarbiya ishlarini tashkil etish, amalga oshirish orqali, aql – zakovatli, bilimdon, ishbilarmon

tadbirkorlarni tayyorlash hamda ularni davr texnikasi va uning ishlash texnologiyasi bilan yaqindan tanishtirish.

2. Ta’lim - tarbiya ishlarini amalga oshira borib, o‘qituvchi -talabalarni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish, egallangan bilimlar asosida ularda amaliy ko‘nikma, malakalar hosil qilish va uzluksiz ta’limga tayyorlash.

3. Qo‘lga kiritilgan ma’lumotlar asosida o‘quvchi - yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ma’naviy – axloqiy salohiyatini yuksaltirish, jamiyat uchun erkin fikrlovchi va irodasi baquvvat yoshlarni tarbiyalab voyaga etkazish, ularning o‘z – o‘zini anglash, o‘z – o‘zini boshqarish malakalarini hosil qilish, mustaqil bilim olishga o‘rgatish, g‘oyaviy – siyosiy e’tiqodini hamda milliy – estetik fazilatlarini tarkib toptirishga erishish. Pedagogik kompetentlikni takomillashtirishning qayd qilib o‘tilgan yo‘nalishlari, birinchi navbatda, o‘qituvchi – tarbiyachi mohirligini oshirishga yordam bersa, ikkinchidan o‘qituvchining ta’lim – tarbiya ishlarining yangi pedagogik g‘oyalar asosida tashkil qilishga o‘z kasbiy malakasini yuksaltirishga katta imkon beradi. Chunonchi, doimiy mashq qilish mahoratni takomillashtirish ta’lim-tarbiyani yaxshilash uchun nur ustiga, a’lo nur bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik mahorat egasi bo‘lish uchun pedagog o‘z o‘quv predmetini davr talablari asosida bilishi, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini mukammal o‘zlashtirishi hamda insoniylik, mehnatsevarlik va fidoyilik kabi ma’naviy – axloqiy fazilatlarni o‘zida tarkib toptirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayeva. Sh., Axatova. D.A Pedagogika. Toshkent. «Fan» 2004-y.
2. Davronov I.E., Jurayev B.T. Pedagogika va psixologiya fanlarini o‘qitish metodikasi. – B.: Durdona, 2019
3. R.A.Mavlonova,D.Abdurahimova. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma T:.Fan va texnologiya 2012-yil
4. Ochilov M.. Muallim qalb me’mori. O‘quv qo‘llanma T :.O‘qituvchi. 2004-yil
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013

АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ КУРСАНТЛАРДА ЗАМОНАВИЙ КИТОБХОНЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ



ИСМАИЛОВА Нилуфар,
мустақил тадқиқотчи,
ИИВ Академияси кафедраси ЎМК бошлиғи

Резюме: Ушбу мақолада ёшлар таълим-тарбияси, маънавиятини оширишда китобхонликнинг ўрни, замонавий китобхонлик, аудиокитобларнинг қулайлиги борасида фикр юритилган.

Калит сўзлар: ёшлар, таълим-тарбия, маънавият, китобхонлик, замонавий китобхонлик, аудиокитоб.

Бизнинг буюк бобокалонларимизнинг бой меросини ўрганиш асосида айтиш жоизки, уларнинг тарихда абадий яшаб қолишларига сабаб илм олишга, ўқиб-ўрганишга бўлган иштиёқлари, қийинчиликларга қарамай таълим олиш учун ҳаракат қилганликларидир.айнан ўқиб-ўрганиш инсон маънавиятига асос бўлади. Кишилик жамияти бор экан, бунга эҳтиёж сезилади. Фақат ҳар бир давр, замоннинг ўз маънавий қадриятлари, талаблари, қарашлари бўлади. Гап бу жараёнда ўзлигимизни сақлаб қолиш, ҳар соҳада фаол, қизиқувчан, шу билан бирга ўзгарувчан ёшларимизни турли ахборот хуружлари ва таъсирларидан ҳамда ёт ғоялардан ҳимоялашимиздадир. Бу борада Президентининг 2018 йил 14 августдаги “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3907 сон қарори ҳамда ислоҳотларнинг давоми сифатида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабрдаги 1059-сон қарори билан тасдиқланган “Узлуксиз маънавий тарбия концепцияси”нинг қабул қилиниши, Ватанга садоқат, бурч ва масъулият, ташаббускорлик ва бошқа фазилатларни ёшлар онгида фақат назарий тушунчалар сифатида қолиб кетмаслигини, аксинча маънавий-ахлоқий тарбия мавзусининг яна асосий ўринда эканлигини тасдиқлайди [Расулов М.К. 4].

Беқўним фикрли замонавий ёшларни таълим олишлари учун керагича имкониятлар яратиб келинмоқда. Юртимизнинг турли ҳудудларида янгидан барпо этилаётган таълим муассасалари, кутубхоналар, спорт иншоотлари ва яратилаётган барча имкониятлар ёшларимизнинг жисмонан соғлом, маънавий

етук шахс бўлиб камол топишига хизмат қилмоқда. Булар орасида айниқса, ёшларни бўш вақтини мазмунли ташкил этиш, ахборот олиш ва илм йўлида изланишларни амалга оширишда кутубхоналарнинг ўрни беқиёсдир. Бунга мисол тариқасида Ўзбекистонинг энг йирик кутубхоналари – Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, Ўзбекистон Фанлар академияси фундаментал кутубхонаси, Республика илмий-техника ҳамда Давлат илмий-тиббиёт кутубхоналарида китобхонларга масофавий хизмат кўрсатиш ишлари амалга ошириб келинмоқда [Хакимова М.С. 4] Ушбу кутухоналарда китобхон .фойдаланувчи)ларга ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда хизмат кўрсатишнинг қуйидаги хусусиятини келтирамиз.

Китобхонларга масофавий хизмат кўрсатиш ва электрон китоблар мутолаасининг ривожланиши китобхонлар аудиторияси трансформацияси ва “кутубхона-китобхон” тизимида турли ёш ва характердаги ёшлар учун айнан ягона хизматлардан фойдаланишнинг бир хил имкониятини таъминланмоқда.

Кутубхоналарнинг ижтимоий функциялари аввалгидек сақланиб, фойдаланувчи ишончини оқлаш, унинг ахборот талабларини қондириш, ахборотнинг жойлашган манзилидан қатъий назар, унга фойдаланиш учун тақдим этиш, яъни очиқлик, тезкорлик ва ташувчанлик хусусиятлари янги босқичга кўтарилмоқда. Шу билан бирга, китобхон ёшларнинг ахборот-коммуникация тизимлари ва тармоқларидан фойдаланиш кўникмалари тобора мустаҳкамлаш, адабиётлар билан танишиб чиқиш, кўчириб олиш, сақлаш, истаган вақтда қайта мурожат қилиш ва мустақил мутолаа қобилиятларини шакллантиришга хизмат қилмоқда.

ёшларнинг китобхонликка меҳрини оширишни шакллантириш бугунги кунда кутубхона ва таълим муассасалари амалий фаолиятининг муҳим йўналишларидан бирини ташкил этади. “Ахборот маданияти асослари”, “Ахборот технологиялари асоси” каби фанлар деярли барча таълим муассасаларида муваффақиятли ўқитилмоқда. Кутубхоналарда эса барча китобларни электрон шаклга ўтказиш, электрон маълумотлар базасини яратиш ва тўлдириб бориш жараёни жадаллик билан амалга ошириб келинмоқда. Ёшларнинг китобхонлик маданияти даражасини аниқлаш истагида тадқиқотчилар томонидан ҳар йили турли хил сўровнома, анкета ва интервьюлар ўтказилади. Изланишлар натижасида ёшларнинг анъанавий китоблар билан бирга электрон китобларни ўқиш истаги ҳам борлиги, улар учун бу қулайлик ва вақт тежамкорлиги яратиб бераётганлиги маълум бўлади. Нуфузли хорижий университетларнинг бирида ўтказилган сўровномада талабалар имтиҳонларга тайёргарлик кўришда анъанавий дарсликлардан фойдаланишни афзал кўрганликлари – 79 фоизни ташкил этган бўлсада, ўқув материалларининг мураккаблик даражасига қараб электрон китоблардан фойдаланиш тарафдори эканликларини маълум қилишган.

Мамлакатимизда аҳоли ва айниқса ёшларимиз учун ахборот ресурслари, жумладан Интернет глобал тармоғидан фойдаланиш борасида кенг имкониятлар яратилганлигини таъкидлаш билан бирга, жамият ривожланишнинг ахборот босқичига кириши инсон катта ҳажмдаги ахборотни қабул қилиш ва уни қайта ишлаш ҳамда фойдаланишнинг ҳозирги замон воситалари ва усулларини эгаллашга том маънода тайёр эмаслигини ҳам кўрсатиб қўйди. Ахборотлаштириш асрида ахборот хуружининг авж олиши айниқса ёшларда ахборот олиш маданияти, ўқиш маданиятини шакллаштиришни тақозо этади. Ахборот маданияти эса кутубхона - библиография саводхонлиги, китобхонлик маданияти ва компьютер саводхонлиги каби асосий устунлардан ташкил топади[3].

Бугунги кунда юртимизда китобхонлик сифат жиҳатдан янги босқичга кўтарилмоқда. Ёшлар маънавияти тадрижий ривожланиб борувчи фаол жараёндир. Шу жиҳатдан китобхонликни шакллантиришда ахборот-коммуникация технологияларининг барча имкониятларидан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шарқ мутафаккирларининг тажрибасига кўра, китобхон қайси мавзуга қизиқса шу мавзудаги китобни тақдим қилиш, китоб ўқишга кўникма ҳосил қилгач эса аста-секин унга ихтисослашган китоблар тақдим қилиб борилади. Ушбу тажрибага қўшимча равишда агар ёшлар адабиётларни электрон шаклда ўқишга қизиқса, шу кўринишда мутолаа этиши ва китобхонлик маданиятини шакллантириб бориши мақсадга мувофиқдир.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Расулов М.К. Маънавий-ахлоқий тарбия - мафкуравий таҳдидларга қарши курашишда энг кучли омил // Тафаккур манзили. - Т., 2022. – авг. – Б.172-175

2. Ганиева Б.И. Талабаларда ахборот олиш маданиятини шакллантиришнинг муҳим йўналишлари // Иқтисодиётнинг реал тармоқларини инновацион ривожланишида ахборот–коммуникация технологияларининг аҳамияти республика илмий-техник анжуманининг маърузалар тўплами; 3-қисм.- 6-7 апр. 2017. - Т.- Б. 15-17.

3. Хакимова М.С. Электрон ахборот - кутубхона тизимларидан фойдаланиш // SCIENCE AND INNOVATION: INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. – 2022. – №2 [https://doi.org/10.5281/zenodo.6636271] ISSN: 2181-3337.-P.157-162.

MUSOBAQA VA TANLOVLAR TA’LIM TEXNOLOGIYALARI SIFATIDA

СОРЕВНОВАНИЯ И КОНКУРСЫ КАК ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

ALANGOV Dilshod Zairovich,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
katta o‘qituvchisi

АЛАНГОВ Дилшод Заирович,
Старший преподаватель Академии Вооружённых Сил
Республики Узбекистан

Annotatsiya. Maqola talabalarning iqtidorini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ta’lim strategiyasi sifatida tanlovlar va musobaqalarning samaradorligini tahlil qilishga bag‘ishlangan.
Kalit so‘zlar: musobaqa, tanlov, olimpiada, ta’lim texnologiyalari.

Abstract. The article is devoted to the analysis of the effectiveness of contests and competitions as an educational strategy for identifying and supporting students’ talents.
Key words: competition, competition, olympiad, educational technologies.

“Iqtidor” tushunchasi va uni aniqlash, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini o‘rganish oxirgi vaqtlarda keng tarqalmoqda va nafaqat pedagogik tadqiqotlar, balki psixologik yo‘nalishdagi ishlar uchun ham xosdir. Iqtidor atamasi haqida hali ham aniq tushuncha mavjud emasligiga qaramay, L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, B.M. Teplov, N.S. Leyt kabi olimlar iqtidorlilik bir qator omillarning kombinasiyasiga bog‘liq va uni rivojlantirish mumkin, deb hisoblashadi [1, 5, 7, 3].

Iqtidorni turli tomonlardan ko‘rish mumkin: intellektual qobiliyatlar, genetik moyillik, yosh xususiyatlari, ammo iqtidorli shaxslarni aniqlash, rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning ideal shakli munozaralar maydonida qolmoqda.

Iqtidorni aniqlash shakllariga katta e’tibor turli xil psixologik va pedagogik ishlarda keng tarqalgan, chunki bu ta’lim oluvchining rivojlanishi, pedagogikasi bilan bevosita bog‘liq va jamiyat muammolariga javob berishi kerak. Xozirgi kunda mana shunday ta’lim texnologiyalarining shakllaridan biri musobaqalar, tanlovlar va olimpiadalar hisoblanadi.

Terminologiyani aniqlash va munosabatlarni o‘rnatish uchun o‘zbek tilining izohli lug‘atiga murojaat qilaylik. A. Madvaliev tahriri ostidagi (2006-2008) O‘zbek tilining izohli lug‘atiga ko‘ra [9]: *musobaqa* – bu tortishuv, bellashuv, tanlov. Kim o‘zish, kim yaxshi natijalarga erishish uchun bo‘lgan bellashuv. Masalan, otish musobaqasi. Chopish musobaqasi. *Tanlov (konkurs)* – eng yaxshi ishtirokchilar va eng yaxshi ishlarni ajratib ko‘rsatishga qaratilgan tanlov. *Olimpiada* – musobaqalar, bellashuvlar - sport, badiiy yoki ba’zi bilimlar sohasidagi. Qizig‘i shundaki, faqat *“olimpiada”* atamasi turli xil faoliyat sohalaridagi musobaqalarni anglatadi: sport, fan va san’at.

Ta’riflarga asoslanib, tanlovlar (konkurslar) va olimpiadalar musobaqaning bir turi ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin, shuning uchun ta’limdagi ushbu hodisani batafsil ko‘rib chiqaylik.

Musobaqalar o‘quv jamoasi faoliyatini tashkil etishning muhim usuli hisoblanadi. Usul xarakter xususiyatlarini, muayyan faoliyat hajmini, ma’lum bir malakaning rivojlanish darajasini taqqoslash va bajarilgan ish natijalarini hisobga olishga asoslangan. Raqobat ham pedagogik ta’sir ko‘rsatish usuli, ham o‘quvchilar faoliyatining turli shakllarini tashkil etish vositasi sifatida qo‘llaniladi [6]. Musobaqalar ta’lim natijalariga erishishni rag‘batlantirish, shuningdek, ta’lim faoliyatini motivasiyalash uchun o‘tkaziladi.

Ayni paytda ta’lim olvchilar o‘rtasida ko‘plab musobaqalar o‘tkazilmoqda. Musobaqalar o‘quv auditoriyalarida ham (baholar, ballar, reytinglar, o‘quv natijalari tahlili) va ta’lim muassasasi tashqarisida (qo‘shimcha ta’lim, sektsiyalar, olimpiadalar, ijodiy tanlovlar, sport musobaqalari va boshqalar) o‘tkaziladi. Shuni ta’kidlash kerakki, har xil turdagi musobaqalar turli maqsadlar va raqobat komponentini amalga oshirish usullariga ega. Agar auditoriya ichidagi raqobat shunchaki mustahkamlangan materialning tasdig‘i bo‘lishi mumkin va turli shakllarda qo‘llanilishi yoki yo‘q bo‘lishi mumkin bo‘lsa, unda, masalan, futbolda raqobat umuman faoliyatning ajralmas qismidir.

Biroq, musobaqalarning ommabopligi va ularning xilma-xilligiga qaramasdan, ushbu usulning kamchiliklari borligini ta’kidlash kerak. A.M. Yaxina va A.V. Gizatullina o‘z tadqiqotlarida muhim fikr bildirishgan. Ularning maqolasida “Zamonaviy ta’lim muassasasida klassik uslubda darsni tashkillashtirish mobaynida raqobatbardoshlik elementi hatto frontal so‘rov kabi ish rejimida ham noaniqlik xarakteriga ega. Bunday vaziyatda tortinchoq (o‘ziga ishonmaydigan), asab tizimining inert tipidagi o‘quvchilar doimo salbiy his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar va o‘z vaqtida yoki boshqa o‘quvchilarga qaraganda o‘qituvchining savoliga javob berishga vaqtlari etmaganligi sababli muvaffaqiyatsiz vaziyatga tushib qoladilar. Bu ularning barcha faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi” [2. 14-bet]. Shundan kelib chiqqan holda, o‘quvchilarning qobiliyatlarini baholash yoki aniqlashning raqobatbardosh turlari bilim, ko‘nikma va malakalarining umumiy sifatini aniqlashda noto‘g‘ri, shuningdek ulardan foydalanishda noqulaylik tug‘diradi degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Darhaqiqat, raqobat vaqtinchalik bo‘lsa ham, muvaffaqiyatsizlikka uchragan o‘quvchilar uchun bu holat demotivasiyaga olib kelishi mumkin. V.E. Mixaylichenko “shaxsiy rivojlanish psixologiyasi” deb nomlanuvchi o‘zining monografiyasida ta’kidlaganidek, takroriy muvaffaqiyatsizliklar ta’siri ostida, agarda o‘qituvchi vaqtida yordam bermasa, o‘quvchida mag‘lubiyat motivasiyasi rivojlanishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, vazifani boshlashdan oldin, o‘quvchi muvaffaqiyatga erisha olmasligiga ishonch hosil qiladi. Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashda bu holat hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Va o‘z-o‘zidan ajoyib qobiliyatlarni namoyon qilishi mumkin bo‘lgan o‘quvchilarga e’tiborimizni yo‘qotib qo‘yishimiz xavfi bor.

Bizning fikrimizcha, musobaqalar cheklangan ta’lim texnologiyasi bo‘lib, uni barcha o‘quvchilarga bir xil ko‘rinishda qo‘llash mumkin emas va ayniqsa ularning iqtidorini aniqlash uchun.

D. Xetti bu muammoning echimini “shakllantiruvchi baholash” atamasi bilan belgilagan [8]. Ushbu texnologiya o‘quvchining muvaffaqiyatini baholash va qiyinchiliklarni mashg‘ulot oxirida emas, balki har qanday musobaqa natijalariga ko‘ra emas, balki jarayon davomida aniqlash imkonini beradi. Shakllantiruvchi baholash nafaqat o‘quvchiga, balki o‘qituvchiga ham fikr-mulohaza qilishga imkon yaratadi, bu esa o‘qitish usullari va shakllarini to‘g‘rilash hamda ularni muayyan o‘quvchiga moslashtirish imkonini beradi.

Hamon, o‘quvchilar orasida eng keng tarqalgan musobaqa turlaridan biri hali ham olimpiadalardir. Maktab o‘quvchilari uchun birinchi olimpiada 1962 yilda bo‘lib o‘tgan, ammo bir necha o‘n yillar davomida olimpiadalar formati deyarli o‘zgarmadi, bu olimpiadalar va umuman musobaqalarning ta’lim texnologiyasi sifatida asosiy muammosidir. O‘quv jarayoni, o‘quv materiallarini o‘rganish shakllari va usullari o‘zgarmoqda, o‘quv materiallari o‘zgartirilmoqda, ammo tanlovlarning uslublari va shakli o‘zgarishsiz qolmoqda. Bizning fikrimizcha, bu muammo juda ham dolzarb va jiddiy o‘zgarishlarni talab qiladi.

O‘quvchilar uchun o‘tkaziladigan klassik olimpiada - bu ma’lum bir fan bo‘yicha bilimlarni baholash musobaqasi. Agar biz shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvga amal qilsak, unda bu format nafaqat ahamiyatsiz, balki foydasiz hamdir, chunki u yoki bu predmetni bilish jarayonlar va hodisalarni to‘liq tushunishga mos keladi degani emas.

Shunday qilib, xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashimiz mumkinki, fan olimpiadalarining maqsadiga muvofiq, shuningdek, ta’lim texnologiyalarining xilma-xilligini hisobga olgan holda, o‘quvchilarning ijodiy faoliyat tajribasi, ijodiy fikrlash va samarali hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng samarali imkoniyatlarga ega bo‘lgan ta’lim texnologiyalarni tanlash lozim bo‘ladi. Musobaqalar nafaqat qisqa muddatda, masalan, tanlov yoki olimpiada paytida, balki kelajakda, ayniqsa, o‘quvchi o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga erisha olmasa, motivasiyani paydo qilishi, aksincha uni yo‘qotishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Выготский, Л.С. Педагогическая психология / Л.С. Выготский. – М.: Педагогика-Пресс, 1996. – 536 с.

2. Гизатуллина, А.В., Яхина А.М. Некоторые особенности применения метода соревнования на уроках иностранного языка в начальной школе / А.В. Гизатуллина, А.М. Яхина // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – Тамбов: Грамота. 2014. – №10. – С. 40 – 43.

3. Лейтес, Н.С. Возрастная одаренность школьников / Н.С. Лейтес. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 320 с.

4. Михайличенко, В.Е. Психология развития личности: Монография / Михайличенко В.Е. – Харьков: НТУ «ХПИ», 2015. – 388 с.

5. Рубинштейн, С.Л. Основы общей психологии / С.Л. Рубинштейн. – М.: Педагогика, 1989. – 488 с.

6. Сластенин, В.А. и др. Педагогика. Учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / В.А. Сластенин, И.Ф. Исаев, Е.Н. Шиянов. – М.: Издательский центр «Академия», 2013. – 576 с.

7. Теплов, Б.М. Способности и одаренность / Б.М. Теплов // Психология индивидуальных различий. М.: Изд-во Моск. Ун-та. – 1982. – 136 с.

8. Хэтти, Дж. Видимое обучение. Синтез результатов более 50 000 исследований с охватом более 80 мил. Школьников / Дж. Хэтти. М.: Национальное образование, 2017. – 496 с.

9. Madvaliev, A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati / A. Madvaliev. – T.: “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – 571 b.

HARBIY PEDAGOG KADRLARNI MALAKASINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR

MAMATKULOV Kaxramon Choriyevich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Toshkent mintaqaviy o‘quv markazi kata o‘qituvchisi

KOMAROV Igor Viktorovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi
Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi oqtuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy pedagog kadrlarni malakasini oshirishda qo‘llaniladigan zamonaviy texnologiyalar: Elektron darslik, virtual ta’lim, internet texnologiyalar, masofaviy ta’limlar haqida bayon etilgan.

Kalit so’zlar: harbiy pedagog, zamonaviy texnologiyalar, elektron darslik, virtual ta’lim, internet texnologiyalar, masofaviy ta’lim.

Аннотация: В данной статье описаны современные технологии, используемые при подготовке военных педагогов: электронные учебники, виртуальное образование, интернет-технологии, дистанционное образование.

Ключевые слова: военный педагог, современные технологии, электронный учебник, виртуальное образование, Интернет-технологии, дистанционное образование.

Abctract: This article describes the modern technologies used in the training of military pedagogues: electronic textbooks, virtual education, Internet technologies, distance education.

Key word: military pedagogue, modern technologies, electronic textbook, virtual education, Internet technologies, distance education.

Biz axborot texnologiyalar tobora rivojlanib, ravnaq topib borayotgan XXI asrda yashamoqdamiz. Bugungi kunda bizning ta'lim jarayonimizda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an’anaviy ta’limda o‘quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o‘rgatilgan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishga o‘rgatadi. Hozirgi kunda texnologiyalar rivojlangan bo‘lib, kundan-kunga yangi texnikalar ixtiro qilinmoqda, o‘rganish va o‘rgatishning o‘ziga xos usullari, dars jarayonida kerak bo‘ladigan turli anjomlar ixtiro qilinmoqda. Masalan, biz maktabda o‘qigan paytimizda, har bir sinfda elektron doska yoki televizorlar bo‘lmagan. Hattoki, proyektor hamda kompyuter topish ham muammo bo‘lgan. Hozir esa bu kabi muammolarga duch kelmaymiz. Bu nima degani, bu hozirgi davr tinglovchilarining aqliy faoliyati ham o‘sib boryabdi degani. Tinglovchilarning qiziqishini e'tiborini tortish uchun yangi-yangi metodlarni o‘ylab topish va tinglovchilarga darslarni oson va samarali usulda yetkazib berish darkor.

Biz hozir quyida harbiy pedagoglarni malakasini oshirishda foydalanish mumkin bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar haqida fikr yuritamiz:

Globallashuv davrida internetning ta’sir ko‘lami va doirasi tobora kengayib bormoqda. Virtual tarmoq odamlarning axboriy ehtiyojlarini qondirishda an’anaviy ommaviy axborot vositalarini ham ortda qoldirmoqda. Tabiiyki, axborot texnologiyalarining jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmayapti. Hozirda jahondagi ko‘pgina bosma nashrlar kamayib, ularning o‘rniga onlayn versiyasida ma’lumotlar (kitoblar) ko‘proq o‘qilmoqda. Dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashib bo‘lindi. Zamonaviy ta’lim yuqori darajada axborotga boyligi bilan ajralib turadi. Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi aynan shu jihatga asoslangan. Ta’limda yangi o‘qitish usullaridan foydalanish zarurati ajoyib imkoniyatlarni taqdim etuvchi elektron nashrlar yaratilishiga sabab bo‘ldi. Elektron darslik o‘zida nazariy axborot va amaliy topshiriqlarni, foto va audiomateriallarini jamlaydi. **Elektron darslik** — bu talabalarda o‘zlashtirishi uchun hamda ko‘nikma va malakalar orttirishida zarur bo‘lgan bilimlar bayon etilgan o‘quv nashrini elektron shaklda taqdim etuvchi, tuzilmaviy hamda tizimli materialga ega bo‘lgan vositadir. Unda o‘quv materiali mantiqiy bayon etilishi, yuqori darajada texnik jihozlanishi hamda badiiy jihatdan bezatilganligi bilan o‘ziga xosdir. Ba’zi bir olimlar elektron darslik bilimlarni o‘zlashtirish, yangi axborotlar guruhini hosil qilish, olingan bilimlarni tekshirish va shu kabi ishlarni bajarishi kerak deb hisoblaydilar. Umumiy holda esa elektron darsliklarga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Elektron darslik - birinchi navbatda talabalarga yangi ma’lumotlarni taqdim etish, ma’lumotlarni bosmaga chiqarish, mustaqil, yakka tartibda (individual) ta’lim olish, olingan bilimlarni tekshirish va shu kabi ishlarni amalga oshirish uchun mo‘ljallangan kompyuterda yaratilgan pedagogik dastur bo‘lib, bu dasturni ishlatish jarayonida multimedia vositalaridan unumli foydalaniladi. Darslik nafaqat, matnli va grafikli ma’lumotlarni yana qo‘shimcha ravishda, ovozli va video ko‘rinishli ma’lumotlarni o‘zida jamlar ekan, u ta’lim berish jarayonini mustaqillashtiradi. Elektron darslik orqali dars berishda o‘qituvchi-o‘quvchi munosabati emas balki, o‘quvchi–kompyuter munosabati o‘rnatiladi va tinglovchi bilan kompyuter o‘rtasida interaktiv aloqa o‘rnatiladi. Elektron darslik haqida gapirilganda, ularning psixologik, estetik, gigiyenik va tibbiy-psixologik tomonlarini ham e’tiborga olish lozim bo‘ladi. Shu narsani esdan chiqarmaslik lozimki, bunday vositalarning ko‘p miqdorda bo‘lishi (me’yoridan ortiq foydalanish) insonning sog‘ligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Elektron darslikni yaratishda yana bir muhim muammo-bu foydalanuvchilarga qancha miqdorda ma’lumot berish mumkinligi bilan bog‘liqdir. Odatda, inson organizmi tashqaridan kelayotgan ma’lumotlarga nisbatan moslashishini talab etadi. Shu sababli bu sohadagi izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, elektron darsliklar bilan ishlashda mashq qilish rejimida yoki ko‘proq mustaqil ishlash soatlarida foydalanish maqsadga muvofiq.

Virtual ta’lim masofaviy ta’lim bilan chambarchas bog‘liq, lekin u bilan cheklanib qolmaydi. U pedagoglar, tinglovchilar va o‘rganilayotgan ob’ektlarning odatiy yuzma-yuz muloqotida paydo bo‘lishi mumkin. Masofaviy ta’lim texnologiyalari talabalar, o‘qituvchilar, mutaxassislar va bir-biridan uzoqda joylashgan axborot majmualarining o‘zaro foydalanish imkoniyatini oshirish orqali kunduzgi ta’lim imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi. Virtual ta’limning, shuningdek, umuman insonni tarbiyalashning asosiy maqsadi - insonning real dunyoda o‘z taqdirini, shu jumladan virtual tarkibiy qismini aniqlash va unga erishishdir.

Internet texnologiyalar: masofadan o`qitish, elektron kutubxonalar, elektron magazinlar va boshqalar. Masofaviy ta’lim o‘z o‘rnida o‘qituvchilar va tinglovchilarga ko‘pgina qulayliklar olib kelmoqda. Platformalarning afzalliklari juda ko’p. Bunda talabalar o‘qish bilan birgalikda vaqtdan unumli foydalangan holda ishlashi ham mumkin. Qulay vaqtda platforma orqali dars videoroliklarini yuklab olish, mavzularni pdf formatidan foydalanish va berilgan topshiriqlarni platformaga joylab borishlari mumkin. Onlayn ta’limda siz dam olish kunlarida, ishdan qaytganingizda hatto yarim kechada o‘qishingiz mumkin. Shuningdek bunda mablag‘ ham tejaladi. Masofaviy ta’limda tinglovchi va o‘qituvchi bir-biridan ajralgan holda o‘zaro maxsus yaratilgan o‘quv kurslari, nazorat shakllari, elektron aloqa va internetning boshqa texnologiyalari yordamida doimiy muloqotda bo‘ladilar. Internet texnologiyasini qo‘llashga asoslangan masofaviy o‘qitish jahon axborot ta’lim tarmog‘iga kirish imkonini beradi, integratsiya va o‘zaro aloqa tamoyiliga ega bo‘lgan muhim bir turkum yangi funksiyalarni bajaradi. Butun jahon oliy ta’lim va ilmiy tashkilot muassasalari tizimida masofaviy ta’limda fanlarning metodik ta’minotini takomillashtirish, talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, mashg‘ulotlarda multimedia, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng ko‘lamda va ommaviy foydalanish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Onlayn ta'lim platformalari, darsliklar, sinovlar, veb-darslar va boshqa ta'lim materiallarini tashkil etish va tinglovchilar bilan aloqada bo‘lish uchun qulay bo‘lib, harbiy pedagoglarga ham ma’lum bir qulayliklar yaratadi.

Xulosa qilib aytganimizda zamonaviy texnologiyalar yordamida tuzilgan interaktiv darsliklar tinglovchilarga ko‘nikma va tushunchalarni oson tushuntirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Qolaversa harbiy pedagoglar zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi, tinglovchilarning motivatsiyasini oshirish va ularni o‘rganish jarayonini qulaylashtirishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Orazbayeva R. Dars jarayonida qo‘llaniladigan interaktiv metodlar/ R.Orazbayeva // Научный импульс, – 2023. – № 7 (100), часть 1, - С. 280-281.

2. Ismoilova, D.S., Toshboltayev, F.U. Bo‘lajak o‘qituvchilarga fanlarni o‘qitishda elektron darsliklardan foydalanish o‘rni va ahamiyati / D.S.Ismoilova,

F.U.Toshboltayev // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali – 2022. – № 13. – C. 34-38.

3. Mo‘minov, E.A. Virtual ta’lim texnologiyasi yordamida o‘qitish metodikasini shakllantirish/ E.A. Mo‘minov// Science and innovation international scientific journal. – 2022. –Vol. 1. ISSUE 8. – p. 742-746.

4. Abduraimov, J.G‘. Ta’lim jarayonida masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanishni tashkil etish/ J.G‘.Abduraimov// Chirchik State Pedagogical University Effectiveness of Introduction of Digital Technologies in the Educational Process. – 2023. – Vol. 4. CSPU Conference 1. - P. 746-749.

5. https://cyberleninka.ru

HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA INTERFAOL MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘ZIGA XOSLIGI

NASRIDDINOV K.Y.,
QK Akademiyasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: ilmiy maqolada multimediyaning asosiy tushunchalari, multimedia texnologiyalarining harbiy sohalarda qo‘llash, multimediya tizimining paydo bo‘lishi orqali bir necha sohalarda yuzaga kelgan tub o‘zgarishlarga olib kelganligi, undan foydalanishning o‘ziga xos jixatlari va kamchiliklari, harbiy ta’limda multimedianing qo‘llanilishi va harbiy sohada multimedia texnologiyalarining o‘rni va roli qisqacha ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: multimediali nashriyotlar, interfaol, elektron ta’lim, multimedia vositalari, videofayllar, analogli va raqamli video.

Аннотация: основные понятия мультимедиа в научной статье, применение мультимедийных технологий в военной сфере, тот факт, что появление мультимедийной системы привело к фундаментальным изменениям в ряде областей, особенности и недостатки ее использования, применение использования мультимедиа в военном образовании, кратко раскрываются место и роль мультимедийных технологий в военной сфере.

Ключевые слова: мультимедийные издания, интерактив, электронное образование, мультимедийные средства, видеофайлы, аналоговое и цифровое видео.

Abstract: the basic concepts of multimedia in a scientific article, the use of multimedia technologies in the military sphere, the fact that the emergence of a multimedia system has led to fundamental changes in a number of areas, the features and disadvantages of its use, the use of multimedia in military education, the place and role of multimedia are briefly revealed technologies in the military sphere.

Keywords: multimedia publications, interactive, e-education, multimedia, video files, analog and digital video.

Multimedia tizimining paydo bo‘lishi ta’lim, fan, san’at, kompyuter treninglari, reklama, texnika, tibbiyot, matematika, biznes, ilmiy tadqiqot kabi bir qancha kasbiy sohalarda revolyutsion o‘zgarishlar yuzaga kelishiga olib keldi. Quyida ba’zi misollarni keltirib o‘tamiz.

1. Kasbiy sohalarda:

nashriyot faoliyatida – multimediali nashriyotlar. Masalan O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vazirligi qoshida tashkil qilingan “Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish Markazi” tomonidan multimediali elektron axborot-ta’lim resurslari ishlab chiqarish bilan bog‘liq barcha turdagi xizmatlar, hususan turli animatsion lavhalar, video roliklar, dasturiy yechimlar amalga oshiriladi. Maxsulotlar ixtiyoriy nusxada va talab qilingan dizayn bilan taqdim qilinishi mumkin. Shu qatorda disk ko‘paytirish va uni bezaklash ishlarini ham bajarish uchun to‘liq quvvatdagi texnik va mutaxassis ta’minotiga ega.

interfaol ta’lim berish tizimida;
axborot va reklamalarda;
tibbiyotda;
ilmiy tadqiqotlarda;
sanoatda;
dasturiy maxsulotlarni demo (namoyish) versiyalarida;
interfaol taqdimotlarda, internetda va hk.

2. Harbiy ta’lim tizimida multimedia. Kompyuterlarni harbiy ta’lim tizimida qo‘llash g‘oyasi ancha ilgari paydo bo‘lgan bo‘lsada, harbiy ta’lim tizimining barcha sohalarida axborot texnologiyalarini qo‘llash multimedia qurilmalari bilan jihozlangan kompyuterlar bilan ta’minlangach to‘liq ma’noda amaliyotga joriy etilib boshlandi.

Multimedia vositalarini harbiy ta’limda qo‘llash quyidagilarga imkoniyat yaratadi:

harbiy ta’limning gumanizasiyalashuvini ta’minlash;
o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish;
pedagok kadrlar (harbiy ta’lim oluvchi)ning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish (o‘zlashtirganlik, bilimga chanqoqlik, mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi tarbiyalash, o‘zini o‘zi kamol toptirishga qaratilgan qobiliyatlilik, ijodiy qobiliyatlari, olgan bilimlarini amaliyotga qo‘llay olishi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi, mehnatga bo‘lgan munosabati);
pedagok kadrlar (harbiy ta’lim oluvchi)ning kommunikativ va ijtimoiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
kompyuter vositalari va axborot elektron ta’lim resurslari yordamida har bir shaxsning alohida (individual) ta’lim olishi hisobiga ochiq va masofaviy ta’limni individuallashtirish va differensiyalash imkoniyatlari sezilarli darajada kengayadi;
ta’lim oluvchiga faol bilim oluvchi subyekt sifatida qarash, uning qadr-qimmatini tan olish;
ta’lim oluvchining shaxsiy tajribasi va individual xususiyatlarini hisobga olish;
mustaqil o‘quv faoliyatini olib borish, bunda ta’lim oluvchi mustaqil o‘qib va rivojlanib boradi;
ta’lim oluvchilarda, o‘zlarining kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun hozirgi tez o‘zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashuviga yordam beradigan zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini hosil qilish.

Multimedia vositalari yordamida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni amalga oshirish jarayoni zamonaviy, ko‘ptarmoqli, predmetga yo‘naltirilgan multimediali o‘quv vositalarini ishlab chiqishni va foydalanishni talab etadi. Ular tarkibiga keng ma’lumotlar bazasi, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bilimlar bazasi, sun’iy intellekt tizimlari, ekspert-o‘rgatuvchi tizimlar, o‘rganilayotgan jarayon va hodisalarning matematik modelini yaratish imkoniyati bo‘lgan laboratoriya amaliyotlari kiradi.

Ta’lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularning manfaatdorligini (motivasiyasini) oshirishga ko‘maklashish imkoniyatlariga ko‘ra,

shuningdek, har xil turdagi multimediali o‘quv axborotlarining uyg‘unlashuvi, interfaollik, moslashuvchanlik sifatlariga ko‘ra multimedia foydali va mahsuldor ta’lim texnologiyasi hisoblanadi [11; 43-b.].

Interfaollikning ta’minlanishi axborotlarni taqdim etishning boshqa vositalari bilan taqqoslaganda raqamli multimedianing muhim yutuqlaridan hisoblanadi. Interfaollik ta’lim oluvchining ehtiyojlariga mos ravishda tegishli axborotlarni taqdim etishni nazarda tutadi. Interfaollik ma’lum bir darajada axborotlarni taqdim etishni boshqarish imkonini beradi: ta’lim oluvchilar dasturda belgilangan sozlovlarni individual tarzda o‘zgartirishi, natijalarini o‘rganishi, foydalanuvchining muayyan xohishi haqidagi dastur so‘roviga javob berishi, materiallarni taqdim etish tezligini hamda takrorlashlar sonini belgilashi mumkin. Lekin multimediadan foydalanishda bir qator jihatlarni e’tiborga olish muhim. Multimediada taqdim etilayotgan o‘quv materiallari tushunish uchun qulay bo‘lishi, zamonaviy axborotlar va qulay vositalar orqali taqdim etilishi talab qilinadi.

Multimedia texnologiyalarining barcha imkoniyatlarini to‘liq ochib berish va ulardan samarali foydalanish uchun ta’lim oluvchilarga salohiyatli (kompetentli) o‘qituvchining ko‘magi zarur bo‘ladi.

Darsliklardan foydalanilgandagi singari, multimedia vositalarini qo‘llashda ham ta’lim strategiyasi ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat axborotlarni taqdim etish, balki ta’lim oluvchilarga ko‘maklashish, qo‘llab-quvvatlash va jarayonni boshqarib borish bilan shug‘ullangandagina mazmunan boyitilishi mumkin. Odatda, chiroyli tasvirlar yoki animasiyalar bilan boyitilgan taqdimotlar oddiy ko‘rinishdagi matnlarga qaraganda ancha jozibali chiqadi va ular taqdim etilayotgan materiallarni to‘ldirgan holda zaruriy emosional darajani ta’minlab turishi mumkin.

Multimedia vositalari har xil ta’lim yo‘nalishlari (stillari) uyg‘unligida qo‘llanilishi va ta’lim olish hamda bilimlarni qabul qilishning turli ruhiy va yoshga doir hususiyatlariga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan foydalanilishi mumkin: ayrim ta’lim oluvchilar bevosita o‘qish orqali, ba’zilari esa eshitib idrok etish, boshqalari esa (videofilmlarni) ko‘rish orqali ta’lim olishni va bilimlarni o‘zlashtirishni xush ko‘radilar.

Interfaol multimedia texnologiyalari akademik ehtiyojga ega bo‘lgan ta’lim oluvchiga noan’anaviy qulaylik tug‘diradi. Xususan, eshitish sezgisida defekti bor ta’lim oluvchilarda fonologik malakalar va o‘qish malakalari o‘sishiga, shuningdek, ularning axborotlarni vizual o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Nutqi va jismoniy imkoniyati cheklanganlarda esa vositalardan ularning individual ehtiyojlaridan kelib chiqib foydalanishga imkon beradi.

Multimedia vositalari ta’lim berishning samarali va istiqbolli quroli (instrumentlari) bo‘lib, u o‘qituvchiga an’anaviy ma’lumotlar manbaidan ko‘ra keng ko‘lamdagi ma’lumotlar massivini taqdim etish; ko‘rgazmali va uyg‘unlashgan holda nafaqat matn, grafiklar, sxemalar, balki ovoz, animasiyalar, video va boshqalardan foydalanish; axborot turlarini ta’lim oluvchilarning qabul qilish (idrok etish) darajasi

va mantiqiy o‘rganishiga mos ravishda ketma-ketlikda tanlab olish imkoniyatini yaratadi [2; 56-b.].

Videofayllar. Analogli va raqamli video.

Hozirgi kunda video ma’lumotlarning ikki tipi mavjud: analogli va raqamli. Analogli video videosignallarni uzatishning dastlabki usuli bo‘lib, analogli usuldagi birinchi video formatlardan biri kompozit videosignal hisoblanadi. Kompozit analogli video barcha videokomponentlarni (yorqinlik, rang, sinxronlik va hk) bir signalga birlashtiradi. Bu elementlarni bir signalga birlashtirish hisobiga kompozit video sifati mukammal bo‘la olmaydi. Natijada biz aniq bo‘lmagan ranglar uzatilishiga, tasvirning yetarli bo‘lmagan aniqligiga va boshqa sifat yo‘qotish faktorlariga ega bo‘lamiz. Shu sababli kompozit video turli video komponentlari mustaqil signallar sifatida namoyon bo‘luvchi komponentli videoga tezda yo‘l bo‘shatib berdi. Gap shundaki, inson ko‘zi yuqori yoritilganlikda ham aktiv va tayanch ranglar (R, G, B) ni qabul qiluvchi yorug‘lik sezuvchan elementlardan tashqari deyarli to‘liq qorong‘ulikda ham aktiv va yoritilgan ob’ektnigina qayd qiluvchi elementlarga ega. Buning natijasida ranglar xususiyatidan ko‘ra ob’yekt yorqinlgi qabul qilish uchun muhimroq hisoblanadi. Bundan tashqari uzatilayotgan axborot hajmi ham qiymatga ega: hajm qancha kichik bo‘lsa, uzatuvchi tizim ham shuncha arzon va sodda bo‘ladi. Ranglar haqidagi ma’lumotlar miqdori kamaytirilsa, axborot hajmini ham qisqartirish mumkin bo‘ladi. Shu sababli televidenieda RGB signallar emas, balki Y yorqinlik va ikkita U va V rang tarqatuvchi signal qo‘llaniladi, bunda U=R-Y, V=B-Y. Bunday holda uchala rangni ham kodlashga hojat bo‘lmaydi. Ulardan ikkitasini berish yetarli bo‘ladi, uchinchisi esa arifmetik amallar yo‘li bilan oson hisoblanadi. Bundan kelib chiqadiki, yuqorida tavsiflangan analogli formatlardagi asosiy kamchilik sifatda, chunki nusxa har doim originalga qaraganda sifatsizroq bo‘ladi. Videomaterialdagi sifat yo‘qotish xuddi fotonusxaga o‘xshash bo‘ladi – nusxa hech qachon originaldagidek tiniq va yorqin bo‘lolmaydi. Analogli videodagi bu kamchilik raqamli videoformatning yaratilishiga sabab bo‘ldi. Analogli videodan farqli raqamli videoda har bir nusxa original bilan bir xil bo‘ladi.

Analogli video haqida qisqacha ma’lumot.

Analogli video – Televidenieda qo‘llaniladigan video tipi. Ekrandagi tasvir lyuminofor material bilan qoplangan, ma’lum to‘lqin uzunligida, ya’ni aniq bir rangda nur tarqatuvchi ekran bo‘ylab elektron nurlarning harakati davomida hosil qilinadi. Bu jarayon skanerlash deb ataladi va qatorlar (gorizontaliga) hamda kadrlar (vertikaliga) bo‘yicha o‘tkaziladi. Harakatli video hosil bo‘lishi uchun sekundiga bir nechta kadrni skanerlash zarur. Televizorlarda kadrlar sekundiga bir necha o‘nlab chastotada almashadi [2; 123-b.].

Television standartlar.

Hozirgi kunda uchta asosiy rangli televidinie standarti mavjud:

NTSC (National Television Standard Committee – milliy television standartlar komiteti) amerika standarti, kadrdagi satrlar soni 525, chastotota 0 GGs;

PAL (Phase Alternation Line – o‘zgaruvchan fazali satrlar) nemis standarti, kadrdagi satrlar soni 625. chastota 50 GGs;

SECAM (Séquentiel couleur avec mémoire – xotirali ranglar ketma-ketligi) fransuz standarti, kadrdagi satrlar soni 525, chastota 50 GGs.

Standartlar qo‘llanilayotgan modulyatsiya va chastota qiymatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Raqamli video haqida qisqacha ma’lumot.

Raqamli video – ma’lumot raqamli ko‘rinishda saqlanuvchi tasvir yoki tasvirlar to‘plami. Unda raqamli signallar va xalqaro television va analogli videoda qo‘llaniladigan tasvirni ekranga chiqarish standartlardan farq qiluvchi standartlar qo‘llaniladi. Raqamli video analogli videoga nisbatan quyidagi ustunliklarga ega: bu texnologiya tasvir namoyishidagi to‘siq va buzilishlarni minimallashtirib, tasvirlardan nusxa olishdagi sifatni saqlaydi, sifatli ovoz yozadi, tasvirdagi piksellar miqdori ikki marta ko‘proq bo‘ladi, videoyozuvlarni tezkor va oson tahrirlash imkoniyatiga ega va hk.

Zamonaviy texnikalarda qabul qilingan videoni raqamlashtirishni 10 bitli raqamlash, 13.5 MGs chastotali yorqin signallar diskretizatsiyasi, 6.75 MGs chastotali ikkita xilma-xil rangli kanallar diskretizatsiyasi tashkil qiladi. Oxirgi vaqtlarda television va kompyuter videolarini birlashtirish tendensiyalari kuzatilmoqda. Analogli videotasvirlarni raqamli shaklga o‘tkazish maxsus platalar yordamida amalga oshirilmoqda. Raqamli va analogli videoning bir-biriga yaqinlashtirilishi analogli signalarning multimedia kompyuterlari bilan o‘rin almashishiga olib keladi. Dastlab video analogli formatdan raqamli formatga o‘tkazilib, kompyuterning xotira qurilmalaridan biriga yoziladi. Bu qattiq disk, CD, DVD yoki ixtiyoriy boshqa qurilma bo‘lishi mumkin. Bunda videoni kompyuterdagi dasturlar yordamida namoyish etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Raqamli videoga qo‘yilgan oxirgi qadamlar ham aynan raqamli va analogli videolar yaqinlashtirilishini ta’minlovchi DVD-Video va HDTV (High Definition TV – yuqori rezresheniedagi televidenie, bir qator davlatlar tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi format) standartlarining yaratilishi bo‘ldi [14; 88-b.].

Multimedia vositalarini harbiy ta’limda qo‘llashning asosiy muammolari va kamchiliklari.

Ta’limda multimedia vositalaridan foydalanishning umumiy bo‘lgan birmuncha salbiy taraflari ham mavjud. Ular jumlasiga harbiy ma’lumotlarda maxfiylik darasining mavjudligi, diqqatning bo‘linishi, materiallarni yaratishdagi murakkabliklar, vaqtning ko‘proq talab etilishi, dasturiy ta’minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar, axborotlarni kompyuter ekranidan o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklar va boshqa jihatlar kiradi.

Harbiy ma’lumotlarda maxfiylik darasining mavjudligi. Ma’lumotlarda maxfiylik darajasining mavjudligi tinglovchilarga yetkazilishi zarur bo‘lgan ma’lumotlarni alohida jixozlangan toifalangan sinf xonalarida, maxfiy kompyuterlarda, maxfiy ma’lumot tashuvchi vositalardan foydalangan holda

mashg‘ulotlarni tashkillashtirish va o‘tkazish lozimligi ko‘p vaqt va alohida tayyorgarlik talab etadi.

Diqqatning bo‘linishi. Axborotlarni taqdim etishning murakkab usullaridan foydalanish aksariyat hollarda har xil nomutanosibliklar tufayli ta’lim oluvchilar diqqatini o‘rganilayotgan asosiy mavzudan chalg‘itishi mumkin.

Multimedia vositalarida taqdim etilayotgan katta hajmdagi ma’lumotlar, turli havola (ssьilka) va shu kabilar dars jarayonida o‘quvchi diqqatini bo‘lishi mumkin. O‘quv materiallarini yaratishdagi murakkabliklar. Multimedia vositalarining audio, video, grafik va boshqa elementlarini yaratish an’anaviy matn ko‘rinishidagi materiallarni yaratishdan ancha murakkab.

Vaqtning ko‘proq talab etilishi. Multimediali materiallarni mustaqil ravishda yaratish singari multimediadan ta’lim oluvchi sifatida foydalanish ham birmuncha ko‘proq vaqt sarflanishini talab etadi. Ayniqsa, multimediali ta’lim vositalarini yaratish uchun ko‘p vaqt va diqqat kerak bo‘ladi.

Dasturiy ta’minot va texnika vositalarini sozlash va foydalanishda vujudga keladigan muammolar. Multimediali ta’lim vositalaridan samarali foydalanishni ta’minlash uchun dasturiy ta’minot va texnika vositalari talab darajasida sozlangan bo‘lishi zurur. Bunda multimediali ta’lim materiallarini taqdim etish jarayoni matnlarni tahrirlash va aks ettirishning oddiy vositalariga qaraganda yanada yuqori sifat va keng imkoniyatlar talab etadi.

Axborotlarni kompyuter ekranidan o‘qish jarayonidagi qiyinchiliklar.

Kompyuter ekranidan axborotlarni o‘qish qog‘ozga chop etilgan axborotlarni o‘qishga qaraganda noqulayroq. To‘liq o‘qib chiqishni talab etadigan katta hajmdagi matnli axborotlarni, shuningdek, gazeta, kitob va jurnallarni qog‘ozda chop etilgan variantda o‘qish birmuncha qulay. Aksariyat hollarda multimedia vositalarida zarur axborotlarni topish va uni qog‘ozga chop etib olish uchun ma’lumotlarni qidirish quroli taqdim etiladi.

Respublikamiz ta’lim tizimini kompyuterlashtirish borasida amalga oshirilgan bir qator chora tadbirlar, masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Joylarda kompyuterlashtirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini yanada rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroridan so‘ng ta’limda multimedia texnologiyalarining qo‘llanilishiga e’tibor yanada ortdi.

Harbiy ta’lim tizimida multimediya vositalaridan keng foydalanishdagi afzalliklar va unda uchraydigan ayrim kamchiliklarni yuqorida fikrlashdik.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, hozirgi paytda fan va texnikaning tezlik bilan taraqqiy etib borishi inson omilining aqliy jarayoni va uning faoliyatini ham shoshirib qo‘yayotganligi hech kimga sir emas. Shu nuqtai nazardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli KUchlari Oliy harbiy ta’lim muassasalardagi o‘qituvchi-professorlar va tinglovchi-kursantlarning kundalik faoliyatiga multimediyaning o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, o‘qituvchi-professorlar tomonidan o‘tkazilgan nazariy va

amaliy mashg‘ulotlarini tinglovchi va kursantlarda nafaqat nazariy holatda eshitish bilan balki ko‘rish, ya’ni tasavvur etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 1997-yil 29-avgust. O‘zbekistonning yangi qonunlari. – T.: Adolat, 1998. 17-son. 236-b.
2. Nabiulina L.M., Bakiyeva Z.R. Mul’timedia tizimlari va texnologiyalari //Darslik. T.:2017
3. Tay Vaughan Mul’timedia: Making It Work, 8th Edition, 2011, p.481.
4. Гордеева И.В., Мулътимедиа технология, Новосибирск СГГА, 2010, – 158 с.
5. Князева Г.В. Применение мултимедийных технологий в образователных учреждениях, Вестник Волжского Университета Им. В.Н. Татищева, впуск № 16 /2010,
6. Докторова Е.А. Мулътимедия технологии: Конспект лексий. Част 2: /: – Уляновск : УлГТУ, 2010. – 74 с.
7. Казанцев О.В. Метод и средства мулътимедия. Конспект лекций. Москва, 2010.
8. S.S.G‘ulomov va boshqalar. Axbotor tizimlari va texnologiyalari. Darslik. Toshkent, “Sharq”, 2000y.
9. R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassalari pedagog-o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: Iste’dod, 2008y.
10. S.Tursunov va boshq. “Oliy ta’limda informatika fanlarini o‘qitish metodikasi” moduli bo‘yicha O‘UM. T.: 2016y.
11. S.S.Babadjonov. Mul’timedia texnologiyalari Elektron Ta’lim Resursi. T.:2017y.
12. M.Mamarajabov, S.Tursunov. Kompyuter grafikasi va Web dizayn. Darslik. T.: “Cho‘lpon”, 2013y.
13. U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O‘quv qo‘llanma. T.: “Voris”, 2013y.
14. M.Aripov, M.Muhammadiev. Informatika, informasion texnologiyalar. Darslik. T.: TDYuI, 2004y.
15. F.Zokirova i dr. Informatika i IT. Met.pos., T.: “Aloqachi”, 2007.
16. www.tdpu.uz – Nizomiy nomidagi TDPU rasmiy sayti
17. www.ziyonet.uz – Ziyo net axborot ta’lim portali
18. www.edu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi portal.

AKADEMIK LITSEY O‘QUVCHILARIGA MAMLAKATSHUNOSLIKKA OID MATNLARNI O‘QISHNI O‘RGATISH XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ УЧАЩИХСЯ АКАДЕМИЧЕСКИХ ЛИЦЕЕВ ЧТЕНИЮ ТЕКСТОВ ПО СТРАНОВЕДЕНИЮ

THE FEATURES OF TEACHING ACADEMIC LYCEUM STUDENTS TO READ TEXTS RELATED TO COUNTRY STUDY



KAYUMOVA Muyassar Urinbayevna,
Namangan Davlat chet tillar instituti magistranti

КАЮМОВА Муяссар Уринбаевна,
Магистрант Наманганского Государственного Института иностранных языков

Ms. Muyassar KAYUMOVA,
Master’s student of Namangan State Institute of foreign languages

Аннотация. Жаҳонда глобаллашув жараёнида ижтимоий ва таълим-тарбия масалаларини самарали ҳал этиш ва демократик жамият қуришда фаол иштирок этиш кўникма ва малакаларини ривожлантиришни назарда тутувчи юқори малакали ва ташаббускор кадрлар тайёрлашнинг илмий ва амалий аҳамияти беқиёсдир. Инглиз тили дарсларида мамлакатшуносликка оид матнларни ўқитиш ва ўрганилаётган тил соҳибларига хос тарзда нутқий мулоқотда қўллай олиш малакаси ривожлантириш устувор вазифага айланди. Мазкур мақолада ҳам мавзу юзасидан бир қатор илмий мулоҳазалар ўрин олган.

Калит сўзлар: Jamiyat, globallashuv, mintaqashunoslik, dars.

Аннотация. условиях глобализации научно-практическая значимость подготовки высококвалифицированных и предприимчивых кадров, предполагающее развитие навыков и умений эффективно решать социальные и образовательные задачи и активно участвовать в построении демократического общества, не имеет себе равных. Приоритетной задачей стало преподавание на занятиях английского языка текстов страноведения и развитие умения использовать их в речевом общении способом, характерным для носителей изучаемого языка. В этой статье также представлены решения проблем, связанных с этими темами.

Ключевые слова: Общество, глобализация, Страноведение, урок.

Abstract. In the process of globalization, the scientific and practical importance of training highly qualified and enterprising personnel, which involves the development of skills and abilities to effectively solve social and educational issues and actively participate in building a democratic society, is incomparable. It has become a priority task to teach texts related to country studies in English language classes and to develop the ability to use them in speech communication in a way that is typical for the speakers of the studied language. This article also provides solutions to problems based on these topics.

Key words: Society, globalization, Country studies, lesson.

Кириш

Академик лицей ўқувчиларига мамлакатшуносликка оид матнларни ўқишни ўргатиш хусусиятлари ҳақида гап кетар экан Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини ривожлантиришнинг 2030 йилгача бўлган Концепциясида “Узлуксиз таълим тизимини сифат жиҳатидан янгилаш, профессионал кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш; ўқитиш усулларини такомиллаштириш, таълим жараёнини индивидуаллаштириш тамойилларини босқичма-босқич амалга ошириш; халқ таълими соҳасида замонавий ахборотқоммуникасия технологиялари ва инновасион лойиҳаларни жорий этиш” вазифалари белгиланган бўлиб, улар энг долзарб муаммолардан ҳисобланади. Замонавий тараққиёт асрида фан ва техниканинг ривожланиши, халқаро алоқаларни кенгайиши, янги дунёвий ахборотларни олиш имконини янада кенгайтирмоқда. Шу сабабли инсоният оламида инглиз тилини билишга ва унда нутқий мулоқот воситаси сифатида фойдаланишга бўлган эҳтиёж кун сайин ортиб бормоқда [2]. Айни дамда, “инглиз тили” ўқув предмети ўрнига “инглиз тили ва маданиятини” ўргатиш ўқув предмети таълим дастурида ўз аксини топганлигини таъкидлаб ўтиш лозим. Бундан кўриниб турибдики, Умумтаълим мактабларда инглиз тили ўқитишдан асосий мақсад тили ўрганилаётган мамлакатлар тарихи, маданияти ва урф-одатлари каби материаллар билан ўрта умумтаълим мактаби ўқувчиларини яқиндан таништириш, миллатлараро ахборот алмашиш, халқлар ўртасида маданиятлараро мулоқотни ўрнатишдир. Умумтаълим мактабларда инглиз тили ўқитишда замон билан ҳамнафас қизиқарли ва ахборотларга бой мамлакатшуносликка оид матнларни ўқишни ўргатиш - ўқувчиларнинг умумий дунёқарашини кенгайтиришга, инглиз тилига оид нутқий коммуникатив компетенсиялари ҳисобланган тилнинг гапириш, тинглаб тушуниш, ўқиш ва ёзув турларини ривожланишига, уларнинг диққат, хотира, идрок ва мантиқий тафаккур каби писхологик қобилиятларини шаклланишига имкон яратади. Бунда Умумтаълим мактаб инглиз тили дарсликларида берилган мамлакатшуносликка оид матнлардан фойдаланишнинг ўрни беқиёсдир. Ҳозирда инглиз тили ўқитиш методикасида тилнинг мамлакатшунослик, лингвомамлакатшунослик ва лингвокултрология (лингвомаданиятшунослик) соҳалари кенг ўрганилган масалалардан биридир. Инглиз тилининг “мамлакатшунослик асослари” деганда – тили ўрганилаётган мамлакатнинг тарихи, географияси, иқтисоди ва бошқа соҳалари тўғрисидаги материаллар билан Умумтаълим мактаб ўқувчиларини таништириш тушунилади. Инглиз тилининг мамлакатшунослик соҳаси тил фактларини ўзида тўлиқ қамраб олувчи экстралингвистик ахборотларни таҳлил қилишга қаратилган. Ҳар бир чет тил фани ўқитувчисидан таълим-тарбия жараёнида замонавий ахборот ва педагогик технологияларини қўллаш бўйича изланишни, доимий равишда ўз устида ишлашни талаб этади. Инглиз тили ўқитувчиси таълим бериш жараёнида

мунтазам ижодкор бўлиши, замонавий ўқитиш технологияларини ўрганиб бориши лозим. Шуни таъкидлаш жоизки, инглиз тили дарсларида қўлланаётган дарслик ва қўлланмалардаги машқ ҳамда топшириқлар Умумтаълим мактаб ўқувчилари учун етарли даражада эмаслиги, ўқитувчининг инглиз тили дарсларида етарли даражада замонавий педагогик технологиялардан фойдаланмаслиги ўқув жараёнига ўзининг салбий таъсирини кўрсатмоқда. Натижада, ўқувчининг инглиз тилидаги лингвистик ва нутқий компетенсияларини ривожлантириш жуда қийин кечмоқда. Замонавий педагогик технологиялар таълим самарадорлигини оширувчи, шу билан бирга, ўқувчининг фаоллигини таъминловчи воситадир. Бундай усуллар дарс сифатини оширади, ўқувчиларни матнлар мазмуни орқали суҳбат қуришга ундайди, инглиз тилидаги нотаниш сўз ва ибораларни пухта ўзлаштиришда ёрдам беради, уни жонли ва қизиқарли бўлишини таъминлайди. Ҳозирги пайтда инглиз тили ўқитиш методикасида хилма-хил ноанъанавий усуллардан фойдаланилмоқда. Уларга турли-туман ролли ўйинлар, компьютердаги инглиз тили ўқув машғулотлари, матн мазмунини тез ўзлаштиришга ёрдам берадиган усул ва стратегиялар, оғзаки нутқни ўстиришга йўналтирилган қизиқарли машқлар, тез айтишлар шулар жумласидандир. Инглиз тилида мамлакатшуносликка оид матнлар ўқитиш жараёнида “кейс стади”, инсерт, кластер, зигзаг, ақлий ҳужум, муаммони ҳал этиш каби замонавий педагогик технологиялар асосида дарс ўтилганда, ўқувчининг тилга бўлган қизиқиши янада ортишига сабаб бўлади. Инглиз тили ўқитувчисидан таълим жараёнида “сасе студй”, ҳамкорликда ўқитиш, кичик гуруҳларда мунозара, “амалий ўйин” каби замонавий педагогик технологияларлардан фойдаланиши инглиз таълими самарадорлигини оширувчи мезонлардан биридир. Инглиз тили дарсларида замонавий ахборот технологиялари, электрон таълим ресурслари, мультимедия тақдимотлари, медиа-технологиялар, замонавий ўқув услубий материаллар, аудиовизуал воситалардан унумли фойдаланиши Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг инглиз тили ўрганишга бўлган қизиқишларини ортиши ва ўқувчилар билиш фаолигини ўсишига туртки бўлади. Тадқиқотимизда инглиз тилида матнлар, жумладан мамлакатшуносликка оид матнларни ўқишда қўл келадиган ва яхши самара берадиган замонавий педагогик технологиялар ҳақида тўхталиб ўтишни жоиз деб топдик. Улардан бири “Инсерт” стратегиясидир. “Инсерт” стратегияси – (инглизча - “Интерастиве нотинг сйстем эффестиве реадинг тҳинкинг”) – таълимда кенг қўлланилаётган ўқув стратегияси бўлиб, матнни ўқиш самарадорлигини оширишда яхши самара берадиган инновасион тизимдир. Инсерт методи – матнни ўқиб идрок этиш жараёнидаги тўрт таркибий қисмдан иборат бўлади. Унда матн ҳошияларига қуйидагиларни билдирувчи белгилар қўйиб чиқилади ва шу белгилар асосида жадвал тузилади: 1. Ўқувчи томонидан идрок этилаётган материал (ўқилаётган матн) унинг билганларига мослиги; 2. Ўқилаётган матн ўқувчининг билганларига зидлиги (ёки ўқувчи “буни

биламан”, деб ўйлайди); 3) Ўқилаётган матн ўқувчи учун янгилик эканлиги; 4) Ўтилаётган матн тушунарсиз ёки шу масала юзасидан ўқувчи батафсилроқ маълумот олмоқчи эканлиги. Жадвалда қайси белги кўпроқ бўлса, ўқитувчи ўқувчилар билан ўша йўналишда кўпроқ ишлаши лозим. Ўқув материалини матн ўқиш орқали ўзлаштиришга йўналтирилган мазкур метод ўқувчиларнинг матн билан ишлаш самарадорлигини оширишга хизмат қилади, уларда фаол ўқиш малакаларини таркиб топтиради, мавжуд билимларни мантиқий такомиллаштириб боришга ўргатади. Инсерт жадвали мустақил ўқиш жараёнида олинадиган маълумот-ларни бир тизимга келтиришга имконият беради. Олдиндан олинган маълумотни янгиси билан ўзаро боғлаш қобилиятини шакллантиришга имкон беради. Ўқувчилар жадвал таркиби ва уни тўлдириш қоидаси билан танишишади ва уни шахсан уни расмийлаштиришади.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили

Академик лицей ўқувчиларининг ўқиш кўникмасини тинглашнинг махсус машқларидан фойдаланиб текширдик. Улар қуйидагича:

1.Устундаги сўзларни эшитиш ва такрорлаш; 2.Таниш ўзаклардан янги сўзларни тинглаш ва таржима қилиш; 3.Тайёр жумлаларни тинглаш ва қандай нутқий вазиятларда айтиб бериш; 4.Матнни тинглаб, ёзма шаклдаги бўш қолдирилган жойларни тўлдириш; 5.Икки-учта қисқа жумлаларни тинглаш ва улардан гап тузиб айтиш; 6.Матнни тинглаш ва шарҳлаб бериш; Демак, ўқиш кўникмасини тинглаб тушуниш орқали текширилганда ўқувчиларда қуйидаги кўникмалар ҳосил бўлади: 1.Матн мавзусини билиш; 2.Иштирокчиларни билиш; 3. Матнни қисқача баён қилиш; 4. Асосий ғояни билиш; 5. Тингланган мазмунга баҳо бериш. Ўқувчилар ўқиган матн ҳақидаги фикрларини оғзаки шаклда монолог ёки диалогда ифодалаши мумкин. Монологда ўқувчилар шахсий ҳаёт тажрибасини ишга солиб, фикр мулоҳазаларини изчил баён қиладилар, ўз муносабатини билдирадилар. Диалогда эса суҳбатдошлар турли хабарларни бир-бирларига етказадилар, фикрларини исботлайди, танқидий ёндашадилар ва суҳбатдошни ишонтира олишлари керак бўлади. Тайёрланган диалог ўргатиш машқларига: 1.Саволларга жавоб қайтариш; 2.Турли саволлар бериш; 3.Мавзу бўйича диалог тузиш; 4. Монолог шаклидаги матнни ўқиб, диалога айлантириш. Тайёрланмаган диалог ўргатиш машқларига: 1.Саволларга асосли жавоб қайтариш; 2.Бошқа ўқувчилар хам аралашиб турадиган диалог яратиш; 3.Саволжавоб ўйини (викторина) ўтказиш; 4.Мунозара ва тортишув шаклидаги диалог ўтказиш. Тайёрланмаган гапириш машқларининг тайёрланганлардан фарқи шундаки, биринчидан, уларда нутқий эҳтиёжни қондиришга мўлжалланган янги ахборот мавжуд, иккинчидан, ахборот алмашиш, мустақил фикр баён этиш, муносабат билдириш, баҳолаш, изоҳлаш каби фаолият турлари мавжуд.

Тадқиқот методологияси

(В) – мен билган нарсани тасдиқлайди. (+) – янги маълумот. (-) – мен билган нарсага зид. (?) – мени ўйлантирди . Бу борада менга қўшимча маълумот зарур. Ушбу усулдан фойдаланишда ўқитувчи ўқувчининг ўзлаштириш даражасини қуйидаги топшириқлар орқали назорат қилиши ва баҳолаб бориши мумкин: қисқа жавобни кўзда тутувчи саволлар бериш; қиёсий таҳлил топшириқлари; матндаги бўш жойларни калитда келтирилган муқобил сўзлар билан тўлдириш; жадвал, крассворд, диаграммаларни тўлдириш; матнга амуқобил сарлавҳа танлаш; чалкаш берилган сўзлар, гапларни мантиқий кетма-кетликда жойлаштириш; сўзларда берилган орфографик ва имловий хатоларни аниқлаш; сўзлар ва ибораларнинг ўз ва кўчма маъноларини, синоним, антоним ва омонимларини топиш. “Инсерт” методида Умумтаълим мактаб ўқувчилари гуруҳларга бўлинади, гуруҳлар номланади. Ўқитувчи ҳар бир гуруҳ ўқувчиларидан мавзуга оид иккитадан фикр билдиришларини сўрайди. Гуруҳлар навбати билан фикр билдиради. Баён этилган фикрлар ёзув тахтасига ёзиб борилади. Фаолият якунлангач, ўқитувчи мавзуни ёритишга хизмат қилувчи матнни ўқувчиларга тарқатади. Матнда шундай топшириқ берилган бўлади: а) матн билан инглизча танишиб чиқинг; б) матннинг бир қаторига З, С, Д, ? белгиларни қўйиб чиқинг. З – матнда гуруҳлар томонидан билдирилган фикр ўз аксини топган бўлса; С – матнда гуруҳлар томонидан билдирилмаган фикр ёритилган бўлса; Д – матнда бир-бирига зид фикрлар мавжуд бўлса; ? – матн билан танишиш жараёнида тушунмовчиликлар юзага келса. Сўнгра гуруҳ аъзолари шахсий қарашларини ўзаро ўртоқлашади, гуруҳ белгисининг миқдори баён этилади ва изоҳланади. Ўқитувчи гуруҳлар томонидан қайд этилган сонларни уларнинг номлари ёзилган устунга ёзиб боради. Ҳар бир гуруҳ етакчиси фикрини тугатгач, юзага келган қарама-қаршилик ва тушунмовчиликларни ўқувчилар томонидан тўғри ҳал этиш ҳамда тушуниб олишларига ёрдам беради. Инглиз тили дарсларида ижобий самара берадиган усуллардан яна бири “Синквейн“ усули ҳисобланади. У 5 қатор сўзлардан иборат бўлиб, сон жиҳатдан ҳар бир қатор битта сўз билан кўпайиб боради. Сўз ўрганилаётган матннинг асосий негизини, муҳим қоидаларини, бош ғоясини тўлиқ қамраб олмоғи лозим. Ўрганилган матннинг мазмун ва моҳиятини бир нечта сўзлар билан баён қилади. Синквейнлар дарс жараёнида ёки уйда бажарилиши, шунингдек, ўқувчилар гуруҳи ёки якка тартибда ҳам ташкил этилиши мумкин. Синквейн усули тилларни ўрганишда қуйидагича бўлиши мумкин: 1-қатор-матн мавзуси (битта отдан иборат); 2-қатор-предметнинг ифодаси (иккита сифат) 3- қатор-матндаги ҳаракат ифодаси (учта феъл); 4-қатор-мавзу предметига муносабатни билдирувчи 4 та сўз; 5-қатор-мавзу моҳиятини кенгайтирувчи, тўлдирувчи ва умумлаштирувчи 1 та синоним сўз. Масалан: Узбекистан совереигн индепендент соунтрй (Ўзбекистон-суверен мустақил давлат) мавзуси бўйича синквейн қуйидагича тузилиши мумкин: Узбекистан,

совереигн, индепендент, обтаин, мовинг, девелопед, море ҳундред, натионс ливе, ин Узбекистан, толерант. Синквейнлар инглиз тилидаги сўзларнинг бўғинлари бўйича ҳам бўлиши мумкин: 2- 4- 6- 8- 2 бўғинли сўзлар асосида бир мавзунинг моҳияти ёки бир грамматик қоида асослаб берилиши мумкин. Умумтаълим мактаб ўқувчиларининг сосиолингвистик компетенсиясини ривожлантириш самарадорлиги таълим жараёнини инновасион таълим технологиялари асосида ташкил этишни талаб этади. Тажрибали инглиз тили ўқитувчиларнинг дарсларни кузатиш “Танлов” методи, “Тҳе ҳалф класс лестуре” (ярим гуруҳ маърузаси) техникаси, “Субинг” техникаси, “Драма” (оғзаки нутқни ривожлантирувчи) техникаси, “Сонсепт Маппинг” техникаси, “Трамп” режаси, “Пинг-понг” атамашунослик стратегияси, маҳорат дарслари, МООДЛЕ платформасида яратилган дарс ишланмалари, тренинг технологияси, “Жадаллаштирилган таълим” технологияси, “Консенсус ва конфронтасия” каби умумдидактик интерфаол методлар сифатида қўлланаётганлигини кузатиш мумкин

Таҳлил ва натижалар.

Матнолди босқичида ўқувчига тадқиқотчилик роли берилади. Ўқувчилар инглизча матнни ўқишда дуч келадиган муаммоларга кенгроқ ёндашишнинг турли усулларидан фойдаланишни таклиф этилади:

1.Ўқувчиларда инглизча матн қизиқиш уйғотиши лозим;

2.Уларга кейинги фаолият учун «фикрлаш харитаси», коммуникатив ёки ижтимоий вазиятда кутилаётган ўзгаришларга тайёрлайди, уларни ўқувчи бугунги ва аввалги тажрибаси билан солиштиради;

3. Бир муаммонинг бир неча ечимини кўриб чиқиш имконига эга бўлади;

4. Ўқувчини машқ бажариш жараёнида атрофдагиларни фикрлашини кузатиб, назорат қилиб боради;

5. Кейинги ахборотларга эътибор қаратади. Биринчи матн олди босқичи мазмунини «My family» мавзуси билан ишлаш мисолида кўрсатиб бермоқчимиз. Ўқувчиларга шарҳлаш учун тавсия этилган мавзуларга қараб, уларга таниш бўлган кишиларни тассавур этадилар: ўз қизчаси билан ўйнаётган ота, болаларига китоб ўқиб бераётган амаки, фарзандлари билан бирор масалани муҳокама қилаётган ота-оналар. Демак, ўқувчилар мавжуд одамлар, ота-оналар ва болаларнинг ўзаро муносабатлари ҳакида гапиради.

Хулоса ва таклифлар.

Нутқ фаолиятининг гапириш турида асосан “Баҳс – мунозара” усули самарали натижа беради. “Баҳс – мунозара” усул машғулотларда аниқ муаммо бўйича фикр алмашиш, муҳокама шаклида амалга оширилиши билан тавсифланади. Бу усулда қуйидагилар назарда тутилади:

• Матн юзасидан саволларга чуқур ўйлаб кўриб, уларни моҳиятини тушунишни таъминлаш;

• Лицей ўқувчилар далиллар ва уларга асосланган хулосалар орасидаги

фарқни тушуниб етишга ўргатиш;

• Ўзаро фикр алмашинув кўникмаларини шакллантириш;

• Ўқувчиларнинг шахсий фикрида мустаҳкам туришига ва уни ҳимоя қилишига ўргатиш;

Академик лицей дарсликларида берилган мамлакатшуносликка оид матнларни ўқиш ва уларни тушунганликни турли замонавий педагогик технологияларни қўлаш орқали текшириб кўрдик. Хулоса қиладиган бўлсак, академик лицейларида мамлакатшуносликка оид матнларни ўқишни ўрганиш технологиялари инглиз тилини амалий, умумтаълимий, тарбиявий ва ривожлантирувчи мақсадларини юзага чиқишида восита вазифасини бажаради.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг “Таълим муассасаларида чет тилларни ўқитишнинг сифатини янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги 610-сон Қарори. Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами. 12 (792) сон. –2017. –Б. 167-169.

2. Ляховицкий М. В. Методика преподавания иностранних язиков: Учебное пособие. –Москва: Висшая школа, –1981. –159 с.

3. Исмоилова З.К. Ўқувчи-талабаларнинг социолингвистик- педагогик маданиятини ривожлантириш: Пед. фан. ном.... дис. – Тошкент, ТИҚХМИ, – 2000. –133 б.

4. Аршинова Н.И. Формирование иноязичной лингвистической компетенсии студентов вуза с применением средств компьютерних технологий: английский язик как вторая специалност: Дис. канд. ped.nauk. – Петрозаводск, – 2007. – 189 с.

5. Камолова Маҳфуза Абдурахмоновна Ingliz tili darslarida mamlakatshunoslikka oid matnlarni o’qishni o’rgatish usullari. Journal of new century innovations. Volume–4 17_Issue-1_November_2022. 72-75 b.

FINLANDIYA TAJRIBASI ASOSIDA OPEN UNIVERSITETLARNI TASHKIL ETISH VA UNDA O‘QITUVCHILAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMI

СИСТЕМА ОРГАНИЗАЦИИ ОТКРЫТЫХ УНИВЕРСИТЕТОВ И ПОВЫШЕНИЯ КВАЛИФИКАЦИИ ПЕДАГОГИ НА ОСНОВЕ ОПЫТА ФИНЛЯНДИИ

SYSTEM OF ORGANIZATION OF OPEN UNIVERSITIES AND IMPROVEMENT OF QUALIFICATIONS OF TEACHERS BASED ON THE EXPERIENCE OF FINLAND



XAMROYEVA Feruza Asrorovna,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Biologiya va geografiya kafedrasi mudiri, dotsent

ХАМРОЕВА Феруза Асроровна,
заведующая кафедрой биологии и географии Узбекско-Финляндского педагогического института, доцент

Ms. Feruza KHAMROEVA,
Head of the Department of Biology and Geography of the Uzbek-Finnish Pedagogical Institute, Associate Professor

Ta’lim tizimida, jumladan, oliy ta’limda amalga oshirilgan islohotlar natijasida yuz bergan o‘zgarishlar ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma’naviy jihatdan katta tarixiy ahamiyatga ega. Amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi, balki xalqaro maydonda ham mamlakatimiz nufuzini yangi bosqichga olib chiqdi. Bu borada bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli qarori bunga yaqqol misoldir. Mazkur qarorda Oliy ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora – tadbirlar ishlab chiqildi va unda har bir oliy ta’lim muassasasi turdosh xorijiy yetakchi ixtisoslashgan ilmiy-ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatish, o‘quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg‘or pedagogik texnologiyalar, o‘quv dasturlari va o‘quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, ilmiy pedagogik faoliyatga chet ellarning yuqori malakali o‘qituvchi va olimlarini jalb etish, professor-o‘qituvchi kadrlarning xorijiy oliy o‘quv yurtlarida stajirovkalarini tashkil etish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish masalalariga ham e’tibor qaratildi. Oliy ta’lim tizimini xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, O‘zbekistonning kelajakdagi taraqqiyoti uchun juda muhimdir. Bu orqali mamlakatning xalqaro maydonda nufuzini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilashga erishish mumkin.

Finlandiya tajribasi asosida mamlakatimizda Open universitetlarni tashkil etish orqali o’qituvchilar malakasini oshirish mumkin. Bu tizim orqali o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatlari yanada rivojlanadi.

OPEN universitetlar Finlandiyada kattalar uchun oliy ta’lim olish uchun eng yetakchi va obro‘li markazlar hisoblanadi. OPEN universiteti- Finlyandiya aholisining keng qatlamlariga sifatli ta’lim olish imkonini beradi. OPEN universitet 1970-yillarda tashkil etilgan bo‘lib, Finlyandiyaning yetakchi ta’lim muassasalaridan biri hisoblanadi. Universitet butun Finlyandiya bo‘ylab tarqalgan 13 ta filialga ega bo‘lib, mamlakat aholisining keng qatlamlariga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatadi. OPEN universitetlar Finlandiyada uzluksiz ta’lim va kasbiy rivojlanish tizimida muhim rol o‘ynaydi. OPEN universitetlar an’anaviy Finlandiya universitetlari qoshida faoliyat yuritadi va asosiy universitetlardagi xuddi shu kurslarni, lekin yanada moslashtirilgan shaklda taklif etadi. OPEN universitet talabalarining kredit ballari keyinchalik an’anaviy universitetlarga o‘tish uchun hisobga olinishi mumkin. OPEN universitetlardagi ta’lim katta yoshdagi auditoriyaga mo‘ljallangan bo‘lib, moslashtirilgan jadvalli, kechki va masofaviy kurslarni taklif etadi, bu esa ta’lim bilan ishni uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ta’lim narxi odatda, an’anaviy universitetlarga qaraganda arzonroq bo‘ladi, bu esa kattalar uchun ta’limni yanada erisha oladigan qiladi.

Finlandiyaning yetakchi OPEN universitetlarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- gumanitar, ijtimoiy, tabiiy va texnik fanlar bo‘yicha keng doiradagi kurslarni taklif etadi;
- talabalarning qiziqishlariga mos keluvchi yo‘nalishlarni tanlash imkonini beradi;
- talabalar o‘z kasbiy yo‘nalishlarini kengaytirish, yangi bilimlar olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

OPEN universitetlarning ta’lim shakllari masofaviy, sirtqi va kechki ta’lim shakllaridan iborat. Bu esa ish faoliyati bilan parallel ravishda o‘qish imkonini beradi. Talabalar o‘z vaqtlarini mustaqil taqsimlash, o‘qishni qulay vaqtda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Finlandiyaning yetakchi OPEN universitetlari yillik 10,000 dan 30,000 gacha talabani o‘z ichiga oladi. Bu talabalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi, ularning tanlash doirasini kengaytiradi. Yirik kontingent tufayli OPEN universitetlar katta resurs va infratuzilmaga ega bo‘ladilar.

OPEN universitetlar Finlandiyaning eng nufuzli an’anaviy universitetlari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bu esa OPEN universitetlarda sifatli ta’lim olish imkonini beradi. Talabalar yetakchi professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘qitiladi, zamonaviy laboratoriya va uskunalar bilan ta’minlanadi.

OPEN universitetlar Finlandiyaning yirik shaharlarida, markaziy joylarda joylashgan. Shu boisdan o‘qishga kelib ketish talabalar uchun qulay bo‘ladi. Shuningdek, ular boshqa ijtimoiy infratuzilmalar, madaniy markazlar, kutubxonalar va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Finlandiyaning eng nufuzli OPEN universitetlaridan biri- Helsinki universitetining OPEN universitetidir. Finlandiyaning eng katta va yetakchi ochiq universiteti hisoblanadi. Yiliga 30,000 dan ortiq talabani qabul qiladi. Masofaviy va sirtqi ta’lim shakllri mavjud. Gumanitar, ijtimoiy, tabiiy va texnik final bo‘yicha kurslarni taklif etadi.

Tampere universitetining OPEN universiteti- Finlandiyaning eng yirik ikkinchi ochiq universitetidir. Ijtimoiy fanlar, gumanitar fanlar va tabiiy fanlar bo‘yicha kurslari mavjud. Yiliga 20,000 dan ortiq talabani qabul qiladi. Masofaviy sirtqi va kechki ta’lim shakllari mavjud.

Turku universitetining OPEN universiteti- Finlandiyaning eng qadimiy OPEN universitetidir. 1920-yillardan faoliyat yuritadi. Yiliga 15,000 dan ortiq talabani qabul qiladi. Masofaviy sirtqi va kechki ta’lim shakllari mavjud. Keng doiradagi fanlar bo‘yicha kurslar taklif etadi.

Oulu universitetining OPEN universiteti- shimoliy Finlandiyaning yetakchi ochiq universitetlaridan biridir. Tabiiy fanlar, muhandislik va tibbiyot bo‘yicha kurslari mavjud. Masofaviy va sirtqi ta’lim shakllari mavjud. Yiliga 10,000 dan ortiq talabani qabul qiladi.

Yuvyaskyulya universitetining OPEN universiteti asosan o‘qituvchilar uchun malaka oshirish kurslari hisoblanadi. Bu kabi kurslar Ta’lim vazirligi tomonidan moliyalashtiriladi. Fin xalqi uchun faqatgina Oliy ta’lim diplomiga ega bo‘lish bepul hisoblanadi. Bu mustaqil universitet. Kurslarning ko‘pi onlayndir. Dunyoning barcha hududlaridan ishtirok etishadi. Pedagogika kurslari yoshlarga ta’lim berishga moslashtirilgan. OPEN universitetiga 40 ga yaqin fanlar bo‘yicha kurslar olib boriladi. Mashhurligi shundaki, bu universitetda 26 ming nafardan ortiq talabalar tahsil olishadi. Har bir talaba bir kredit uchun taxminan 15 yevro to‘laydi. Bir kurs 5 kreditdan tashkil topgan bo‘lsa 75 yevro to‘laydi. Oddiy universitetlardan farqli tomoni bu universitet talabalari bakalavr darajasini olmaydi.

JYUOpenga ariza topshirish juda oddiy. Kirish imtihonlari yo‘qligi sababli, bo‘lajak talabalar shunchaki onlayn ro‘yxatdan o‘tishlari, xohlagan kurslarini tanlashlari va ro‘yxatga olish jarayonini yakunlashlari kerak. Uzluksiz qabul degani, talabalar yil davomida istalgan vaqtda ariza topshirishlari va kurslarni boshlashlari mumkin. JYUOpen turli sohalarda, jumladan, gumanitar fanlar, ijtimoiy fanlar, biznes, ta’lim va sog‘liqni saqlash fanlari bo‘yicha keng doiradagi kurslarni taklif etadi. Ingliz tilida ko‘plab kurslar mavjud va yozgi va qishki maktablar uchun intensiv, qisqa muddatli o‘qish imkoniyatlari mavjud. JYUOpen, ayniqsa, moslashuvchanligi bilan ajralib turadi, bu uni umrbod o‘rganuvchilar va ishlaydigan mutaxassislar (Jyväskylän yliopisto) (Jyväskylän yliopisto) (Jyväskylän yliopisto) uchun mashhur tanlovga aylantiradi.

JYUOpen masofaviy ta’lim sifati bilan xalqaro miqyosda tan olingan. 2022-yilda u o‘zining onlayn ta’limdagi (Jyväskylän yliopisto) mukammalligini ta’kidlab, nufuzli E-xcellence sifat yorlig‘ini olgan.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ham OPEN universitetlar tizimini joriy etish va shu asosida o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonlarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o‘qituvchilar uchun malakalarini rivojlantirish, yangi sohalar o‘rganish va talabalariga eng yaxshi ta’limni taqdim etishga yordam beradi. Xalqaro hamkorlik tarmoqlari orqali o‘qituvchilar uchun xalqaro muloqot va ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi. Bu, o‘qituvchilarga dunyo miqyosidagi yangiliklar va eng yaxshi amaliyotlardan foydalanish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori
2. Qo‘ysinov O, Xamroyeva O Finlandiyada uzluksiz ta’lim va o‘qituvchilar tayyorlash tizimi. “Fan va ta’lim integratsiyasi” jurnali. ISSN: 2992-9210 . 28 December 2023. 63-71 bet
3. https://www.helsinki.fi/en
4. https://www.tuni.fi/en
5. https://www.utu.fi/en
6. https://joy.oulu.fi/en
7. https://www.jyu.fi/en

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR RIVOJLANGAN DAVRDA O‘QITUVCHILARNING MEDIAKOMPITENTLIK KODIFIKATORLARI XUSUSIDA

ISLOMOV Sh.Z.
DXX Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
tex.f.b.f.d.(PhD), dotsent

Ushbu maqolada o'quv jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari, o'qituvchilar mediakompetentligini oshirishda yuzaga keladigan muammolar hamda mediakompetentlikning asosiy tashkil etuvchilar keltirilgan.

В данной статье представлены возможности внедрения цифровых технологий в учебный процесс, возникающие проблемы повышения медиакомпетентности учителей, а также раскрыты основные составляющие медиакомпетентности.

In this article is given the possibilities of introducing digital technologies into the educational process, the problems that arise when increasing the media competence of teachers, as well as the main components of media competence.

“Agar biz kecha o‘qitganimiz kabi bolalarimizni o‘qitsak, biz ularni kelajagini o‘g‘rilagan bo‘lamiz”.
Jon Dyui ta’lim islohotchisi

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar iqtisodiyot, bank, xizmat sektori shuningdek ta’lim jarayonini ham tez sur’atlarda rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda yashayotgan barcha fuqarolar, jumladan yosh bolalardan tortib katta yoshdagilarning ham ongida raqamli texnologiyalar orqali jamiyatdagi barcha muammolarni hal qilish mumkin degan fikr shakllanmoqda. Shuningdek, ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarining robotlashtirilishi, inson va mashina o‘rtasidagi munosabatlarni boshqarish masalasini ham o‘rtaga tashlamoqda.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”[1].

Zamonaviy dunyo ta’lim oluvchilari an’anaviy usullardan farqli har qanday ta’limga qaraganda ancha boy va murakkabroq bo‘lgan yangi raqamli texnologiyalar tomonidan yaratilgan “o‘ziga xos” bilim maydonida yashamoqda. Shuning uchun ta’lim beruvchilar ularning qiziqishlariga mos, zamonaviy usullardan foydalanib dars mashg‘ulotlarini olib borishlari zarur. Bu bevosita o‘qituvchilarning raqamli texnologiyalar, xususan multimedia texnologiyalaridan qay darajada foydalanishlari bilan ahamiyatli sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. 2020-yil.

Ta’lim jarayoni[1] ta’lim maqsadlari, ta’lim natijalari, ta’lim mazmuni, ta’lim oluvchi, ta’lim shakllari, ta’lim metodlari, ta’lim vositalari, ta’lim beruvchi, monitoring va haholashni o‘z ichiga olishini inobatga olsak, hozirgi kunda ushbu tashkil etuvchilarning aksariyat qismi ta’lim muassasalarida mavjud.

Ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasi uni idrok qilish bilan bog‘liq bo‘lib, tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki inson nutq shaklidagi ma’lumotning 15% ini va vizual ko‘rinishdagi ma’lumotning 25% ini yodlab qoladi. Agar ikki shakl ham birgalikda taqdim qilinsa u holda ma’lumotni 65% ini qabul qilish mumkin. Multimediadan foydalanishda ta’lim oluvchilar uchun o‘quv materiallari bilan o‘zlarining individual xususiyatlariga mos ravishda ishlashi mumkin. Masalan, ba’zi ta’lim oluvchilar o‘quv materiallarini o‘qish orqali, ba’zilari tinglash, ba’zilari ko‘rish orqali yaxshi qabul qiladi. Ta’lim oluvchilar o‘zlariga mos ravishda o‘zlashtirishiga imkon yaratiladi.

Shuning uchun raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda o‘qituvchining asosiy egallashi lozim bo‘lgan kompetentliklari qatoriga mediakompetentlik kiritilmoqdaki, zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan xonalar, ta’lim muassasasi va virtual makon ushbu xususiyatni talab etmoqda.

Mediakompetentlik pedagogikada umumiy tarzda shaxsning turli ko‘rinish, janr va shakllardagi mediamatnni tanlash, foydalanish, tanqidiy tahlil qilish, baholash, yaratish va uzatish, sotsiumda mediafaoliyatning murakkab jarayonlarini tahlil qilishga tayyorligida namoyon bo‘ladigan integrativ sifati tarzida qaraladi.

Mediakompetentlik haqida turli ta’riflar mavjud bo‘lib, vaqt o‘tishi va unga bo‘lgan talabning ortishi natijasida shakllanib boradi. Dastlabki ta’riflarga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mediakompetentlik yoki mediasavodxonlik (media competence/media literacy – turli shakllardagi xabarlarni qo‘llash, tahlil qilish, baholash va uzatish qobiliyati[2] sifatida ifodalangan.

Hozirgi davrga kelib, mediakompetentlik – turli ko‘rinishdagi forum, murakkab jarayonlarda mediamatnlarni yaratish, uzatish, almashish, mukammal tahlillash va muhim nuqtalarda ularni tanlash borasidagi bilimlar to‘plamini o‘z ichiga oladigan kompetentlik turi[3] sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalarning texnologik jihatlari bilan ishlash ko‘nikmalarini baholash va ifodalash uchun raqamli kompitentlik tushunchasi ham mavjud bo‘lib, u - faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida o‘qituvchining axborot-

[1] Sayibova Z.Y. Innovatsion texnologiyalarning ta’lim sohasidagi o‘rni. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2023. PP. 829-834.

[2] R. Kubey. Media Education: Portraits of an Evolving Field. Media Literacy in the Information Age. New Brunswick & London: Transaction Publishers, 2017. p.2.

[3] А.А. Усманова. Развитие медиокомпетентности и критического творческого мышления студентов посредством медиаобразования. материалы конференции «Гылыми журналистиканыц теориялык жэне практикалык негиздери». Алматы «Казак, университет». 2019.

kommunikatsiya texnologiyalaridan dars mashg‘ulotlarida foydalanish qobiliyatining o‘ziga xos xususiyati sifatida tavsiflanadi[1].

Quyida zamonaviy pedagogning mediakompitentlik ko‘rsatkichlari keltirilgan:

Motivatsion – psixologik va emotsional ko‘rsatkichlar asosida mediakompitentlikni rivonlantirishni o‘zida ifoda etadi[2].

Axborot – axborot bilan ta’minlanganlik darajasini anglatib, mediata’limning nazariy-metodologik jihatlarini o‘z ichiga oladi.

Metodik – pedagogik artistizm darajasini ifodalaydi.

Amaliy faoliyat – dars mashg‘ulotlarida mediata’limning imkoniyatlaridan foydalashni nazarda tutadi.

Kreativlik – dars mashg‘ulotlarida mediata’limning u yoki bu imkoniyatlaridan yangi metodlarni ishlab chiqish va joriy etishni o‘z ichiga oladi.

O‘z navbatida mediakompetentlik mediata’limni ham keltirib chiqaradi. Mediata’lim – ommaviy axborot vositalaridan olingan axborotlarni raqamli texnologiyalar imkoniyatlari yordamida ta’lim berish va shaxsni kamolotga yetkazishni ifodalaydi[3].

Medakompitentli o‘qituvchilar o‘z faoliyatini amalga oshirishda mediata’limnig u yoki bu xususiyatidan foydalanadi. Shu o‘rinda mediata’limning asosiy yo‘nalishlarini keltirish o‘rinli, ular: san’at sohasidagi mutaxassislarning mediata’limi; ta’lim muassasasidagi kursantlarning mediata’limi; qo‘shimcha ta’lim ishtirokchilarining mediata’limi; radio, televidenie va onlayn kurslar orqali mediata’lim; uzluksiz ta’limda (shaxsiy o‘sish, malaka oshirish) foydalanish.

Shu o‘rinda undan ta’lim jarayonida foydalanishda qator muammolar yuzaga keladi. Quyida mediakompetentli o‘qituvchini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimlari keltirilgan.

1-jadval.

Bosqichlar	Mummolar	Yechimi
Kirish	O‘qituvchilarning texnologiyalardan foydalanishida noqulayliklar mavjud; Ulardan foydalanishdan qo‘rqadi; Ta’lim oluvchilar texnologiyalardan foydalanib, shikast yetkazishi mumkin; Texnik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj; O‘quv rejalar texnologiyalardan foydalanishga mos emas.	Mutaxassislar tomonidan ko‘rsatmalar berish; An’anaviy usullardan foydalanish; Kompyuterlar buzilishi va ularni tuzatilish jarayoni bilan tanishish; Mashg‘ulotdan oldin laboratoriyada tayyorgarlik ko‘rish; O‘quv rejalarga bog‘liq bo‘lmagan holda texnologiyalardan foydalanish.

[1] Ibraimov X.I. Bo‘lajak o‘qituvchilarda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish –XXI asrning dolzarb muammosi sifatida. “Raqamli ta’limning zamonaviy tendensiyalari va ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga tadbiq qilish yo‘llari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 25-oktabr 2023-yil.

[2] Искаков Б.А. Развитие медиакомпетентности учителей в условиях ресурсного центра. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук, 2013, стр. 25.

[3] Федоров А.В. Развитие медиакомпетентности и критического мышления студентов педагогического вуза. М.: Изд-во МОО ВПП ЮНЕСКО «Информация для всех», 2007. 616 с.

Bosqichlar	Mummolar	Yechimi
Moslashish	O‘ziga mos dasturiy mahsulotlardan foydalanish; Texnologiyalardan kursantlar o‘qituvchilardan ko‘ra yaxshiroq foydalanadi; Internetga ulanish mavjud emas yoki faqat o‘qituvchi foydalanadi; Texnologiyalardan foydalanishdagi noqulay sharoit; Ko‘rsatmalarga to‘liq amal qilmaslik; Onlayn yuklangan vazifalarni dars vaqtida tekshirish yoki unga belgi qo‘yish murakkabligi; Onlayn yuklanadigan vazifalarning yechimi yagona ko‘rinishda bo‘lmasligi.	Fanning xususiyatidan kelib chiqib, dasturlar paketini shakllantirish; Mashg‘ulotlarda kursantlar imkoniyatlaridan foydalanish; Internetga ulanish imkoniyatining yaratilishi; Kursantlarning internetdan foydalanishida cheklov va nazorat o‘rnatish asosida unga ulanishga ruxsat berish; Xonalarda tegishli dastur va texnologiyalarning bannerlari bo‘lishi; Vazifalarning yechimi uchun MS Word kabi matn muharrirlaridan foydalanish; An’anaviy mashg‘ulotlarni qo‘llab-quvvatlash uchun texnologiyalardan foydalanish; Xonalarni raqamli texnologiyalarning integratsiyasiga moslashtirish.
O‘zlashtirish	O‘zgarishlarga nisbatan norozilik; Eng yaxshi va ilg‘or vositalardan foydalanishni o‘rganishdagi dangasalik; Ta’lim oluvchilarning xoxishlariga nisbatan e’tiborsizlik; Ta’lim oluvchilarga boshqa fanlardan topshiriqlar berilishini e’tiborga olmaslik; Muammoni yechishdagi o‘zaro hamkorlikning mavjud emasligi.	Ta’lim oluvchilar ehtiyojiga qarab turli vositalardan foydalanadi; Yangi texnologiyalardan foydalanish holatlarini rag‘batlantirish; Jamoaviy ishlashni joriy etish va har bir a’zoni qo‘llab-quvvatlash; Vazifalarni taqsimlashda ta’lim oluvchilarning qarashlari va imkoniyatlarini ham inobatga olish; Ta’lim platformalarini keng joriy etish va jamoaviy ishlashga yo‘naltirish.
Innovatsiya	Fan dasturlarini texnologiyalarga moslashtirish; Ta’lim oluvchilarning fanga tegishli shaxsiy qarashlarini ilgari surishi; Shaxsga qaratilgan ta’limdan foydalanish; Ta’lim oluvchilardagi bilimlarni o‘zaro bo‘lishish.	Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar keltirish; Ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish ekanligini anglash; Jamoaviy loyiha va ta’lim oluvchi taqdimotlarini guruhda tinglash; Bilimlarni baholashning turli usullaridan foydalanish; Ijodiy qobiliyatini oshirishga yo‘naltirilgan ta’lim usullarini qo‘llash; Tinglovchilarga “ekspert” huquqini taqdim etish.

1-jadval. Mediakompetentli o‘qituvchini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimlari

Harbiy ta’lim muassasalari o‘qituvchilarining medikompitentligini shakllantirish va uning samaradorligini oshirish qadamlari mediakompetentli o‘qituvchini shakllantirishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularning yechimi uchun takliflar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qoshidagi Pedagogik kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazida tahsil olgan harbiy ta’lim muassasasi o‘qituvchilar bilan o‘tkazilgan so‘rovnoma va suhbatlar hamda mazkur sohadagi tadqiqotlarni tahlillash asosida shakllantirildi.

Mediata’limning rivojlanishi oldingi ma’ruzalardan innovatsion yondashuvlarga asoslanganligi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda gipermatnlar, multimediya vositalari, grafikli taqdimot va ma’ruzalar, shuningdek dars mashg‘ulotlarini kahoot.it[1] kabi interaktiv xizmatlardan foydalanib amalga oshirishni talab etadi.

Ta’lim tadqiqotlari bilan shug‘ullanayotgan[2], o‘qituvchi va kursantlar o‘rtasidagi aloqalar[3], raqamli mediadan foydalanishdagi o‘qituvchining kompitensiyalari[4] va boshqa shu kabi tadqiqotlar tahlili hamda mamlakatimizdagi harbiy ta’lim muassasalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, o‘qituvchilar mediakompitentligining asosiy tashkil etuvchilari ishlab chiqildi.

2-jadval.

Kalit tushunchalar	Tavsifi
Axborot texnologiyalari asoslari	
Axborot	Ta’lim muassasasi axborot tizimi, platforma va elektron kutubxonasida axborotni taqdim etish shakllari va uni baholashni bilish.
Axborot modellari va tizimlari	Media-axborotlarni yaratish, tizimlashtirish va ularning shakllari (maqola, tezis, esse, hisobot, referat) borasidagi bilimlarga ega bo‘lish.
Kompyuter texnologiyalari	
Kompyuter	Media-axborotlarni yaratish uchun lozim bo‘lgan kompyuterlarning texnik ko‘rsatkichlarini bilish.
Kompyuterning qo‘shimcha qurilmalari	Kompyuterning asosiy qurilmalari, uning tashkil etuvchilari (video-karta, ovoz karta, tezkor va doimiy xotira, mikroprotsessor va boshqalari) va qo‘shimcha qurilmalari (printer, skaner, monitor, qo‘shimcha xotira, diskovot, mikrofon, quloqchin, pointer va boshqalar) haqida bilimlarga ega bo‘lish.
Operatsion tizim	Kompyuterda o‘rnatilgan operatsion tizim, uning kompyuter va dasturlarga aloqasini tahlil qila olish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
Xizmat ko‘rsatish dasturlari	Video va audio fayllarni qayta ishlash, siqish va kesish dasturlari bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish.

[1] kahoot.it – oldindan kiritilgan testlar orqali ta’lim oluvchilarni avtomatik va vizual baholashga qaratilgan xizmat.

[2] Ilomaki L., Paavola S., Lakkala M., & Kantosalo A. Digital competence-an emergent boundary concept for policy and educational research. Education and Information Technologies, 21(3), 2016. pp. 655-679.

[3] Marinković S. Teachers professional development and students’ achievement (On Serbian: Profesionalnirazvojnastavnikaipostignućaučenika), Uţice: Učiteljskifakultet. 2010.

[4] Muhammad Naeem Ashraf, Muhammad Riaz, Tariq Hussain. An Analysis of Teachers’ Competencies using Digital Media in Universities of Pakistan. Pakistan Social Sciences Review. June 2020, Vol. 4, No. 2. pp.449-459.

Kalit tushunchalar	Tavsifi
Axborotni qayta ishlash texnologiyalari	
Matnlarni yaratish va qayta ishlash	Matn hujjatlarni yaratish, o‘qish va uning turlari haqida bilish. Matnli ma’lumotlarga mediaobyektlarni integratsiya qilish hamda giperma’lumotlarni saralash va ularga sarlavha berishga oid bilimlarga ega bo‘lishi.
Grafik ma’lumotlarni yaratish va qayta ishlash	Rastr va vektor hamda animatsion tasvirlarini o‘z ichiga olgan grafik ma’lumotlarni yaratish va ular ustida amallar bajarish bilimlariga ega bo‘lishi.
Raqamli jadvallarni yaratish va qayta ishlash	Bir ma’lumotlar to‘plamidan keyingisiga o‘tish va ularni saralash, diagrammlar yaratish bilimlariga ega bo‘lishi.
Ma’lumtolar bazasini yaratish va qayta ishlash	Multimediya va matn ma’lumotlar bazalarini yaratish, saqlash, indeksatsiyalash va qayta ishlash bilimlariga ega bo‘lishi.
Interaktiv doskalarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqdimotlar yaratish	Matn, grafik, audio va videofayllarni yaratish hamda ulardan taqdimotlarda foydalanish. Web va multimediya ilovalari imkoniyatlaridan foydalangan holda materillar tayyorlash. Yaratilgan multimediya fayllarini ta’lim platformalarida yuklash. Zamonaviy multimediya xizmatlari va dasturlaridan foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish.
Ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan foydalanish	Mavzuga doir axborotni internet va ommaviy axborot vositalaridan olish hamda uning ishonchililigini tekshirish bilimlariga ega bo‘lish.
Axborotni himoyalash	Yaratilgan materiallarni himoyalash, kodlash, shifrlash, plagiat, ko‘chirish va ruxsatsiz o‘qishga qarshi himoya vositalarini qo‘llash.
Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari	Axborot tizimlari orqali muhim ma’lumotni olish, saralash va qayta ishlash bilimlariga ega bo‘lish.
Kompyuter tarmoqlari	
Lokal va global kompyuter tarmoqlari	Professor-o‘qituvchilar va kursantlarning lokal va global kompyuter tarmog‘iga ulanish va undan foydalanish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish.
Axborotlarni qayta ishlashning tarmoq texnologiyalari	Forumlarda ishtirok etish va vebinar, videokonferensiyalarni tashkil etish hamda internet tarmog‘i orqali kerakli axborotni qidirish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish.
Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati	
Jamiyatdagi axborot jarayonlari	Ta’limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati, uni qo‘llash natijasidagi imkoniyatlar, ommaviy axborot vositalarini tahlillash, internet tarmog‘idan foydali axborotni saralash haqida bilimlarga ega bo‘lish.
Ish faoliyatida muhimligi	Raqamli texnologiyalarning sohalar kesimidagi ahamiyati, undagi jarayonlar va qo‘llanilayotgan dasturiy vosita va ma’lumotlar bazalari haqida bilimlarga ega bo‘lish va ular haqida kursantlarga yetkazish.
Pedagogik faoliyatdagi ahamiyati	Mediata’lim usullari, texnologiyalari va imkoniyatlari hamda kasbiy faoliyatda ulardan foydalanish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘lish.
Interaktiv xizmatlardan dars jarayonida foydalanish	Darslarni qiziqarli tashkil etish maqsadida interfaol va innovatsion ta’lim texnologiyalari, dasturiy vositalaridan foydalanish.

Kalit tushunchalar	Tavsifi
Mediaxborotlarni taqdim etish va kursantlarni baholash	Ta’lim muassasasi axborot tizimi, platforma va elektron kutubxona uchun multimedia materiallarini taqdim etish, shuningdek, avtomatlashtirilgan baholash imkoniyatlaridan foydalanish.

2-jadval. Mediakompitentlikning tashkil etuvchilari

Keltirilgan mediakompitentlikning tashkil etuvchilari ta’lim sifati va uning rangbarangligini oshirishni kafolatlaydi. Multimedia vositalari yordamida taqdim etilayotgan materiallar va dars mashg‘ulotlari an’anaviy usullardagi natijalardan yuqori bo‘lishi isbotlangan. Shuningdek, ta’lim oluvchilar jarayonlarni vizual ko‘rish va tasavvur etishlari uchun ko‘mak beradi.

Mediakompitentlik axborot bilan ishlash, uning shakllari va taqdim etish ko‘rinishlarini o‘z ichiga olishini inobatga olgan holda, jadvalda keltirilgan tashkil etuvchilarning aksariyat qismini raqamli texnologiyalar kompitentligiga kiritish yoki raqamli-mediakompitentlik ko‘rinishidagi tushunchani shakllanishiga olib keladi. Adabiyotlarda esa, raqamli texnologiyalar va mediakompitentlik alohida tushunchalar sifatida ta’riflanib kelinmoqda.

Zamon rivojlanishi bilan hayotning barcha sohalarida, xususan pedagogika ya’ni o‘qitish va ta’lim jarayonida ham ko‘pgina yangiliklar vujudga keladi. Har bir qilingan islohot kelajakni yanada muvaffqqiyatli va ishonchli qilib ta’minlashga yordam beradi. Ayniqsa o‘qitish jarayonidagi islohotlar, innovatsion texnologiyalar yosh avlodni tezkorlik bilan samarali bilim olishlarini ta’minlab beradi va bu ko‘pgina davlatlar xususan mamlakatimiz O‘zbekiston tajribasida ham o‘z isbotini topib kelmoqda.

RAQAMLI TA’LIM MUHITINI YARATISHNING AHAMIYATI

B.K. TULABOYEV,
DXX Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’lim jarayonidagi turli muammolarni hal qilishda raqamlashtirishning ahamiyati tahlil qilingan. Raqamli ta’lim texnologiyalari va platformalari ta’lim sifatini oshirish, uning maqsadi, zamonaviy ta’lim muammolariga yechim topish uchun imkoniyatlar yaratishi ko‘rib chiqilgan.
Kalit so‘zlar: Raqamli ta’lim, raqamli texnologiyalar, ta’lim jarayoni, pedagogik talablar, texnik vositalar, ta’lim jarayoni subyektlari.

Аннотация: В данной статье анализируются образовательного процесса и значение цифровизации в решении этих проблем. Считается, что цифровые образовательные технологии и платформы создают возможности для улучшения качества образования, его цели, поиска решений современных образовательных проблем.
Ключевые слова: Цифровое образование, цифровые технологии, образовательный процесс, педагогические требования, технические средства, субъекты образовательного процесса.

Abstract: This article analyzes in the educational process and the importance of digitization in solving these problems. It is considered that digital educational technologies and platforms create opportunities for improving the quality of education, its purpose and finding solutions to modern educational problems.
Keywords: Digital education, digital technologies, educational process, pedagogical requirements, technical tools, educational process subjects.

So‘nggi yillarda zamonaviy ta’lim tizimi turli xil pedagogik muammolar bilan yuzlashmoqda. Ushbu muammolar ta’lim jarayonining samaradorligini kamaytirib, ta’lim oluvchilarning bilim olish imkoniyatlarini cheklaydi. Raqamli texnologiyalar va electron platformalardan foydalanish orqali asosiy muammolar hamda ularni hal qilish uchun ta’lim jarayonini yaxshilashda katta yordam berishi mumkin.

Shu bilan birgalikda, ta’lim jarayoni samaradorligini ta’minlash va ta’lim oluvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish uchun pedagogik yondashuvlar doimiy ravishda takomillashtirilishi zarur hisoblanadi. An’anaviy ta’lim tizimi ba’zi pedagogik muammolarni hal qilishda samarasiz bo‘lishi mumkin. Shu sababli, axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali ta’lim jarayonini raqamlashtirish pedagogik muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

An’anaviy ta’lim usullari va vositalari o‘qitish samaradorligini oshirish uchun yetarlilik qilmayotganligi yuzaga kelmoqda. Raqamli ta’lim tizimiga o‘tish global tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida quyidagi hal qilinishi lozim bo‘lgan ba’zi muammolar uchrab turibdi:

Malakali kadrlar yetishmasligi - ta’lim muassasalarida malakali o‘qituvchilarning yetishmasligi ta’lim sifatiga, ta’lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Hatto o‘qituvchilar zamonaviy pedagogik usullar va texnologiyalardan foydalanishda yetarli tajribaga ega emasliklari ham bu borada jiddiy muammo hisoblanadi, bu masala ayniqsa qishloq va chekka hududlarda dolzarb hisoblanadi. Shu sababdan, ta’lim oluvchilarning o‘z vaqtida sifatli ta’lim olishlari uchun turli darajadagi to‘siqlar paydo bo‘lmoqda.

Ta’lim resurslarining cheklanganligi - ko‘p joylarda, ta’lim oluvchilar ta’lim olish jarayonida foydalanish uchun zarur hisoblangan ta’lim resurslari, darsliklar, laboratoriya jihozlari va o‘quv materiallari yetishmasligi ham rad etib bo‘lmas haqiqatlardan biridir.

Teng ta’lim imkoniyatlari - turli ijtimoiy va iqtisodiy sabablarga ko‘ra barcha ta’lim oluvchilar bir xil shaklda umumiy tenglik asosida ta’lim olish imkoniyatlariga ega emasligi qolganlarga nisbatan ortda qolish holatlarini keltirib chiqarmoqda[1].

Favqulodda vaziyatlar - inson omiliga aloqador bo‘lmagan, turli kutilmagan favqulodda vaziyatlar, tabiat hodisalari ta’lim olish jarayonini ma’lum muddatga yoki butunlay cheklab qo‘yishi mumkin.

Sifatli ta’lim - ta’lim jarayonida dars sifatni oshirish va turli ko‘rinishdagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati ham bugungi kunda asosiy talablardan biri hisoblansada, amalda esa bu borada qator muammolar yuzaga kelmoqda.

Moliyaviy cheklovlar - ta’lim oluvchining kelgusi ta’lim jarayonini ma’lum shakldagi moliyaviy cheklovlar sababli davom ettirishda qiyinchiliklarga duch kelish holatlari mavjudligi ham ushbu sohada rad etib bo‘lmas haqiqatlardan biri sanaladi.

Individual yondashuvlar - har bir ta’lim oluvchining individual o‘ziga xos va o‘rganish uslubi mavjudligi, mos ta’lim yo‘nalishlarini tanlash imkoniyatini yaratish uchun qiyinchilik tug‘diradi. An’anaviy ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning rivojlanishini kuzatish va tahlil qilish qiyin bo‘lishini hisobga olib, o‘quv jarayonini individuallashtirish vaqtida qiyinchilik yaratadi[2].

Bunda ko‘rish mumkinki, bu sohada uchrayotgan ko‘plab muammolarga yechim topishning turli usullari mavjud bo‘lsada, zamon talabi hamda XXI asr zamonaviy axborot texnologiyalar davrini inobatga olib, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Shundan kelib chiqib, ta’lim jarayonida uchrayotgan turli muammolar raqamli texnologiyalarni sohaga keng miqyosda joriy etish zaruratini yaratmoqda. Raqamlashtirish orqali ta’lim sifatini oshirish, teng ta’lim imkoniyatlarini yaratish va ta’lim jarayonini uzluksiz davom ettirish imkoniyatlari mavjud. Ta’lim tizimini raqamlashtirish zamonaviy ta’limning muhim va zarur qismi hisoblanadi.

[1] Omonov H.T., Xo‘jayev N.X., Madyarova S.A., Eshchonov E.U., “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat”., Darslik., Toshkent. 2009.

[2] Paxriddinov F., “Ta’lim jarayonini modellashga innovatsion va pedagogik yondashish”. Международный научный журнал № 7(100), част 1 «Научный импулс» Fevral, 2023.

Ta’limni raqamlashtirish - bu ta’lim tizimini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida modernizatsiya qilish jarayonidir. Bu jarayon quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi[1]:

1. O‘quv materiallarini raqamli shakllarga o‘tkazish - darslik, ma’ruza, qo‘llanma va boshqa o‘quv resurslarini elektron versiyalarini yaratish, multimedia, interaktiv hamda animatsion materiallarni ishlab chiqish, onlayn kutubxonalar, virtual laboratoriya simulyatorlarni tashkillashtirishdan iborat.
2. Ta’lim jarayonlarini raqamlashtirish - masofaviy va aralash ta’lim shakllarini joriy etish, onlayn sinov va baholash tizimlarini yaratish orqali ta’lim jarayonida moslashuvchan ta’lim yondashuvlarini qo‘llash.
3. Raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish - yangi AKT vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, o‘quv jarayonini loyihalash va boshqarish ko‘nikmalarini rivojlantirish.
4. Ta’lim infratuzilmasini raqamlashtirish - internet, bulutli xizmatlar, o‘quv boshqaruv tizimlarini joriy etish, texnik vositalar, kompyuter va mobil qurilmalarni yetarli darajada ta’minlash uchun tegishli sharoitlar yaratish.
5. Boshqaruv va monitoring tizimlarini raqamlashtirish - o‘qituvchi bilan ta’lim oluvchi faoliyatini kuzatish, tahlil qilish tizimlarini qo‘llash, ma’lumotlar omborlarini shakllantirishga asoslangan qarorlar qabul qilish, bir markazdan boshqariladigan yagona raqamli ta’lim muhitini yaratish.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish uchun ta’lim subyektlarida raqamli kompetensiyalarni shakllantirish orqali yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etish bilan zamonaviy texnologik yechimlarni ta’limga integratsiya qilish natijasida ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarini raqamlashtirish hamda integratsiya qilish uchun foydalanish ta’lim jarayonini raqamlashtirishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish ta’lim subyektlariga, ya’ni o‘qituvchi, ta’lim oluvchi va ta’lim muhiti hamda ularga qo‘yiladigan asosiy pedagogik talablarni hisobga olish zarur hisoblanadi[2]. Bu borada ularga qo‘yilgan talablar quyidagilar:

1. O‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar:

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olish - turli xil raqamli qurilmalar, platforma, ilovalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishi, raqamli vositalar orqali dars jarayonlarini loyihalash hamda tashkil etish, masofaviy o‘qitish, virtual sinf, videokonferensiyalar va boshqa raqamli vositalardan foydalana olish imkoniyatlarini o‘zida yaratishi;

Onlayn-ta’lim platformalarini yaratish - onlayn darsliklar, videodarslar, testlar va boshqa ta’lim resurslarini mustaqil tarzda tayyorlash, virtual sinf muhitlarini loyihalash bosqichlari hamda boshqarish, turli xil onlayn-ta’lim platformalarini ta’lim

[1] Mamarajabov M.E., “Raqamlashtirilgan ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish”., Maqola, Toshkent., 2022.

[2] Tursunov R., Ta’limni raqamlashtirish jarayonlarida ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan pedagogik talablar., T., 2021.

jarayonida samarali qo‘llay olish mahoratini yaratish orqali dars jarayonini tashkillashtirishi;

Masofaviy ta’lim metodikasini puxta bilish - dars jarayonida onlayn va offlayn ta’lim metodlarini joriy qila olish, masofaviy o‘qitish usullari, interfaol shakllari hamda vositalarini amalga oshirishi, ta’lim oluvchilar bilan masofaviy muloqot olib borish ko‘nikmalarini rivojlantirishi;

Ta’lim oluvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlashga o‘rgatish - ta’lim oluvchilarda raqamli savodxonlik va kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim oluvchilarni virtual sinf, onlayn platformalar hamda boshqa raqamli vositalar bilan ishlashga o‘rgatish orqali ularning raqamli texnologiyalardan samarali foydalana olish qobiliyatlarini shakllantirishi;

Innovatsion pedagogik yondashuvlarni qo‘llash - ta’limni shaxsiylashtirish, individuallashtirish va loyihalash yondashuvlarini qo‘llash bilan ijodkorlikni rivojlantiruvchi, muammoli, tadqiqotchilikka asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish vaqtida turli innovatsion yondashuvlarni amalga oshirishi[1];

Ta’lim sifatini monitoring qilish va baholash - ta’lim olish jarayonida raqamli texnologiyalar asosida ta’lim oluvchilar bilimini, ko‘nikmalarini monitoring qilish, onlayn test, so‘rov, portfolio va boshqa raqamli baholash vositalarini qo‘llash, ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini nazorat qilish bilan birgalikda o‘zaro baholash tizimlarini rivojlantirishi lozim hisoblanadi.

2. Ta’lim oluvchilar uchun qo‘yiladigan talablar:

Raqamli savodxonlik tajribalarini rivojlantirish - turli xil raqamli qurilmalardan (kompyuter, planshet, smartfon) foydalanish ko‘nikmasi, operatsion tizimlar, dasturiy ta’minot va ilovalar bilan ishlash malakasi, internet hamda raqamli axborot manbalaridan foydalanish mahorati;

Masofaviy ta’lim platformalaridan foydalanish - video konferensiya va virtual sinf muhitlari bilan ishlay olish ko‘nikmasi, onlayn darsliklar, videoyo‘riqnomalar, test sinovlari bilan ishlash qobiliyati, masofaviy o‘quv jarayonlarida faol qatnashish yordamida o‘z-o‘zini boshqarish mahorati;

Raqamli texnologiyalar asosida o‘quv faoliyatini amalga oshirish - zamonaviy elektron texnologiyalar yordamida turli topshiriqlar, loyihalar, kuzatishlar, eksperimentlar uchun raqamli vositalardan foydalanish, raqamli texnologiyalar yordamida taqdimotlar, multimediya mahsulotlarini yarata olishi;

Axborot texnologiyalaridan to‘g‘ri foydalanish - shaxsiy ma’lumotlarni himoyalash, intellektual mulk huquqlariga rioya qilish, onlayn tizimlardan foydalanish ma’daniyatini shakllantirgan tarzda, xatti-harakatlarni namoyish etish, raqamli

[1]Paxriddinov F., “Ta’lim jarayonini modellashga innovatsion va pedagogik yondashish”. Международный научный журнал № 7(100), част 1 «Научный импулс» Fevral, 2023.

texnologiyalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishi, axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish qoidalarini bilish va amal qilishi[1];

Mustaqil ishlash - o‘z-o‘zini boshqarish, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish, masofaviy ta’lim resurslarini mustaqil izlab topish orqali undan samarali foydalanish, onlayn hamkorlik, o‘zaro hamjihatlashuv va murojaat qilish malakalarini oshirishi kabi omillar talab etiladi.

3. Raqamli ta’lim muhitiga qo‘yiladigan talablar:

Zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan ta’minlanganligi - zamonaviy kompyuter, planshet, smartfon, proyektorlar va boshqa texnik vositalarning mavjudligi, tezkor hamda barqaror internet ulanish imkoniyatlari, raqamli ta’lim uchun moslashtirilgan auditoriya xonalarining mavjudligi;

Raqamli resurslar mavjudligi - elektron darsliklar, o‘quv materiallar, simulyatorlar, virtual laboratoriyalar, o‘quv jarayonini tashkil etishga moslashtirilgan platformalari, video konferensiya, virtual sinfxonalari va masofaviy o‘qitishni qo‘llab-quvvatlash vositalari[2];

O‘quv-uslubiy jihatdan yetarli ta’minot - raqamli ta’lim metodikasi va texnologiyalari bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, ilmiy-amaliy materiallar, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlari, raqamli ta’limni tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatma, yo‘riqnoma va namunalar bilan ta’minlanganligi;

Ta’lim jarayonlarini nazorat qilish - o‘quv jarayonining samaradorligini aniqlashga qaratilgan choralar yordamida dars sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim oluvchilarning o‘quv, kasbiy va shaxsiy rivojlanish indikatorlarini kuzatish, raqamli ta’lim tizimini doimiy takomillashtirish uchun monitoringni olib borishi mazkur jarayonda zaruriy omillar hisoblanadi.

Ta’lim jarayonini raqamlashtirish samarali natijasi uchun ushbu ta’lim oluvchilar ustida mukammal rivojlantirish orqali shakllanadi. O‘qituvchilar ta’limni raqamlashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishlari, ta’lim oluvchilarning raqamli savodxonligini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda asosiy ishtirokchi hisoblanadi. O‘qituvchi, ta’lim oluvchi va raqamli muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ta’lim sifati hamda samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli yondashuvlar va vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish ta’lim oluvchilarning faol o‘quv faoliyatini ta’minlab, bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishlariga imkon beradi.

Ta’lim olish jarayonini raqamlashtirish ta’lim oluvchilarda individual tarzda harakat qilishga moslashtirish imkoniyatini yaratish orqali, raqamlashtirilgan ta’lim dasturlarini ta’lim oluvchi shaxsiga maxsus ravishda ishlovchi shaklga keltirgan holda o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlashni ta’minlaydi. Bu vaqtda, ta’lim oluvchilarning

[1] Bakiyeva Z., “Talabalarga kompyuterli animatsiyani o‘qitishning elektron tizimini yaratish va foydalanish metodikasi”., Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2022.

[2] Kalekeyeva T.T., “Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish”. Toshkent.: 2018.

qiziqishlarini oshirishga, o‘rganish jarayonlarini yanada qiziqarli va maqsadli bo‘lishiga qaratilgan ta’lim usullarini taqdim etishi talab etiladi.

Raqamlashtirilgan ta’lim vositalari ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zini baholash va o‘zlashtirish jarayonlarini rivojlantirishni ta’minlaydi, o‘zlarining muvaffaqiyatlarini, kamchiliklarini anglashi uchun eng maqbul bo‘lgan yo‘lni topishga sabab bo‘ladi.

Bundan tashqari, o‘qitish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish, boshqa ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan hamkorlikda ishlashga mo‘ljallangan muhitni kuchaytirishga yordam beradi. Ta’lim oluvchilar bir-biriga yordam berish va o‘zlashtirish jarayonlarida ishtirok etish orqali, ularda ta’limning eng afzal taraflarini tajriba qilish imkonini beradi.[1]

O‘qitish jarayonini raqamlashtirish mobaynida ta’sir etish uchun barcha omillarni hisobga olish zarur hisoblanadi. Eng asosiylardan biri sifatida pedagogik ta’lim usullari orqali bu jarayonni tashkillashtirish muhim hisoblanadi.

Shaxsiylashtirilgan ta’lim - raqamli texnologiyalar ta’lim oluvchilarning o‘rganish jarayonini yanada samarali hamda maqsadli qilish uchun mavzularni o‘zlashtirish darajasini tushunish va ta’lim olish usullariga moslashtirish imkonini beradi[2].

Interaktiv o‘qitish - zamoviy axborot texnologiyalardan foydalanish interaktiv darslar, testlar va o‘quv dasturlari orqali ta’lim oluvchilarning o‘rganishini yanada qiziqarli bo‘lishini ta’minlab, bu jarayonni maqsadli ko‘rinishda bo‘lishini asoslaydi. Bu esa, ta’lim oluvchilarning qiziqishlarini kuchaytirish, ularga o‘quv jarayonida qatnashishni oshirish va o‘zlashtirishni yuqori darajada bo‘lishini ta’minlash imkonini beradi[3].

Real va virtual muhitlar - ta’lim oluvchilarni ta’lim olish muhitining o‘zgarishlari bilan bog‘lashi uchun real va virtual muhitlarda foydalanib, virtual ta’lim dasturlaridan, ta’lim oluvchilarni virtual muhitlardan ishlashga hamda ularga moslashgan materiallarni amaliyotda foydalanish orqali mustahkamlash imkonini beradi.

Raqamli vositalar yordamida ta’lim resurslariga kirish, mavjud ma’lumotlarni boshqarish va ta’limni individuallashtirish imkoniyatini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanish ta’lim jarayonini sezilarli darajada yengillashtirib, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birgalikda, an’anaviy ta’lim jarayonlarini amalga oshirish imkoniyati biroz mushkul bo‘lgan turli xil vaziyatlar, favqulodda holatlar sharoitida ta’lim olish jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida axborot texnologiyalar yordamida ta’limni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

---

[1] Mamatov D., “Elektron axborot ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish”., Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent. 2017.

[2] Shukurov J.S., Ablyakimova R.I., “Shaxsga yo’naltirilgan ta’lim texnologiyasining asosiy prinsipi”., Jizzax. 2021.

[3] Qurmanova Q., Shrazov A., “Ta’lim tizimida innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish”., “Oriental Art and Culture” Scientific-Methodical Journal - Issue 5 / 2020.

Texnologiyalarning keng ko‘lamda rivojlanishi natijasida, internet tarmog‘i orqali ta’lim resurslari va materiallardan foydalanish imkoniyati paydo bo‘lishi bilan ta’lim olish ishtirokchilarining qo‘shimcha o‘quv materiallaridan foydalanishi bilan global darajada bilim va tajriba almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Raqamli tizimlar yordamida ta’lim jarayonidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va boshqarish orqali ta’lim sifatini oshirish, har bir jarayonga individual yondashuvni qo‘llashga yordam beradi. Shu bilan birgalikda, imkoniyatlari cheklangan yoki alohida ehtiyojlari bo‘lgan ta’lim oluvchilar uchun qulay sharoit yaratish mumkin.

Ta’lim olish subyektlari ishtirokchilarining kelajakdagi kasbiy faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishga asoslanadi.

O‘qituvchi tomonidan o‘qitish usullarining turli xil ko‘rinishda tashkil etish maqsadida texnologik vositalardan foydalanish bu jarayonni yanada samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Natijada, an’anaviy ta’lim shakllariga qaraganda, raqamli ta’lim vositalariga asoslangan ta’lim jarayoni ko‘pincha arzonroq bo‘lishi mumkin. Bu esa, ta’lim muassasalari uchun iqtisodiy jihatdan foydali bo‘ladi.

Shundan kelib chiqib, zamonaviy axborot texnologiyalaridan o‘qitish jarayonida keng miqiyosda foydalanish ta’lim sifatini, ta’lim jarayoni subyektlari o‘rtasidagi munosabatni mustahkamlab, ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlashga asos bo‘ladi.

ИЧКИ ИШЛАР АКАДЕМИЯСИ КУРСАНТЛАРИНИНГ ЎҚИШ ДАВРИДА ИЛМИЙ ФИКРЛАШИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎЛЛАРИ

Н.Т. ТУРГУНОВА,
Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Академияси
кафедра бошлиғи ўринбосари, с.ф.ф.д. (PhD)

Аннотация: Ушбу тезисда курсантларнинг ўқиш даврида илмий фикрлашини ривожлантириш йўллари келтирилган.
Tayanch iboralar: фикр, ижтимоий, мантиқ, назарий, хулоса, касб.

Аннотация: В этом тезисе представлены способы развития научного мышления студентов во время учебы.
Ключевые слова: мышление, социальный, логика, теоретический, вывод, профессия.

Abstract: This article discusses how students develop scientific thinking during their study period.
Key words: thought, social, logic, theoretical, concise, profession.

Фикрлашни ижтимоий-тарихий ривожланиш маъсули сифатида, яъни инсон фаолиятининг махсус шакли тариқасида қараш мумкин. Бу фаолият ижтимоий ҳаёт шароитлари асосида вужудга келади ва амалиёт маъсули ҳисобланган сўз тушунчалар мантиқлар асосида амалга оширилади.

Фикрлаш, таҳлил қилиш, таққослаш, синтез қилиш, абстракциялаш, умумлаштириш ва хулоса қилиш сингари тафаккур операциялари ёрдамида амалга оширилади. Хулоса қилиш, ниманидир тасдиқлаш ёки инкор этиш орқали ҳукм чиқариш воситасида рўёбга чиқарилади.

Фикрлаш эмпирик ва назарий турга бўлинади. Эмпирик фикрлаш бевосита қабул қилинса, ҳиссий образларга ва тасаввурларга таяниб, улар чегарасидан чиқмайди ва умумий, муҳим тасаввурлар босқичи ҳамда эмпирик тушунчаларнинг ҳосил бўлишини аниқлаш билан чегараланади.

Назарий фикрлаш сезгига – аниқ(сенсор) қабул қилишга таянади, аммо унинг чегарасидан чиқади ва бевосита қабул қилишда берилмаган муҳим умумийликни аниқлаш даражасигача етиб боради. Назарий фикрлашнинг натижаси назарий тушунчалар фикрий моделларининг фаразларини ва назарияларини яратиш ҳисобланади. Назарий фикрлаш дедукция усули бўйича хулоса чиқариш воситасида, умумий назарияга асосан янги ҳодисаларни, қонунларни назариянинг натижаси сифатида шакллантириб бориш мумкин. Илмий фикрлаш бу кўпроқ назарий тушунчали фикрлашдир.

Ҳарбий таълим тизимида курсантларга умумтехника, умумҳарбий, табиий фанлари ўқитиш жараёнида уларда назарий хулоса ва умумлаштиришларга таянадиган ҳам назарий, ҳам амалий фикрлашни тарбиялаш уни ривожлантириш зарур. Бунда илмий фикрлаш учун:

1) текшириш мақсадини аниқ ифодалаш;

2) илгари бажарилган назарий ёки экспериментал текширишларга таянадиган фаразни ишлаб чиқиш;

3) текшириш услубини ишлаб чиқиш;
4) текширишнинг асосий босқичларини аниқлаш;
5) ишлаб чиқилган услуб ва режага мос хусусий текширишлар ўтказиш;
6) олинган натижаларнинг таълили;
7) хулосаларни ифодалашнинг тавсифли эканлигини ёдда тутиш даркор.

Ўқув жараёнида текширишнинг ҳамма босқичларини мустақил бажарилишини курсантлардан талаб этиб бўлмайди, аммо фан тарихидаги далиллар мисолида илмий текширишлар мантиқини очиб бериш, олимларнинг у ёки бу назарий ёки экспериментал кашфиётларга қандай келишганликларини кўрсатиб бериш лозим. Қандай усуллар олимларни текширишлар билан шуғулланишга ундаганлигини, нима сабабдан фан ривожланиши босқичида ушбу муаммо ҳал этилганлигини, бу текшириш техника ва иқтисодиётнинг ривожланиши билан қандай боғланганлигини очиб бериш муҳим аҳамиятга эга. Бу эса ўз навбатида курсантларда диалектик фикрлаш усулини шакллантиришда зарур омил бўлиб ҳисобланади.

Муҳокама қилиш мантиқи – илмий фикрлаш ривожланишиинг **биринчи** йўли.

Илмий фикрлаш ривожланишининг **иккинчи** йўли, курсантларни ўқув муаммоларини ҳал этиш йўлларини қидиришга, текшириш режасини тузишга ва унинг услубини ишлаб чиқишга жалб этишдан иборат.

Учинчи йўли курсантларни сабаб-оқибат боғланишларини аниқлашга, кузатилаётган ҳодисаларни ва жисм хоссаларини тушунтиришга, идеал моделлар билан ишлашга жалб этишдир.

Тўртинчи йўл – индукция ва дедукция усуллари бўйича хулоса чиқаришда курсантлар қобилиятларини ҳъосил қилиш ва уларни ривожлантириш.

Ҳарбий таълим тизимида барча фанлар махсус билимлар тизимини ишлаб чиқиш керакки, уларни бажариш курсантлардан дедукция усулидан фойдаланиб, хулосалар чиқаришни талаб этсин. Ҳарбий таълимда амалий фанларни ўқитиш жараёнида кўриб чиқилган усулларнинг илмий фикрлашнинг муваффақиятли шаклланишини таъминлашга имкон бериши, табиий.

Хулоса қилиб айтганда, курсантлар илмий тафаккурини ривожлантириш кўп жиҳатдан, уларнинг қандай даражада илмий-техник ахборотлар билан таъминланганлигига боғлиқ.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ахборот тизимлари ва технологиялари: Олий ўқув юртлари курсантлари учун дарслик // Муаллифлар жамоаси: С. С. Ғуломов, Р. Х., Алимов, Х. С. Лутфуллаев ва бошқалар. – Т.: "Шарқ", 2000. – 592 б.

2. Аҳлиддинов Р., Хўжаев А., Носирова Ф., Камилова М. Ўзбекистонда таълимни бошқариш: муаммолар, изланишлар, ечимлар // "Таълим тараққиёти". – Т., 2000. – №3(6). – 5-104 б.

3. Авлияқулов Н. Х. Замонавий ўқитиш технологиялари. – Т., 2001. – 66 б.

HARBIY TA’LIM MUASSASALARIDA KURSANTLAR IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH UCHUN POTENSIAL IMKONIYATLAR

NAVRO‘ZOV Laziz Abdirashidovich
O‘R QK Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi
o‘qituvchisi, QK xizmatchisi

Annotatsiya:Yaqingacha harbiy mutaxassislarni tayyorlashda funksional yondashuv ustun bo‘lib, unda ko‘proq kasbiy tayyorgarlikka e’tibor berilib, ularning madaniy rivojlanishi oqsab borardi. Ushbu yondashuv reproduktiv darajadagi ijodkorlikni rivojlanishini cheklaydigan faoliyatning standart algoritmlaridan foydalanish bilan tavsiflangan fikrlashning adaptiv turini shakllantirishga olib keldi.

Kalit so‘zlar: Ijodkorlik, ijodiy qobiliyat, g‘oyalarni yechish, kreativlik, analiz (tahlil) va sintez.

Аннотация: До недавнего времени в подготовке военных специалистов преобладал функциональный подход, при котором больше внимания уделялось профессиональной подготовке, а их культурное развитие отставало. Такой подход привел к формированию адаптивного типа мышления, характеризующегося использованием стандартных алгоритмов деятельности, ограничивающих развитие творчества на репродуктивном уровне.

Ключевые слова: Креативность, творческие способности, решение идей, анализ и синтез.

Abstract: Until recently, a functional approach prevailed in the training of military specialists, in which more attention was paid to professional training, and their cultural development was lagging behind. This approach led to the formation of an adaptive type of thinking characterized by the use of standard algorithms of activity that limit the development of creativity at the reproductive level.

Keywords: Creativity, creative ability, solving ideas, creativity, analysis and synthesis.

Harbiy kadirlarni tayyorlashda hozirda juda ko‘p ishlar amalga oshirishi, kursantlar tomonidan ikkinchi mutaxassislikni egallash (bu fuqarolik hayotidagi kursantning ixtisosiga bo‘lgan talabining maqsadi bilan bog‘liq), kursantlar (tinglovchilar)ni nafaqat mutaxassislikni o‘zlashtirishga, balki mumkin bo‘lgan nostandart vaziyatlarga maksimal tayyorgarlikka yo‘naltirishni ham nazarda tutadi.

Zamonaviy oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bu shaxsning ijodiy salohiyatini yoki kursant ijodkorligini ochish bo‘yicha faoliyatini olib borishdir.

Ijodkorlik (ijodkorlik qobiliyati) - rivojlangan ijodiy tasavvurni, g‘oyaning o‘ziga xosligini, uni ochish qobiliyatini nazarda tutadi; yangi muammolarning yechimini topish, buning uchun allaqachon ma’lum bo‘lgan faoliyat usullaridan foydalanish, mavjud bo‘lgan bilimlarni yangi sharoitlarda qo‘llash qobiliyati; ijtimoiy ijodkorlik uchun maxsus qobiliyatlar va boshqalar.

J. Gilford ijodkorlikni tadqiqot faoliyatiga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga imkon beradigan faoliyatdagi samarali o‘zgarishlarni ta’minlaydigan shaxsning integrativ sifati kabi belgilaydi. Ijodkorlik parametrlari:

muammoni aniqlash qobiliyati;

g‘oyalarni to‘plash; ularning ichida yechimga yolib keladiganini tanlash - egiluvchanlik qobiliyati;

vaziyatga qarab nostandart javob topish qobiliyati;

tafsilotlarni qo‘shish orqali takomillashtirish qobiliyati;

g‘oyalarni yechish, ya’ni analiz (tahlil) va sintez qilish qobiliyati.

Harbiy mutaxassisning ijodkorlik jihatlariga avvalgi tajriba va shakllangan an’analardan mavhumlik qobiliyati, nostandart vaziyatlarda samarali yechim topish qobiliyati kiradi.U nafaqat xulq-atvor (vaziyat) xususiyati sifatida emas, balki chuqur (shaxsiy) sifatida rivojlanishi uchun uning shakllanishi atrof-muhit sharoitlari ta’sirida yuzaga kelishi kerak. Ijodkorlik - bu atrof-muhit imkon bergan taqdirdagina amalga oshiriladigan xususiyatdir.

Binobarin, harbiy oliy o‘quv yurtining eng muhim vazifasi o‘quv jarayonida kursantlarning fikrlash madaniyatini rivojlantirishdir.

Texnik yo‘nalishdagi harbiy ta’lim muassasalarida informatika fanini o‘qitish doirasida ijodkorlikni rivojlantirishning obyektiv ehtiyojidan kelib chiqib, harbiy mutaxassislikni o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan bilimlarni olishning pedagogik jarayonini ko‘rib chiqamiz.

Informatika fani harbiy muhandislik yo‘nalishdagi kursantlar uchun asosiy o‘quv predmetlaridan biri bo‘lib, materialni qat’iy mantiqiy ketma-ketlikda taqdim etishni talab qiladi. Ammo an’anaviy metodlarning qo‘llanishi, ya’ni obyekt sifatida o‘qituvchi, subyekt esa - kursant bulgan jarayon samara bermayapti. Kursantlarda kreativ fikrlashini shakllantirishda o‘qitish metodologiya va texnologiyalarni qo‘llash kerak. Bunday rivojlanish manbalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

• professor-o‘qituvchilar tarkibining ijodiy faolitini faollashtirish, aniqrog‘i pedagogik innovasiyalarni o‘rganish va qullash;

• harbiy professional shaxsining har tomonlama rivojlashi uchun qaratilgan pedagogik innovasiyalarni muvaffaqiyatli qo‘llash uchun sharoit yaratish;

• yoshlarning ijodiy qobiliyat va ziyrakligini rivojlantirishga kompleks yondashuvni ishlab chiqish.

Xulosa

Ushbu manbalardan foydalangan holda harbiy mutaxassisning ijodkorlikni rivojlantirish mumkin. O‘qituvchi faoliyati va qo‘mondonligi pedagogik innovasiyalarni yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishning murakkab maqsadga muvofiq jarayoni sifatida qaralishi mumkin, bundan maqsad jamiyatning ijtimoiy tartibini qondirish va tinglovchilarning shaxsiy salohiyatini rivojlantirishdir.

Zamonaviy o‘qitish tizimi tinglovchilarning bilimlarni "egallash" da faol pozisiyani egallashi va dars jarayonida ishtirok etadigan o‘qitishning innovasion usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oladi, shu bilan o‘qitish tizimi ijodiy fikrlash va mustaqil ravishda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Shunday qilib, Harbiy ta’lim muassasalarida o‘qish paytida kursantning ijodkorligini rivojlantirish kelajakda kasbiy mustaqillikka zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Гребенюк О. С. Педагогика индивидуальности. - Калининград.
2. Бордовская Н.В., Реан А.А. Педагогика: Учеб. для вузов. - Сб.Питер
3. Подласый И.П. Педагогика. - М.: Просвещение,.
4. Шамардин В. Н. Школа: от конечного результата -к творческому поиску. -М.

КУРСАНТЛАРНИ КАСБГА ТАЙЁРЛАШДА ПЕДАГОГИК ТАЪСИР МУҲИМ ОМИЛ СИФАТИДА

ШЕРМАТОВА Назокат Сафаровна,
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси ўқитувчиси

Аннотация. Ушбу мақолада профессор - ўқитувчиларнинг курсантлар шахсига педагогик таъсирини кучайтириш шунингдек ёш, интеллектуал, психологик, мақом ўзгаришларига қараб курсантларнинг ўз ҳарбий-касбий ривожланиши жараёнида юзага келадиган қийинчиликлар, муаммоли вазиятларни ҳал этишдаги мураккабликларни бартараф этиш каби масалалар ёритиб берилган.

Калит сўзи. Ватан ҳимояси, юрт тинчлиги, ёш даврлари, интеллект, психологик мақом ўзгаришлари, ўз ҳарбий-касбий ривожланиш, муаммоли вазиятлар, илмий тасаввур, педагогик маҳорат.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие вопросы, как усиление педагогического влияния профессорско-преподавательского состава на личность курсантов, а также устранение трудностей, возникающих в процессе военно-профессионального развития курсантов в зависимости от возрастных, интеллектуальных, психологических и статусных изменений, выделены трудности в решении проблемных ситуаций.

Ключевое слово. Защита Родины, мир страны, возрастные периоды, интеллект, изменения психологического статуса, военно-профессиональное развитие, проблемные ситуации, научное воображение, педагогическое мастерство.

Abstract. This article discusses issues such as strengthening the pedagogical influence of the teaching staff on the personality of cadets, as well as eliminating difficulties that arise in the process of military-professional development of cadets depending on age, intellectual, psychological and status changes, and highlights difficulties in solving problem situations.

Keyword. Defense of the Motherland, peace of the country, age periods, intelligence, changes in psychological status, military-professional development, problem situations, scientific imagination, pedagogical skills.

Дунёда ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган курсантларни соҳавий хизматларга замонавий билим, кўникма ва малакага эга бўлишида илғор хорижий тажрибалар, ахборот-коммуникация ва янги педагогик технологияларни кенг жорий этиш асосида бўлажак ходимларни касбга тайёрлаш масаласига алоҳида эътибор қаратилмоқда. Халқаро миқёсда соҳавий хизмат ходимларининг касбий тайёргарлик даражасини ривожлантириш ва такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этиб, таълим тизимини модернизациялаш, ижтимоий муҳит талабларига интеграциялаш, соҳавий хизмат ходимларига асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш, Ўзбекистон Республикасида мавжуд ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган олий таълим муассасаларида таълим жараёни самарадорлигини оширишга хизмат қилувчи

илғор педагогик ва инновацион таълим механизмларини ишлаб чиқишни тақозо этмоқда.

Жаҳонда халқаро стандартлар асосида касбий тайёргарлик даражасини ривожлантириш ва такомиллаштириш, уларда ўз касбига садоқат, ватанпарварлик, миллатлараро бағрикенглик, толерантлик тафаккурини ҳамда ижодий фикрлашни ривожлантириш масалалари бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда. Мамлакатимизда ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган олий таълим муассасаларида бўлажак соҳавий хизмат ҳарбий хизматчи ва ходимларини касбга тайёрлашнинг ўзига хос ижтимоий психолого-педагогик қонуниятлари ва механизмларини такомиллаштириш ҳамда уларни ўқитишда таълим тизимини модернизациялаш, энг илғор педагогик технологияларга таянган ҳолда инновацион ёндашувларга асосланган давлат таълим стандартларини жорий этиш, ўқув жараёнига замонавий педагогик технологияларни тадбиқ этиш ва ахборот-коммуникация технологияларнинг имкониятларидан кенг кўламда фойдаланишни янги сифат даражасига кўтаришни талаб этмоқда.

Бугунги кунда хизмат соҳасида фаолият олиб бораётган ҳарбий хизматчи ва ходимлар фаолиятининг таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, сўнги йилларда ҳарбий хизматчи ва ходимларнинг хизмат интизомини бузганлиги учун 7,5 мингга яқин ходим интизомий жазога, жиноят содир этганлиги учун эса 201 нафари жиноий жавобгарликка тортилган. Хизмат интизомини бузувчи 822 нафар ҳарбий хизматчи ва ходимларнинг хатти-ҳаракатга ҳуқуқий баҳо берилган. Жумладан: 173 нафари тизимдан бўшатилди, 114 нафарининг эгаллаб турган лавозими пасайтирилди, 65 нафар раҳбарлар ротация қилиниб, бошқа лавозимларга ўтказилди. [1]

Мамлакатимиз президенти Sh.M. Мирзиёев соҳада амалга оширилаётган ислоҳотлар хусусидаги фикрларидан келиб чиқиб, Ватан ҳимояси, юрт тинчлиги ҳамда давлат келажаги учун жонкуяр, олижаноб, ўз хизмат бурчини сидқидилдан бажарадиган фидойи, виждонли ва юксак маънавиятли кадрларни тарбиялаб етиштиришни устувор вазифа[2]сифатида белгиланган.

Шундан келиб чиққан ҳолда, бугунги кунда тизимга кадрларни тайёрлаш соҳасида ислоҳотларни амалга ошириш муҳим масала сифатида майдонга чиқмоқда. Яъни уларни ўқитиш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш, касбий фаолиятида учрайдиган қийинчиликларни енгиш кўникмаларини шакллантириш, касбий тайёргарлигини ривожлантириш ва такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади. Бу борадаги вазифалар амалий натижаси сифатида ривожланган давлатлар ҳарбий таълим тизимида қўлланилаётган тажрибаларига таянган ҳолда мамлакатимиздаги ҳарбий ва ҳарбийлаштирилган олий таълим муассасаларида курсантларни ўқитиш, касбга тайёрлаш ва касбий фаолият самарадорлигини оширишга хизмат қиладиган замонавий педагогик технология қўллаш механизмларни ишлаб чиқишга замин яратди.

Олий ҳарбий ҳамда ҳарбийлаштирилган таълим муассасалари курсантларини касбга тайёрлаш деганда бизнингча бўлажак ходим ва ҳарбий хизматчиларнинг соҳавий хизмат йўналиши бўйича ишлаб чиқилган малака талаблари, ўқув режа ва фан дастурлари асосида шахсни, унинг ҳуқуқ ва эркинликларини, жамият ва давлат манфаатларини юридик ва жисмоний шахсларнинг мол-мулки, табиий муҳитни, тинчликни, инсоният хавфсизлигини турли тажовузлардан ҳимоя қилишга йўналтирилган тизимлаштирилган жараёндир.

Курсантларнинг ҳарбий-касбий жараёнларини ривожлантириш ғояси ва педагогик фаолият профессор-ўқитувчилар таркибини ҳар бир курсантнинг касбий ривожланиш жараёнларининг тўлиқлиги ва натижавийлигини таъминловчи индивидуал шароитларини яратишга қаратилган. Бундай ташкиллаштирилган тузилма тузиш технологияси ва тарбиявий жараёнларни амалга ошириш инсонпараварлик тамойилига йўналтирилган бўлиб, ҳарбий таълим муассасаларига тақдим этилган имкониятларни курсантлар томонидан амалга оширилишини таъминлайди.

Ёш, интеллектуал, психологик, мақом ўзгаришларига қараб курсантларнинг ўз ҳарбий-касбий ривожланиш шароитларини қабул қилиш ҳам ўзгаради. Бу жараёнда юзага келадиган қийинчиликлар, муаммоли вазиятлар, турли вазифаларни ҳал этишдаги мураккабликларни бартараф этиш зарур.

Ҳар бир муаммоли вазият, топшириқни ҳал этишнинг кўплаб вариантларини ҳосил қилади. Курсантлар доимий равишда муваффақият (ёки муваффақиятсизлик)ни белгилаб берувчи мустақил танловларини амалга ошириб боради. Шубҳасиз, касбий такомиллашишнинг ички манбалари устунлиги курсантни мустақил танлов қилиш ҳуқуқини белгилайди. Шунга қарамай, курсантларнинг самарали ҳарбий-касбий ривожланиши учун тўла мустақил танлов эркинлигини тақдим этиш етарли эмас. Ўқитувчидан курсантларни тўғри қарор қабул қилишга ўргатиш талаб этилади ҳамда юзага келган муаммоли вазият, топшириқнинг моҳиятини тушунишига кўмак бериши, ҳал этиш режасини тузиши ва уни амалга оширишнинг дастлабки қадамларини қўйиши зарур бўлади.

Профессор-ўқитувчилар томонидан курсантларга кўрсатиладиган педагогик таъсир кучи катта аҳамиятга эга бўлиб, у қуйидагиларга ёрдам беради:

- интеллектуал ривожланиш (самарали тафаккур, ўқув фаолиятининг рационал усулларини ўзлаштириш);
- педагогик фаолият танлови мотивациясини ташкиллаштириш, эҳтиёж, мотивларни англаш;
- адекват ўз-ўзини баҳолаш ва ички эмоционал қулайлик ҳолатини шакллантириш (эмоционал барқарорлик, ўз кучига ишонч ҳисси);
- ўзини енгиш учун иродавий сифатларни ишлаб чиқиш (ўзининг масъулиятсизлиги, уялчанлиги, эринчоқлиги);

- ўз-ўзини бошқаришни шакллантириш (ўзини ўзи бошқариш, ички барқарорлик, ўзининг қадр-қиммати ҳисси, эркин фаолият ва хатти-ҳаракатларининг мақсадга йўналганлиги, уларнинг кўпроқ ташқи шароитларга қараганда ўз нуқтаи назарига асосланганлиги);
- мазмун қидириш фаоллигини ошириш (касбий фаолият ва уларга тайёргарликнинг самарали қадриятли-мазмунли ориентацияларини шакллантириш);
- ижодий қобилиятларини ривожлантириш (махсус ва ҳаёт фаолиятига доир, қайтарилмас, қарорларнинг ўзига хослиги, фаолият ва хатти-ҳаракатларнинг индивидуал услуби; ўқув-тадқиқот ва илмий-тадқиқот ишига жалб қилиш).

Бунинг учун ўқитувчига зарур:

- курсантлар дуч келадиган муаммоларни аниқлаш ва қайд этиш;
- муаммонинг юзага келиш сабабларини биргаликда қидириш;
- ҳар бир томоннинг хатти-ҳаракатларини вазифа ва масъулиятни тақсимлаган ҳолда лойиҳалаштириш;
- муаммоларни ҳал этишда муваффақиятни таъминловчи ҳамкорликдаги фаолиятни ташкиллаштириш;
- муаммони ҳал этишда эришилган муваффақиятларни таҳлил қилиш.

Бунда асосий педагогик шартлар қуйидагилардан иборатдир:[3]

- мувофиқ шахсларда ҳарбий-касбий тайёргарлик ҳақида илмий тасаввур шакллантириш;
- мувофиқ шахсларнинг педагогик маҳоратини ошириш;
- мувофиқ шахслар томонидан курсантларнинг ҳарбий-касбий тайёргарлик жараёнини доимий равишда малакали бошқаришни амалга ошириш;
- кафедралар профессор-ўқитувчиларининг барча ўқув машғулотларини касбий йўналтиришни таъминлашга интилиши;
- курсантларда умумий (базавий) ва махсус (касбий) сифатларни шакллантириш мақсадида тарбиявий ишларнинг турли шакл ва методларини офицер ва бўлинма офицерлари томонидан тарбиявий тузилмаларни қўллаш;
- курсантларда мақсадга йўналтирилган ўз-ўзини такомиллаштиришни шакллантириш.

Командирга зарур бўлган профессиограмма сифатлари қуйидагича тақсимланди:

- ҳарбий жамоа командири сифатидаги ўз фаолиятининг давлат аҳамияти ва заруриятини юқори англаган, курсантларнинг касбий ва педагогик шаклланиши жараёнини тўғри ташкиллаштириш ва ўтказиш, шахсий масъулият ҳисси;
- командир ва мутахассис сифатидаги касбий фаолиятига ҳар томонлама тайёрланишда принципиаллик, барча қонун-қоидалар, мезонларга амал қилиш;

- юқори касбий ва педагогик маҳорат, ишга бошқарувчи сифатида тайёргарлик;
- курсантларнинг касбий тайёргарлиги асосини ташкил этувчи педагогик сифатлар;

Ҳарбий мутахассис ва командир сифатида ҳарбий-касбий фаолият қобилиятларини ташкил этувчи психологик сифатлар:

психологик-педагогик саводхонлик ва умуман касбий маҳоратнинг юқори даражаси;

ўзаро таъсир алоқаларда адолатпарварлик, инсонпарварлик;

жамоавийлик ҳисси ва бутун бўлинма ишини ташкиллаштириш қобилияти;


курсантларнинг касбий шаклланишига тааллуқли барча топшириқларни бажаришга сафарбарлик;

қўллаб-қувватлашга хизмат қилувчи ҳар томонлама эмоционал-иродавий барқарорлик ва шу билан бирга, ташаббускорлик ва қатъийлик, маълумотларни қабул қилиш ва қайта ишлаш, вазиятни тезда баҳолаш билан боғлиқ бўлган билиш жараёнларининг юқори даражада ривожланганлиги ва ҳ. Бу сифатлар ўз-ўзидан ривожланмайди, уларни ҳарбий бошқарувчи касбий фаолиятининг энг бошидан ривожлантириш зарур.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси ИИВ вазирининг махсус йиғилиши 5-сонли баённомасидан // 02.02.2023 йил.
2. Мирзиёев Sh.M. Миллий тараққиёт йоўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга коътарамиз. 1- жилд. – Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2019. – Б. 311-312.
3. Касбий психология ва педагогик тайёргарлик: Маърузалар курси. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2003. – 25-б.

PUBLITSISTIK USLUB - ILMIY VA BADIIY ADABIYOT TUTASHGAN JOYIDA MAVJUD BO‘LGAN IJTIMOIY ALOQA USULI



SHAMAKSUDOVA Saodat Xidoyatovna,
O‘zJOKU, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent.

Annotatsiya. Maqolada publitsistik uslub, uning o‘ziga xos xususiyatlari, publitsistikaning ijtimoiy vazifasi, ijtimoiy-siyosiy mohiyati va badiiy xususiyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, publitsistika janrlari, tili va tuzilisi tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: publitsistika, ommaviylik, adresat, ijtimoiy-siyosiy, usul, ritorika

Аннотация. В статье изучаются публицистический стиль, его специфика, социальная миссия, общественно-политическая сущность и художественные особенности публицистики. Также изучаются жанры, язык и структура публицистики.

Ключевые слова: публицистика, публичность, адресат, общественно-политический, метод, риторика.

Annotation. The article studies the journalistic style, its specificity, social mission, socio-political essence and artistic features of journalism. Genres, language and structure of journalism are also studied.

Key words: journalism, publicity, addressee, socio-political, method, rhetoric.

Publitsistika – bu diskursning bir ko‘rinishi bo‘lib, fikrlarni ommaviy tarzda verbal shakllantiradi va ifodalaydi. U har qanday nutq ko‘rinishida (ilmiy, ta’sirchan va b.), hatto noverbal shakllarda (tasviriy san’at, fotografiya, kinematografiya va b.) namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, ommaviylikdan chetlashishga, o‘z mustaqil (o‘ziga xos) nutqini yaratishga intiladi va u o‘zini ifodalash uchun maksimal imkoniyatlarga ega bo‘ladi, ya’ni matnlarning maxsus shaklida ifodalanadi. Tarixda bunday ajratish nutq amaliyotida uchraydi. Publitsistika predmeti – talqinlardagi haqiqat. Ammo publitsistikaning ritorik kelib chiqishi tufayli genetik va keyinchalik tarixiy jihatdan mafkura, siyosat, ijtimoiy faoliyat kabi o‘ziga xos turlari shakllanmoqda. M.M.Baxtin publitsistikani “zamonaviy ritorika”, deb ta’riflaydi [1].

Ommaviylik – publitsistik asar muallifining fikrlash tarzidir, Unda muallif o‘zini biror-bir tashkilotning uzviy qismi sifatida ko‘radi, shaxsiy manfaatlarida emas, muayyan jamoa (fikrlovchi mushtarak insonlar jamoasi, ijtimoiy guruh, butun jamiyat) nomidan harakat qiladi. Muallif adresat bilan bog‘langan munosabatlarda bo‘ladi: “Adresat kundalik muloqotning bevosita ishtirokchisi – suhbatdoshi, madaniy muloqotning biron sohaga oid mutaxassislar guruhi, bir-biridan uncha farq qilmaydigan jamoa, odamlar, zamondoshlar, bir xil fikrli insonlar, bir-biriga zid fikrlaydiganlar, dushmanlar, boshliqlar va qo‘l ostida ishlaydiganlar, begonalar, yaqin

insonlar va boshqalar bo‘lishi mumkin” [1]. Ushbu mantiqqa ko‘ra, badiiy nutq adresati boshqasiga o‘xshamaydi, ularni ilmiy, ya’ni tor doiradagi mutaxassislar, publitsistik, ya’ni muloqot mavzusi va sharoitiga qarab farqlanadigan odamlar jamoasi, deb atash mumkin (ijtimoiy guruh, jamiyat va jamiyat ifodalagan jamoatchilik fikri). Bular ritorik ta’sir obyektidir. Shu o‘rinda publitsistikaning mukammal bo‘lishi uning mavzusiga ham bog‘liq ekanligini aytib o‘tish joiz. Chunki auditoriyani belgilashda publitsistik asar mavzusi muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuni aniqlash orqali retsepiyentni, umumiy tarzda bo‘lsa ham, belgilab olish mumkin. Bu esa kommunikatorga ancha qo‘l keladi.

Ritorik nutq qat’iy cheklangan va aniq masadlarga ega bo‘ladi. U hissiy ta’sir ko‘rsatmaydi, taklif, ishontirish yoki motivatsiyaning o‘ziga xos ta’siriga erishishga qaratilgan bo‘ladi. Shu maqsadda ritorika barcha nutq turlarining lingvistik vositalari imkoniyatlaridan foydalanadi. Ulardan qay birini tanlash muloqotning funksional ahamiyatiga bog‘liq: “Aloqadorlik nutqning ta’sir kuchini, ya’ni ishontirish asosini belgilaydi. Ritorika uchun til – bu shakl emas, balki ushbu turdagi nutqning amaliy xususiyatini belgilaydigan harakat. Ritorik nutq turlicha bo‘lib, tafakkurning barcha turlariga xos ishora tizimlarida: ilmiy, badiiy, yuridik va boshqalarda mavjud.

Shunday qilib, publitsistikani madaniy muloqotning rivojlanishi va yetakchi xususiyatlarga ega bo‘lishi tufayli yuzaga keladigan nutq ifodasining murakkab janri sifatida ta’riflash mumkin. Bunda mavzu, uslub, kompozitsiya, maqsadni belgilash va boshqalar muhim sanaladi.

Ma’lumki, publitsistik material tayyorlash uchun muallifdan ma’lum tajribaga ega bo‘lishi talab etiladi. Bunday materiallarning risoladagidek chiqishida bir qancha talablar e’tiborga olinishi kerak. Mavzuni to‘g‘ri tanlash, muammoni ochib berishda jurnalist mahorati shular sirasidan.

Demak, publitsistikani zamonaviy talqin etishda: 1) publitsistika predmetining xilma-xilligi; 2) kommunikativ vaziyatning o‘ziga xos xususiyatlari; 3) publitsistik chiqishda adresant va adresat xususiyatlari; 4) yaratilgan nutqning o‘ziga xosligi; 5) publitsistik nutq uslubi haqida keng tushunchaga ega bo‘lish lozim.

Publitsistika – hayotni tasvirlashning alohida usuli, ijod turidir. U jamiyat hayotining shu kunda, ayni zamonda bo‘lib o‘tgan va o‘tayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik voqea-hodislarini aks ettirib ommaga yetkazadi, davrning eng dolzarb masalalariga munosabat bildiradi, yechilishi lozim bo‘lgan muammolarni ko‘tarib chiqadi va ayni zamon kishilari manfaatlariga xizmat qiladi. Publitsistikaning nazariy asosini tushunish OAVda uning faollashuviga, o‘z o‘rniga ega bo‘lishiga xizmat qiladi.

Publitsistika o‘zining tasvir chegaralarini doimiy ravishda kengaytirib boradi va vazifalaridan kelib chiqib, nafaqat axborot yetkazish, balki o‘quvchini, tinglovchini, tomoshabinni g‘oyaviy tarbiyalash bilan bir qatorda ijtimoiy faollikka chorlaydi. Ba’zan publitsistika beixtiyor, ijtimoiy mexanizmni tartibga solish, yuzaga keladigan ijtimoiy ehtiyojni qondirish vazifalarini ham bajaradi.

Natijada, publitsistika nafaqat jamoatchilik ongida kechayotgan jarayonlarni aks ettiradi, balki maqsadga muvofiq ravishda unga ta’sir qiladi. Zero, uning vazifasi – ijtimoiy hayotni tezkor, chuqur, obyektiv o‘rganish va jamiyatga ta’sir ko‘rsatish. Janr

talabi asosida, muallifning ijodiy uslubi vositasida publitsistik asarda mantiqiy va emotsional ta’sir o‘tkazish uchun fikrni ifodalashning konseptual yoki obrazli vositalaridan foydalaniladi.

Publitsistikaning ijtimoiy vazifasi, ijtimoiy-siyosiy mohiyati va badiiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda uning uchta asosiy jihati o‘rganiladi. Bu borada, avvalo, publitsistikani jamoat ongiga, omma dunyoqarashiga va atrofdagi voqelikni idrok etishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ijtimoiy-siyosiy hodisa sifatida taqdim etish haqida gapirish mumkin.

Publitsistik faoliyat ijtimoiy aloqa turlaridan biri sifatida siyosiy aloqa va siyosiy ong tizimiga taalluqlidir. Har qanday sharoitda publitsistika ijtimoiy tizimda siyosiy faoliyat mezonlariga javob beradigan va yuqori ijtimoiy ahamiyatga molik mavqeni egallaydi, bu xususiyatidan kelib chiqib unga maxsus ijtimoiy omil va institut sifatida qarash lozim bo‘ladi.

Shuningdek, publitsistikani bilish jarayonining maxsus turiga kiritish mumkin. U nafaqat ijtimoiy aloqa usulini, balki qaytish reaksiyasi mexanizmini ham o‘z ichiga oladi. Publitsistikaning kognitiv yoki boshqacha aytganda, gnesologik (olamni anglash) muammolari nafaqat muallif tomonidan publitsistik asar yaratilishi, balki publitsistning haqiqatni anglash, shuningdek, auditoriyaning yaratilgan asarni qabul qilish, anglash jarayonini ham o‘z ichiga oladi. Publitsistikaning asosiy jihatlaridan uchinchisi uni badiiy ijod va ijtimoiy-siyosiy faoliyatning o‘ziga xos turi sifatida taqdim etish bilan bog‘liq. Bunday bog‘liqlik turli xil tarkib va shakllardagi asarlarda namoyon bo‘lishi mumkin [4].

Voqelikni o‘rganish, aks ettirish usullari va vositalari publitsistikani fan bilan bog‘lab turadi. Publitsistika o‘zining ijtimoiy-siyosiy va sotsiologik aspektida, fan bilan, shuningdek, badiiy adabiyot va ayrim san’at turlari bilan bog‘lanadi. Publitsistik asar badiiy, adabiy tanqidiy yoki hatto ilmiy asarlar qatoridan joy olishi mumkin.

Publitsistika, asosan, yorqin mualliflik pozitsiyasi, ifodaning obrazliligi, aniq topilgan faktlar va uslubni to‘g‘ri tanlashi bilan ijodiy faoliyatning o‘ziga xos turiga kiradi.

Ilmiy va badiiy adabiyot tutashgan joyida mavjud bo‘lgan publitsistika boshqa fanlarning butun spektri va ijodiy faoliyat turlarining ta’sir doirasiga kiradi. Bu o‘rinda siyosat, jurnalistika, san’at va inson hayotining boshqa ko‘plab sohalari nazarda tutiladi.

Zamonaviy publitsistika ijtimoiy va siyosiy faoliyat turi sifatida tan olingan. Har qanday davriy nashrlarda (gazeta, jurnallar, internet, bloglar, veb-saytlar, televideniye, radio) mustahkam o‘rin olgan publitsistika jamoatchilik fikrini shakllantirishda hal qiluvchi vazifani bajarmoqda.

Publitsistika ommaga chinakam ta’sir ko‘rsatish usuli, ya’ni muloqotning maxsus turi sifatida yuzaga kelgan bo‘lib, kundalik bilimlarga xos xususiyatlarni to‘playdi va ifodalaydi. Ushbu ijtimoiy-siyosiy aniq ilmiy va badiiy vositalari bilan birga, bilishning deyarli barcha vositalaridan foydalanadi.

Shuning uchun ham, publitsistika o‘ziga xos ijtimoiy-pedagogik missiyasini bajaradi, chunki u kundalik fikrlashga xos narsalarni ta’sirchan darajada ifodalaydi.

Publitsistikaning kuchi – ifodalagan so‘zida. Ommaga qarata aytilgan so‘z har doim ijtimoiy mazmunga ega bo‘lib, kimlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, ularda ozmi-ko‘pmi aks-sado beradi.

Publitsistikaning asosida, birinchi galda, fakt turadi. Lekin har qanday fakt va voqea-hodisa ham informatsiya uchun asos bo‘la olmaydi. Avvalo, faktning ijtimoiy ahamiyati, ya’ni jamiyat uchun, shu kun uchun, shu davr uchun kerak yoki kerak emasligi muhim ahamiyatga egadir.

Fakt, dalil – har doim bilish faoliyatining muhim unsuri, uni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan aloqalar va munosabatlar tizimining tarkibiy qismidir.

Faktni aniqlash, tushunish va uning publitsist ongida shakllanishi, talqin etila boshlanishi unga baho berish bilan uzviy bog‘liqdir. Haqiqatni aks ettirish publitsist tomonidan subyektiv yondashilgan fakt asosida yuzaga keladi. Shuning uchun faktlar obyektiv yoritiladi, degan fikr bir qadar nojoiz.

Har qanday jurnalistik asar o‘zining kompozitsion tuzilishi, yaxlit ko‘rinishi, amal qilishi lozim bo‘lgan prinsiplari, oldiga qo‘ygan maqsadi, ish olib borish usullari va vazifalariga ega bo‘ladi. Bu jurnalistdan belgilangan prinsiplarga amal qilishni, voqelikka nisbatan bevosita yoki bilvosita yondashuvni, uni yetkazishda muayyan usul va mahoratni talab etadi. Jurnalist o‘zi tayyorlayotgan materialning tartibi qanday bo‘lishi, gapni nimadan boshlashi, qanday ma’lumotni birinchi o‘ringa olib chiqishni, voqea, hodisa, jarayonni qay tartibda yoritishni o‘ylaydi. Barchasini bir tartibga keltirish esa matnga nisbatan muayyan shakl topishni talab etadi.

Shakl haqida gap ketganda, albatta, janrlarga to‘xtalib o‘tish joiz. Avvalo, janrning o‘zi nima, degan savol tug‘iladi. Tadqiqotchilar janrga “...hayotiy materiallarning kompozitsion tuzilishini o‘zida ifoda etadigan va voqeliq haqida aniq tasavvur beradigan axborot uzatishning o‘ziga xos shaklidir”, deya ta’rif berishadi [3].

Publitsistikada janr – voqelikni anglash orqali o‘zlashtirilgan fikrlarni qayta ishlash vositalarining nisbatan barqaror tizimidir. Publitsistik janrlarni o‘rganishda badiiy janrlar nazariyasidan ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni topish mumkin [1].

Publitsistika turlari va janrlarining xilma-xilligi ijtimoiy hayotni keng va har taraflama aks ettirishdan iborat funksiyasidan kelib chiqadi. Publitsistika orqali insoniyat o‘zini o‘rab turgan tashqi dunyodan xabardor bo‘ladi, uni anglaydi va o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanadi. Binobarin, publitsistika insoniyatning muhim ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ijodiy quroli, yashash vositasi hisoblanadi. Har tomonlama taraqqiyotga erishilgan hozirgi davrga kelib matbuotning, publitsistikaning o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Zamonaviy publitsistika jamiyat hayotida alohida o‘ringa ega va nafaqat intellektual, balki estetik ehtiyojlarni qondirishga ham intiladi. Publitsistik asar OAV orqali tarqaladigan maxsus axboriy mahsulot bo‘lib, barqaror xususiyatlarga ega. Qoidaga ko‘ra, zamonaviy publitsistik asarlar hayotda ro‘y bergan voqea-hodisalar va faktlarni sintez qilishga asoslangan dolzarb, keng ko‘lamli muammolarni tahlil qilish, tarixiy dalillar va to‘plangan nazariy fikrlarga diqqatni tortish, shuningdek, alohida shaxslarning tajribalari tahlili asosiga qurilgan.

Publitsistikani tadqiq etishda uni tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish tajribasi mavjud. Professor M.Xudoyqulov publitsistika ijtimoiy hayot haqida xabar berishi,

uni tahlil qilishi va shu bilan birga, jonli, ta’sirchan tasvirlashi lozimligini uqtirib, uni uchta tarkibiy qismga bo‘ladi: “Bular axboriy, tahliliy va badiiy publitsistika. Publitsistikaning bu qismlari o‘zlariga xos janrlarga egadir” [5].

Publitsistik uslub bir vaqtning o‘zida bir necha vazifani bajaradi. Birinchidan, ushbu uslubda yozilgan matnlar o‘quvchi (tomoshabin, tinglovchi)ga xabar yetkazish uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan, matn muallifi sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabatini bildiradi va tinglovchilarni o‘ziga jalb qilish, ularga ta’sir ko‘rsatishga intiladi. Uchinchidan, publitsistik asarlar g‘oyaviy targ‘ibot-tashviqotning kuchli vositalari hisoblanadi.

Uslubning asosiy xususiyatlari tabiiy ravishda publitsistik matnlarda amalaga oshirilgan vazifalardan yuzaga keladi. O‘quvchilarni imkon qadar tez va oson xabardor qilish ommaviy axborot vositalarida – gazeta, jurnallarda, televideniye va radioda, internet-ommaviy axborot vositalarida amalga oshiriladi. Ushbu vositalardagi matnlar aniqlik, izchillik, standartlashgani bilan ajralib turadi [2].

Publitsistik uslub bir vaqtning o‘zida konservativ va moslashuvchan bo‘ladi. Bir tomondan, publitsistik nutqda qoliplar, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohaga oid terminlar yetarli darajada mavjud. Boshqa tomondan, o‘quvchilarni ishontirishga intilish, ularga ta’sir o‘tkazish uchun tilning barcha yangi vositalari qamrab olinadi. Shu maqsadga erishish uchun badiiy va so‘zlashuv nutqining jamiki boyliklaridan foydalaniladi.

Publitsistika kuchli qurol, u hatto o‘rtamiyona xabarni ham salmoqli maqolaga aylantira oladi. Jurnalistning saviyasi publitsistik maqolaning qanday chiqqanida ko‘rinadi. Publitsistika notiq, tanqidchi, yozuvchi va jurnalist ijodiy faoliyatida turli shakllarda namoyon bo‘ladi. Haqiqat publitsist nazari qaratilgan nishon. Publitsist bitta fakt bilan ish ko‘rmaydi, balki uni har tomonlama o‘rganadi. Uning teran nigohi tarixdan xulosa chiqarib, bugun va kelajak haqida yozishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бахтин М.М. Из записей 1970–1971 годов // Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества / Сост. С.Г. Бочарова; Текст подгот. Г.С. Бернштейн и Л.В. Дерюгина; Примеч. С.С. Аверинцева и С.Г. Бочарова. – М.: Искусство, 1979. 345 с.
2. Бессарабова Н. Д. Метафора и образность газетно-публицистической речи // Поэтика публицистики. – М.: МГУ, 1990. С. 57.
3. Назира Қурбон. Таҳлилий журналистика. – Т.: Bayoz, 2019. Б. 22.
4. Черепахов М.С. Проблемы теории публицистики. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: Мысль, 1973. 267 с.
5. Худойқулов М. Журналистика ва публицистика. – Т.: Тафаккур, 2010. 226-б.

WAYS TO MOTIVATE STUDENTS TO ACQUIRE PROFESSIONAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE LEARNING

TALABALARNI CHET TILINI O‘RGANISHDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENTSIYANI EGALLASHGA UNDASH YO‘LLARI

ПУТИ СТИМУЛИРОВАНИЯ СТУДЕНТОВ К ПРИОБРЕТЕНИЮ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА



DAMINJANOV Sobirjon Muhammadjonovich,
Namangan State University is the head of the department of the practical English language course.
DAMINJANOV Sobirjon Muhammadjonovich,
Namangan davlat universiteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi mudiri.
Mr. Собирджон ДАМИНДЖАНОВ,
заведующий кафедрой практического курса английского языка Наманганского государственного университета.

Based on the analysis of the integrity of communication and activity, it is possible to identify the process of modeling biological professional communicative activity in a foreign language as a form of educational activity of the subjects.

In studying the process of forming professional communicative competence in a foreign language, we rely on L.S.Vygotsky's concept that understanding a language, and especially a foreign language, is a complex communicative activity that is inextricably linked with thought mechanisms [6:17].

The concepts of communication and communication. Research in social science and scientific communication has been conducted in the field of modern science. There are also formal and informal, verbal and written, interpersonal and impersonal, planned and spontaneous communication.

Depending on the functionality of the information transmitted from the communicator can be of two types: persuasive and descriptive.

Many types of nonverbal sign systems have been explained and studied in science.

The most important factor is the interaction of the information and the purpose of the audience.

U.S. scientists distinguish the following functions of information: information, command, instructive, integral, influential, and persuasive. A.A.Leontev's sources mention functions such as management, information, emotion, and communication [5:44].

A.A.Leontev emphasizes the communicative function in the field of communication. According to him, this is a function of regulating behavior. In speech activity, this function occurs in one of three variants: [7:214]

a) individual control function; b) collective management function;

c) self-management function. The communication process and communicative acts differ.

The main function of the communication process is to achieve social cohesion while maintaining the uniqueness of each element. Certain communicative acts have management, information, emotional, and communication functions.

These functions are conditionally divided into:

1) persuasive messages - persuasion, suggestion, order, request;

2) message information - the transmission of real or fictitious information;

3) meaningful messages - inviting emotional experiences;

4) Important messages - establish and maintain communication.

In addition, communication processes and communicative acts can be classified according to other aspects. They are divided into interpersonal, public and public communication, depending on the type of relationship between the participants.

Based on the above information, the information basis of communicative activity can be considered as a way of organizing communicative activity in a foreign language during the reception, processing and dissemination of information. This rule can also be applied to professional biological communication.

We believe that understanding the theoretical foundations of professional communication, the role and importance of information diversity in professional activities, will enable biologists to increase the quality and effectiveness of rational, emotional and wishful thinking in student communication. At the same time, it has a positive effect on the acquisition of knowledge, skills and abilities, as well as on the rules of etiquette and style of communication in the biological profession.

Thus, the information base of the formation of communication competence in a foreign language can include.[2:112]

- Historical approach to the emergence of new media: the invention of language, writing, printing, electronic media, computers and microprocessors;

- Organizational and managerial approach to the processing and transmission of biological professional information in a foreign language;

- The influence of various foreign biological media on the intellectual, motivational and practical activities of the future biologist;

- assessment of communicative acts on the basis of the direction of the message to the subject of communication, its content, means of transmission of information (code), the activity of the communication channel, the effectiveness of communication;

- Scientific analysis of the laws of the processes of transmission, distribution, processing and modification of data from a philosophical point of view.

The demand for professional biological information in a foreign language in the educational process is an indicator of the activity of the professional biological communication process;

- Approach to communication in a foreign language from the point of view of the information phenomenon related to communication and interaction of subjects.

Students' motivation is enhanced by the theory and practice of foreign language teaching in higher educational institutions, biological professional communication in a foreign language - the study of information about the specialty, the ethics of communication with colleagues and others.

Motivation is a form of human need. For this reason, motivation is a means of motivating a person's cognitive activity and behavior. Need that is, the motive, is the main driving force in the formation of the student's professional communicative competence.

Motivation in learning comes directly from the inner motivation. Interest in a subject arises through the acquisition of information on a subject according to the type of mental activity or the subject's ability, or through indirect motives arising from the field of activity. The student's learning process is a cognitive activity that is a unique combination of information processes and motivation. The reliance on information retrieval and processing is indicative of research process orientation and selectivity. Sustainable motivation is achieved through educational exercises.

It should be noted that the change in motivation in the organization of the educational process can lead to the emergence of new ones or the loss of existing motivations.

There are different approaches to understanding foreign language learning, attitude and motivation.

Attitude is a strong belief in a foreign language that encompasses features that encourage thinking about an object or situation. Because attitudes toward learning a foreign language are partly stable, it must be changed for the better, and it can be learned, but it cannot be taught. If a different set of beliefs represents a relationship, the motive is the reason that makes it happen. “Motive” arises as a result of human activity and is therefore realized. [1:4]

Gardner argues that attitudes and motivations are important aspects of human behavior that enhance, guide, and learn a foreign language. [3:117]

Any form of activity is caused by internal and external factors. The first is motive, need, purpose, intention, desire, and interest. The second case explains the emergence of the stimulus based on the current situation.

Even in the activity itself, you can find parts that match the elements of motivation. Our research has shown that conscious learning of a foreign language and modeling of the professional environment raise motivation to a higher level in higher educational institutions.

The psychology of consciousness, the transition of motives to goals, the emergence of motives for independent learning have a great influence on the study of foreign languages.[4;3]

The goal can be set by the teacher or the students. It can be seen that the initial stimulus has an internal and external character (environment, individual thinking). In addition, motivation is not seen as an incentive or a goal, but as a motivating factor in solving a problem. Cognitivism is a lifelong, that is, formed inner motivation or personality trait that is very difficult to change due to external influences. Therefore, the effectiveness of the process depends on the inner desire of the student.

The results of the study show that the motivation to learn a foreign language in higher education is influenced by factors such as uncertainty, interest, success, causal

attributes, practical testing of what they learned, targeted learning of a foreign language focused on specialization confirmed.

In this sense, H. Gardner focuses on the fact that exogenous and endogenous closed factors of attitude have a direct impact on motivation in foreign language learning[3:24]. It sees need and ability as endogenous closed factors as important elements of success and suggests the use of a social education model to motivate language learning. The following factors increase the internal motivation in the cognitive activity of higher education students:

1. Development of courses aimed at the future specialization of students and differentiated according to the level of difficulty, focusing on the formation of professional qualities;
2. Teacher characteristics, curriculum, pedagogical processes;
3. Students feel like qualified professionals, i.e. positive feedback;
4. Facilitate the free choice of factors that have a positive effect on internal motivation.

The following conclusions were drawn from the study of the factors and conditions of internal motives influencing learning activities. Situations that create a free environment for students to work independently, inspire them with a sense of satisfaction such as being able to “perform” through professional games, and support their competence and self-confidence increase their inner motivation. In addition, the focus should be on the speech situations in the classroom and the factors that contribute to them. Putting pressure on students, keeping them in control, exposing their learning disabilities without clear and sufficient information, destroys internal motivation.

Activation of foreign language teaching in higher education institutions is an important task, as the existing foreign language teaching system may not give the expected results when implemented quickly.

List of used literature:

1. S.M.Daminjanov. “Formation of professional communicative competence of biological students in a foreign language”. European Scholar Journal (ESJ Vol. 4 No.12, December 2023 ISSN: 2660-5562
2. Digisi, L.L. 1993. “Textbook Use in the Biology Classroom: What Teachers Report.” PhD diss, Harvard University.
3. Gardner R.C. Correlation, causation, motivation, and second language acquisition. Canadian Psychology, 2000.–24 p
4. S.M.Daminjanov. “Integrating information technology in the formation of professional communicative competence”. European journal of education and applied psychology №1 (2024)
5. Smith A.N., The importance of attitude in foreign language learning. Modern language journal, vol 55(2), 1971. 83–88
6. Vygotsky, L.S. (1987). Thinking and speech (N. Minick, Trans.). New York: Plenum.
7. Леонтьев А.А. Язык, речь, речевая деятельность. – М.: Просвещение, 1969.–214 с.

HARBIY PEDOGOGIKA VA HARBIY PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASH MASALALARI

ВОПРОСЫ ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ВОЕННО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ

ISSUES OF MILITARY PEDAGOGICAL AND MILITARY PEDAGOGICAL PERSONNEL TRAINING



TAVAKALOV Alisher Akbaralievich,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Harbiy ta’lim fakulteti katta o‘qituvchisi, dotsent.

ТАВАКАЛОВ Алишер Акбаралиевич,
старший преподаватель факультета военного образования Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, доцент.

Mr. TAVAKALOV Alisher,
Tashkent State Pedagogical University named after Nizomi,
Senior Lecturer, Faculty of Military Education, Associate Professor.

Anotatsiya: Zamonaviy innovatsion usullardan foydalanish, ularni o’zlashtirish, o’quv tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish masalalari, mamlakat va hayotida harbiy pedogogikaning ahamiyati.
Kalit so’zlar: Harbiy ta’lim va fanda innovatsiya, didaktik talimot, jangovar tayyorgarlik.

Аннотация: Использование современных инновационных методов, их освоение, вопросы дальнейшего совершенствования образовательного процесса, значение военной педагогики в стране и жизни.
Ключевые слова: инновации в военном образовании и науке, дидактическое обучение, боевая подготовка.

Annotation: The use of modern innovative methods, their mastery, issues of further improvement of the educational process, the importance of military pedagogy in the country and life.
Key words: innovation in military education and science, didactic instruction, combat training.

Hozirgi kunda - Harbiy pedagogika, pedagogika fanining alohida tarmog‘i sifatida boshqa fanlar bilan hamkorlikda taraqqiy etayotgani barchamizga ma’lum. Harbiy pedagogika harbiy jamoalarga ularda doimiy yuksak jangovar tayyorgarlikka ega bo‘lishlari, tinchlik davrida va urush sharoitida o‘z harbiy burchini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun yuksak ma‘naviy, siyosiy va jangovar xislatlarni, jangovar mahoratni shakllantirish, aqliy va jismoniy kuchlarini rivojlantirish, ma‘naviy-ruhiy tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandir.

Harbiy pedagogikaning ob‘ekti shaxsiy tarkibni o‘z xizmat va jangovar vazifalarini bajarishga tayyorlash jarayonidan iborat; uning predmeti (mazmuni) sifatida askarlarning jangovar va ma‘naviy-ma‘rifiy tayyorgarligi jarayonining pedagogik qonuniyatlari xizmat qiladi.

Harbiy pedagogikaning asosiy tushunchalari quyidagilardan iborat: Tarbiya-ilmiy dunyoqarash, ma‘naviy-ma‘rifiy tushunchalar, axloqiy munosabatlar, jangovar va kasbiy xislatlar, borliqqa estetik munosabat, jismoniy va ruhiy kuchini rivojlantirish maqsadida askarning ongi, ruhiyati, irodasiga maqsadli, belgilangan tizim asosida pedagogik ta‘sir ko‘rsatishdir. Ta‘limda maxsus tayyorlangan kishilar rahbarligida askarlarni xizmat va jangovar vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalar bilan maqsadli va belgilangan tizim asosida qurollantirish jarayonidir. Ta‘lim-tarbiya natijasida egallangan va tizimga solingan bilim, hosil qilingan ko‘nikma va malakalar hamda shakllangan dunyoqarashlar majmuidir.

Ruhiy tayyorgarlik, harbiy burchini bajarish, turli sharoitlarda qo‘yilgan vazifalarni ado etish uchun askarning doimiy ichki tayyorligi va yuksak hissiy-irodaviy turg‘unligini ta‘minlash bo‘yicha maqsadli ravishda unda ruhiy xislatlarni shakllantirish jarayonidir.

Mustaqil tarbiya-askarning ijtimoiy va xizmat burchini muvaffaqiyatli ado etishi uchun zarur bo‘lgan xislatlarni o‘zida shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha maqsadli ongli faoliyatidir. Mustaqil ta‘lim-askarning bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash, chuqurlashtirish va takomillashtirish bo‘yicha maqsadli mustaqil ishidir. Bilim-borliq, voqea va hodisalarning, ularning aloqa va munosabatlarining inson ongida namoyon bo‗lishidir.

Ko‘nikma-ish-harakatlarning puxta egallanganligi, avtomatlashgan tarzda bajarilishidir. Malaka askarning o‘z vazifalarini bajarishga tayyorlik darajasini ko‘rsatadi hamda bilim va ko‘nikmalaridan samarali foydalanishda, ularni yangi va murakkab sharoitlarda to‘g‘ri va muvaffaqiyatli qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi.

Hozirgi kunga kelib askarlar va harbiy jamoalarni tayyorlash, harbiyqismlar va bo‗linmalarning jangovar tayyorgarligini oshirishda ofitserlarning, komandir va tarbiyachilarning harbiy-pedagogik bilimlari darajasiga qo‘yilayotgan talablar tobora oshib bormoqda. Shu bilan birga harbiy pedagogikaning vazifalari doirasi ham kengayib bormoqda.

Harbiy pedagogikaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- harbiy-pedagogik jarayonning mohiyati, xususiyatlari va qonuniyatlarini va uning tarkibiy qismlari bo‘lmish ta‘lim, tarbiya, ruhiy tayyorgarlik, rivojlanish, mustaqil tarbiya, mustaqil ta‘lim olish jarayonlarini o‘rganish;

- jamiyatda va Qurolli Kuchlarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar asosida, shuningdek jangovar texnika va qurol-yarog‘ning takomillashuvi, jangni olib borish usullari, shaxsiy tarkibdagi miqdor va sifat o‘zgarishlari, jangovar tayyorgarlikni kuchaytirish vazifalaridan kelib chiqib ta‘lim va tarbiya prinsiplarini aniqlash, shakllari va metodlari rivojlantirib, takomillashtirib borish;

- turli toifadagi harbiy xizmatchilar bilan turli sharoitlarda ta‘lim-tarbiya jarayonini amalga oshirishda ta‘lim va tarbiya prinsiplari talablarini muvaffaqiyatli amalga oshirish sharoitlarini aniqlash va asoslash;

- qo‘shin turlarining, turli ixtisoslikdagi harbiy mutaxassislarni tayyorlashning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib ta‘lim va tarbiya metodlari tizimini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

- ta‘lim-tarbiya ishlarini tashkil etish shakllarini takomillashtirish va rivojlantirish, askarlar va harbiy jamoalar ta‘limi va tarbiyasi darajasini aniqlash, tekshirish va baholashning samarali yo‗llarini tadqiq qilish;

- harbiy-pedagogik jarayonning rivojini bashorat qilish rejalashtirish;

- didaktik tadqiqotlarning markaziy muammosi sifatida askarlar bilish faoliyatini faollashtirish, alohida olingan askarlar va harbiy jamoalarning yuksak harbiy-professional tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lish vaqtini qisqartirish yo‘llarini, usullarini va vositalarini izlash va ularni qo‘llash;

- harbiy jamoalarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va ta‘lim-tarbiya jarayonida ularnihisobga olish;

- jangovar tayyorgarlik va harbiy intizomni, askarlarning ma‘naviy-ma‘rifiy faolligini oshirish, ma‘naviy-axloqiy kamolotga erishish yo‘llarini o‘rganish;

- harbiy xizmatchilar va harbiy jamoalar o‘rtasida musobaqa tashkil etishning pedagogik shartlarini aniqlash;

- jamoani jipslashtirish, unda nizom talablariga xos o‘zaro munosabatlarni, sog‘lom ruhiy muhit va ijtimoiy fikrni shakllantirish metodlarini o‘rganish va boshqalar.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning rahbarlik, o‘qituvchilik va ustozlik faoliyatidan kelib chiqib, harbiy pedagogika uchun quyidagi vazifalar ham muhim o‘rin egallaydi:

- harbiy-pedagogik jarayonda ularning o‘rnini aniqlash;

- ularda pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llarini, mazmuni va uslublarini ko‘rsatish;

- hurmat qozonish yo‘llari va mohiyatini ochib berish;

- ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, harbiy-pedagogik tadqiqotlar olib borish uslublarini ishlab chiqish.

Harbiy xizmat davomida o‘z bo‘ysunuvchilarini Vatanimizning munosib himoyachisi qilib tarbiyalashda ofitserlar zimmasiga juda katta mas‘uliyat yuklatiladi. U o‘z bo‘ysunuvchilariga nafaqat harbiy fanlar bo‘yicha saboq beradi, malakali harbiy mutaxassis darajasiga ko‘taradi, balki ularni inson sifatida yanada kamol topishiga o‘z hissasini qo‘shadi. Shu sababli ofitserlardan o‘zining harbiy mutaxassisligidan chuqur bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi bilan birga, pedagogika, psixologiya, falsafa va boshqa ijtimoiy fanlardan ham har taraflama bilimga, tushunchaga hamda keng dunyoqarashga ega bo‘lishi talab etiladi. Harbiy pedagogika fani yakka holda mukammallikka erisha olmaydi. U fan sifatida o‘zi rivojlanishi bilan birga boshqa fanlar yutuqlaridan ham foydalanadi va mazmunan boyib boradi.

Hozirgi kunda umumbashariyat tomonidan yaratilgan bilimlar va kelajak haqida ma‘lumot beruvchi nazariyalar muayyan darajada harbiy pedagogika fani uchun

manba bo‘ladi. Boshqa fanlar kabi harbiy pedagogika ham har bir insonning, shu jumladan harbiy xizmatchi shaxsining ijtimoiy kamolotiga xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatning rivojlanish qoidalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga asoslanadi va o‘zi ham ijtimoiy fan sifatida rivojlanib boradi. Shu nuqati nazardan harbiy pedagogika fani bilan quyidagi fanlar o‘rtasida uzviy aloqadorlik mavjud:

1. Falsafa – shaxs, jumladan harbiy xizmatchi shaxsi rivojlanishi jarayonining dialektik xususiyatlari, muayyan pedagogik g‘oya, qarash hamda ta‘limotlarning falsafiy jihatlari kabi masalalarni tahlil etishga imkon beradi.

2. Tarix – xalqimiz tarixi, buyuk mutafakkirlari, olimlari, sarkardalarining hayoti va jasoratlari misolida harbiy xizmatchilarni tarbiyalash, shuningdek pedagogika fani taraqqiyoti, ta‘lim-tarbiya jarayonlarining xususiyatlarini inobatga olish, xalq pedagogikasi g‘oyalaridan bo‘ysunuvchilarni tarbiyalash jarayonida unumli foydalanishga yordam beradi.

3. Sostiologiya – ijtimoiy munosabatlar mazmuni, ularni tashkil etish shartlari xususida ma‘lumotlarga ega bo‘lish asosida ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini samarali tashkil etish uchun imkoniyat yaratadi.

4. Etika – shaxs ma‘naviyatini shakllantirish, unda eng oliy insoniy sifatlar, axloqiy ong, ma‘naviy-axloqiy va kasbiy madaniyatni tarbiyalashda muhim o‘rin tutuvchi nazariy g‘oyalarni harbiy pedagogik jarayonga tatbiq etishda alohida o‘rin tutadi.

5. Estetika – shaxs tomonidan go‘zallikning his etilishi, unga intilishi, shuningdek, unda estetik didni tarbiyalashda muhim yo‘nalishlarni aniqlashga xizmat qiladi.

6. Iqtisod – mamlakat mudofaasini ta‘minlash maqsadida Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-yarog‘ va texnika bilan ta‘minlash, harbiy mutaxassislarni tayyorlash, harbiy ta‘lim muassasalarining faoliyatini yo‘lga qo‘yish, o‘quv binolarini qurish, ta‘lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ularning moddiy-texnika va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash kabi masalalarning iqtisodiy jihatlarini anglashga xizmat qiladi.

7. Fiziologiya – ta‘lim-tarbiya jarayonida harbiy xizmatchilarning fiziologik, anatomik xususiyatlarini inobatga olinishi uchun boshlang‘ich asoslarni beradi.

8. Tibbiyot – harbiy xizmatchilarning salomatligini va hayotini muhofaza qilish, harbiy xizmatning inson hayoti uchun havfsiz sharoitlarini yaratish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar asoslarini shakllantiradi.

9. Psixologiya – harbiy xizmatchi shaxsida ma‘naviy-axloqiy, ruhiy-intellektual, hissiy-irodaviy sifatlarni tarkib toptirish, ularni mamlakatni qurolli himoya qilish, turli jangovar sharoitlarda aniq va tezkor harakat qilishga o‘rgatish uchun ruhiy tayyorlashga imkon beradi.

10. Maxsus harbiy fanlar – harbiy mutaxassislarni tayyorlash, ularga ta‘lim berish, ko‘nikma, malakalarini shakllantirish va rivojlantirish hamda kasbiy mahoratlarini oshirishni ilmiy, pedagogik va metodik jihatdan ta‘minlaydi.

Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish samaradorligining asosiy omillaridan biri qo‘shimcha ta’lim bo‘limi faoliyatini monitoring qilish hisoblanadi, chunki o‘quv jarayonining to‘g‘ri ishlashi va rivojlanishi, qo‘shimcha ta’lim bo‘limining yuqori sifatli kadrlar tayyorlashga erishish monitoringi bilan ta’minlanadi.

Ta'lim faoliyatini monitoring qilish samarali ta'limning kalitidir, chunki u ta'lim sifatini xolis baholashni va o'quv jarayonini o'zgartirish bo'yicha o'z vaqtida qaror qabul qilish qobiliyatini ta'minlaydi

Malaka oshirish va qayta tayorlash - bu kasbiy muammolarni hal qilishning yangi, zamonaviy usullarini o'zlashtirish va malaka oshirish bilan bog'lash uchun zarur bo'lgan rasmiy va norasmiy tayyorgarlik shaklida mutaxassislarning nazariy va amaliy bilimlarini yangilash.

Malaka oshirish - robotning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan mutaxassislik bo'yicha keyingi o'qitish.

Malaka oshirish va qayta tayorlashning maqsadlari: kasbiy mahorat va madaniyatni rivojlantirish, nazariy va amaliy bilimlarni malaka darajalari uchun zamonaviy talablarga muvofiq yangilash, davlat ta'lim standartlari talablarini o'zgartirish, kasbiy muammolarni hal qilishning innovatsion usullarini o'zlashtirish zarurati.

Xulosa. Oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish samaradorligining asosiy omillaridan jarayonida ta’lim subektlarining ichki va tashqi hamkorlikdagi o‘zaro faoliyatlarini amalga oshirish, pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida kasbga tayyorlashdan iboratdir.

Bayon qilingan, tavsiflangan tashqi va ichki jihatlarini ta’minlash texnologik asos sifatida qaraladi. Shunday qilib, pedagoglarni ijtimoiy hamkorlik asosida tayyorlash ijtimoiy buyurtmani amalga oshirishning sharti, ya’ni ta’lim sohasining professionalining bilimlar, malakalar va ko‘nikmalari majmuining yuqori sifatini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonuni: www.lex.uz.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son Qarori:www.lex.uz.

4. Pedagogika. (Ma’ruzalar matni. Prof. N.Gaybullayev taxriri ostida). T. Universitet—. 1999.

5. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” - T, 1997.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ – ҲУДУДЛАР БЮДЖЕТ РЕСУРСЛАРИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШ КАДРЛАРИНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ДОЛЗАРБ ЙЎНАЛИШИ СИФАТИДА

ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА - КАК АКТУАЛЬНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ ДЛЯ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ РЕСУРСАМИ РЕГИОНАЛЬНОГО БЮДЖЕТА

DIGITAL ECONOMY - AS A CURRENT AREA OF PERSONNEL TRAINING FOR EFFECTIVE MANAGEMENT OF REGIONAL BUDGET RESOURCES

ЮЛДАШЕВ Адҳамжон,
Наманган муҳандислик-технология институти
“Иқтисодиёт” кафедраси катта ўқитувчиси.

ЮЛДАШЕВ Адхамжон,
Наманганский инженерно-технологический институт
Старший преподаватель кафедры “Экономика”.

Mr. Adhamzhon YULDASHEV,
Namangan Institute of Engineering and Technology
Senior Lecturer at the Department of Economics.

Кириш

Бугунги кунда жаҳонда кузатилаётган янги саноат ва технологик инқилобнинг суръатлари миллий иқтисодиёт тузилмаларини сезиларли даражада қайта ташкил этиш зарурияти ошириб бормоқда, бу ўз навбатида меҳнат бозорига таъсир кўрсатиб, унинг туб ўзгаришига олиб келмоқда. Моддий ресурслар ва рақобатбардош имкониятларнинг глобал қайта тақсимланиши, илғор инновациялар, янги ғоялар ва технологияларнинг пайдо бўлиши - буларнинг барчаси меҳнат бозорида ҳам, ижтимоий ва меҳнат муносабатларининг бутун жараёнида ўз изини қолдирмоқда. Бу ўзгаришларда жадал ривожланиб, ҳаёт ва ишлаб чиқаришнинг барча жабҳаларига кириб келаётган, меҳнат бозори ва меҳнат муносабатларини ўзгартирувчи рақамли технологиялар алоҳида ўрин тутади.

Мамлакатимизда “Рақамли Ўзбекистон — 2030” стратегиясига мувофиқ иқтисодиёт тармоқлари ва ҳудудларини рақамлаштириш, давлат ахборот тизимлари ва электрон хизматларни жорий этиш, шунингдек, рақамли технологиялардан кенг фойдаланишни таъминлаш бўйича халқ таълими, давлат хизматлари, суд, молия ва банк тизимида комплекс чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Бироқ, рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини самарали рейтинг баҳолаш тизими ҳамда уни амалга оширишнинг идоралараро механизмининг йўқлиги иқтисодиёт тармоқлари ва

ҳудудларни рақамли трансформацияси ҳозирги ҳолатини чуқур таҳлил қилишга тўсқинлик қилмоқда.[1]

Шунингдек, бу жараёнда таъсир этувчи асосий муаммолардан бири соҳадаги рақамли технологияларда ишлай олиш тажрибасига эга бўлган кадрлар етишмовчилиги масаласидир. Демак, соҳаларда рақамли технологияларда самарали ишлай олиш билим, кўникма ва малакасига эга бўлган кадрларни тайёрлаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири бу ҳисобланади.

Асосий қисм

Рақамлаштириш - бу меҳнат муносабатларининг табиатига, уларнинг янада мослашувчанлигига, фуқаролик-ҳуқуқий муносабатларга ўхшашлигига ва минтақалардаги бандлик ҳолатига бевосита таъсир кўрсатадиган замонавий тенденциялардан биридир. Иқтисодий ривожланишнинг “Иқтисодиёт 3.0”дан “Иқтисодиёт 4.0”га босқичма-босқич ўтиши “рақамли иқтисодиёт” деб номланувчи замонавий иқтисодиёт фани ва қонунчилигида меҳнат бозори ва меҳнат муносабатларига таъсир кўрсатмай қолмайди.

Ўз соҳаларида етакчиликка эришиш ва ҳатто илгари қўлга киритилган ўринларни сақлаб қолиш учун иш берувчилар давом этаётган рақамли трансформациянинг асосини ташкил этувчи бошқа кўплаб рақамли технологиялар – нейротехнологиялар, сунъий интеллект, блокчейн, квант технологиялари, саноат интернети, робототехника, симсиз алоқа технологиялари, виртуал ва кенгайтирилган технологиялардан тобора кўпроқ фойдаланишга мажбур бўлиши айни ҳақиқатдир.[2]

Саноат иқтисодиётидан рақамли иқтисодиётга ўтиш меҳнат муносабатларининг нафақат миқдорий, балки сифат хусусиятини ҳам муқаррар равишда ўзгартиради. Меҳнат ва бандликка энг катта таъсир кўрсатадиган ва ҳар бири рақамли технологияларнинг тарқалиши билан боғлиқ бўлган трансформациянинг асосий векторларидан биз қуйидагиларни ажратиб кўрсатишимиз мумкин – автоматлаштириш инсон меҳнатини машина меҳнати билан алмаштириш сифатида; рақамлаштириш - жисмоний объектлар ва ҳужжатларни рақамлига айлантириш ва аксинча; рақамли платформалардан иқтисодий операцияларни алгоритмик ташкил этиш учун воситачи сифатида фойдаланиш.

Рақамли трансформациянинг аниқ афзалликлари ҳамма учун жозибалидир. Шу сабабли ҳам рақамли иқтисодиёт юқори технологияли компаниялар тармоғи билан чекланмайди, улар учун "рақам" у ишлаб чиқариш объекти, воситаси ва маҳсулотидир. Давлат ҳам бу жараёндан четда тура олмайди.

Рақамлаштиришда қуйидаги институтлар фаолияти муҳим аҳамиятга эга:


- марказлаштирилган бюджет ҳисоби ва ҳисоботи институтлари, унга алоҳида давлат ижроия органларнинг бюджет ҳисобини юритиш ва бюджет ҳисобини юритиш ва бюджет ҳисоботини шакллантириш, ҳисоб-китоблар ва иш ҳақи, бошқа тўловлар ва бюджет тизими бюджетларига тегишли мажбурий

тўловлар ваколатларини топширилади;

- давлат бошқаруви соҳасидаги аутсорсинг институти, унинг доирасида давлат муассасалари хўжалик фаолиятини қўллаб-қувватлаш алоҳида ташкилотга ўтказилади, ушбу субъект ноодатий ресурс функцияларини бажаришдан озод қилади, фаолият самарадорлигини оширади. алоҳида давлат ҳокимияти органи (кейинчалик бу органлар тизими) ва бюджет харажатлари самарадорлигини оширишга олиб келади;
- давлат томонидан кўрсатиладиган хизматлар сифатини бевосита оширишга йўналтирилган муассасалар.

Шу нуқтаи назардан, бир томондан, рақамли технологияларда иқтисодиётнинг муҳим инфраструктураларини ривожлантиришнинг асосий тенденцияларида бюджет норматив-ҳуқуқий муносабатларини “рақамлаштириш”нинг барқарор амалиёти шаклланган бўлади, иккинчи томондан, “рақамлаштирилган” бюджет муносабатлари ижтимоий институтлар, тартибга солувчилар ва бошқаларнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши учун туртки беради.

Содда қилиб айтганда, “рақамли” бюджет – бу турли рақамли (ахборот, электрон) технологиялар ёрдамида шакллантириладиган ва ижро этиладиган бюджетдир. Ҳозирги вақтда янги рақамли технологиялар ва тизимлар бюджет жараёнига фаол киритилиб, мавжудлари такомиллаштирилмоқда. Бюджет жараёнига унчалик фаол бўлмаган, аммо шунга қарамай бошқа соҳаларда унумли қўлланилаётган илғор рақамли технологияларни жорий этиш истиқболлари ҳам мавжуд.




1-расм. Рақамли бюджет жараёнининг механизми

Рақамли бюджетга ўтишнинг асосий натижаси бюджетни шакллантириш, амалга ошириш ва назорат қилишни ташкил этишдаги ўзгаришлар бўлади ва рақамли бюджет жараёни механизмида намоён бўлади.

Рақамли механизмни ахборот билан таъминлашнинг якуний элементи бюджет жараёни маълумотларни ҳимоя қилиш технологиялари ҳисобланади. Глобал тараққиёт доимий равишда фойдаланиш билан боғлиқ ҳолда ахборот хавфсизлигини таъминлашдир, чунки ривожланаётган бузғунчи рақамли технологиялар хавфи кучаймоқда. Ушбу тенденция кибер ҳужумлардан ҳимояланишга бюджет харажатларининг ошиши кузатилади. Бу аҳолига бюджет хизматларини кўрсатиш ва ижтимоий кескинликнинг ўсишини бартараф этиб бориш учун аҳамиятлидир.

Рақамли бюджетни шакллантириш ва ижро этиш жараёнини самарали олиб борилиши учун соҳада кадрлар тайёрлаш тизимини ташкил этилиши зарур. Кадрлар малакасини ошириш норматив ҳужжатлар билан ишлашда ва амалиётда рақамли технологияларни қўллаш, шунингдек, ўз ишининг мазмун моҳиятини чуқур тушуниш, ишнинг масъулияти, тамойиллари ва мақсадлари, яъни касбий маҳоратни мудом ривожлантиришга ёрдам беради.

Маҳаллий бюджетларнинг молиявий барқарорлигини таъминлашда марказлашмаган асосда маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг молиявий ресурсларини шакллантириш, ҳудуднинг иқтисодий салоҳиятидан оқилона фойдаланишнинг рағбатлантириш йўллари очилди. Бизнинг фикримизча, маҳаллий бюджетлар даромадлари барқарорлигини таъминлаш ва маҳаллий бюджетлар харажатлари самарадорлигига эришишда, биринчи навбатда, ҳудудларнинг иқтисодий салоҳиятини ошириш ва солиққа тортиш манбаларини кўпайтириш чора-тадбирларини амалга ошириш бугунги кунда муҳим аҳамият касб этади. Бу бевосита ҳудуднинг прогноз кўрсаткичларини шакллантиришда алоҳида рол ўйнайди. Жумладан буни Наманган вилояти даромадининг прогноз кўрсаткичларининг ўзгариш динамикасида ҳам кўришимиз мумкин.



2-расм. Наманган вилояти даромадининг прогноз кўрсаткичлари

Прогноз кўрсаткичлардан маълумки, вилоят даромади 2,6 трил.сўмга яқин бўлиб, кейинги йилларда бу пасайиш тенденциясида бўлади. Демак, бунда ҳам даромадни ошириш чора-тадбирларини ишлаб чиқишда салоҳиятли кадрларга

эҳтиёж ошиб бориб, маҳаллий бюджет даромадларини шакллантиришнинг ички захиралари ҳудудларда ишлаб чиқаришни ривожлантириш, иқтисодий ислоҳотларни жойларда муваффақиятли амалга ошириш билан чамбарчас боғлиқ бўлиб қолади.

Рақамли иқтисодиёт аниқ афзалликларга эга бўлишига қарамай, унинг муҳим камчиликлари ҳам мавжуд бўлиб, қуйидагиларда кўриш мумкин:

- бенефициар (компанияга камида 25 фоиз эгалик қилувчи ёки унинг фаолиятини жиддий назорат қилувчи жисмоний шахс)[1]ларнинг чекланган доираси;
- рақамли технологиялар бозорида рақобатнинг секин ривожланиши;
- одамларнинг маълумотларини қабул қилиш ҳамда етказиб бериш қобиятларини пасайиб бориши. Ҳар қандай турдаги қулай ва жозибали хизматларнинг кўплиги одамларнинг катта ҳажмдаги маълумотларни эслаб қолиш ва таҳлил қилиш, хулосалар чиқариш ва натижаларини шакллантириш қобилиятига салбий таъсир қилади, ёзма шаклда олиб бориладиган таҳлил, ҳажмли мураккаб матнларни ўқиш ва тушуниш таффакур этиш ҳиссиётининг сустлашиши;
- фойдаланиш билан боғлиқ маълумотлар ва ҳуқуқларнинг заифлиги ва етарли даражада ҳимояланмаганлиги сабабли бузғунчи рақамли технологияларнинг узлуксиз ривожланиши, ўсиб бораётган кибер ҳужумлар натижасида ундан азият чекувчилар сонининг ортиб бориши;
- кадрларни қайта тайёрлаш жараёни тегишли дастурий таъминот ва замонавий техник воситаларга эга ускуналар мавжудлигини талаб қилганлиги сабабли, кадрлар тайёрлаш учун қўшимча маблағларга эҳтиёж борлиги ва бошқа шу кабилар.

Хулоса ва тавсиялар

Прогнозларга кўра, яқин келажакда бандликнинг асосий шаклларидан бири “булутда ишлаш” бўлади, бу масофавий бандликдан фарқли ўлароқ, меҳнат муносабатларидаги кейинги ўзгаришлар жараёнларига олиб келади ва ходимга ҳам, иш берувчига ҳам сезиларли таъсир кўрсатади. Бу жараёнлар амалдаги қонун ҳужжатларига зарур ўзгартиришлар киритиш билан давлат ва жамият ҳаётида ҳам ўз ўрнини топиши лозим бўлиб боради.

Рақамли иқтисодиётда ҳудудлар бюджет ресурсларини бошқариш кадрларини самарали тайёрлаш учун қуйидагиларни тавсия этамиз:

– ходим ва иш берувчи ўртасидаги муносабатлар тизимини ижтимоий-фалсафий ва иқтисодий жиҳатларга ўзгартириб боришини инобатга олган ҳолда икки томон кадрлари ўртасида рақамли иқтисодиётда билим ва кўникмаларини ривожлантириш;

[1]**Бенефициар**лар – бу ярим ўтказгичлар асосида рақамли бошқарув тизимларини ишлаб чиқувчилар. Халқаро амалиётда бенефициар деганда компанияга камида 25 фоиз эгалик қилувчи ёки унинг фаолиятини жиддий назорат қилувчи жисмоний шахс тушунилади.

– бюджет иштирокчиларининг ўзаро ҳамкорлигини рақамли ташкиллаштириш учун ҳамкорлик моделини ишлаб чиқиш, шу жумладан барча даражадаги давлат органлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорлик механизмини амалга ошириш; рақамли муҳитда алоқа ва ҳамкорликни ривожлантириш;

– соҳа кадрларида ўз-ўзини ривожлантириш - янги кўникма ва қобилиятларни онгли равишда эгаллаш ва уларни амалий фаолиятда қўллаш қобилиятини ривожлантириш; уларда ижодкорликни – яъни чегарадан ташқари фикрлаш қобилиятини ўстириш;

– рақамлар билан ишлашда катта маълумотларни бошқариш, ушбу маълумотларни рақамли воситалар ёрдамида қайта ишлаш қобилиятини ривожлантириш;

– кадрларни танқидий фикрлаш қобилиятини ривожлантириш - бу маҳорат туфайли мутахассис маълумотни таҳлил қила олади ва асосли хулосалар чиқаради.

Демак, бюджет ресурсларини самарали бошқарувчи кадрларни тайёрлашнинг иккита асосий йўналишини ажратиб кўрсатиш мумкин: янги ахборот-коммуникация технологияларида ишлаш ва Интернет хизматларини ривожлантириш, рақамли воситалардан фойдаланган ҳолда фаолиятни бошқариш билим, кўникмаларини эгаллашни ўз ичига олади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 15 июндаги “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматнинг ривожланиш ҳолатини рейтинг баҳолаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари

2. Цифровая экономика и рынок труда, цифровые технологии и трудовые отношения: Взаимовлияние, особенности и тенденции развития. https://vcot.info/blog/cifrovaa-ekonomika-i-rynok-truda-cifrovye-tehnologii-i-trudovye-otnosenia-vzaimovlianie-osobennosti-i-tendencii-razvitia

MAXSUS BO‘LINMA HARBIY XIZMATCHI VA XODIMLARINING FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA BALANDLIK-ISHG‘OL TAYYORGARLIGINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

ОСОБЕННОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ И СОТРУДНИКОВ СПЕЦИАЛЬНОГО НАЗНАЧЕНИЯ ПО ВЫСОТНО-ШТУРМОВОЙ ПОДГОТОВКЕ

FEATURES OF IMPROVINING THE ACTIVITES OF MILITARY PERSONAL AND SPECIAL FORCES IN THE FIELD OF HIGH-ALTITUDE ASSAULT TRAINING



IBROXIMOV Anvar Rajabovich,
O’zbekiston Respublikasi milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

ИБРОХИМОВ Анвар Ражабович,
Старший преподователь Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан

Mr. Anvar IBROKHIMOV,
Senior Lecturer of the specialized educational center of the National guard of the Republic of Uzbekistan

Annatatsiya: Baland qavatli bino va inshootlarning qiyinchilik tug‘diradigan taraflari ya’ni yuqori qavat tomlari va deraza romlari orqali ishg‘ol harakatlarini amalga oshirish shuningdek jangovar-xizmat vazifalarni bajarish davomida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada balandlik-ishg‘ol tayyorgarligining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o‘rganib chiqish imkoni yaratiladi.

Kalit so‘zlari: balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi, maxsus operatsiya, harbiy alpinist mutaxassisi, maxsus tushish moslamalari, alpinistik anjomlar, maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma, ishg‘ol guruhi.

Аннатация: Высотно-штурмовая подготовка играет важную роль при решениях некоторых, возникающих проблем при выполнение служебно-боевых задач, а также проникновению в высотные здания и сооружения, других высотных труднодоступных местах. Данная статья предоставляет широкую возможность изучить и освоить особенности высотно-штурмовой подготовки.

Ключевые слова: высотно-штурмовая подготовка, специальная операция, боец-высотник, специальное спусковое устройство, альпинистское снаряжение, подразделение специального назначения, штурмовая группа.

Annatation: The science of high-altitude assault training is of great importance in the implementation of occupation actions on the sides of high-rise buildings and structures that cause wear,upper floor roofs and window frames, as well as in the elimination of problems that arise during the performance of combat-service tasks. In this article, it is possible to deeply study the specific features of high-altitude assault training.

Keywords: high-altitude assault training, special operation, high-altitude fighter, special launching device, climbing equipment, special purpose unit, assault group.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti - Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganing 31 yilligi hamda “Vatan himoyachilari kuni” munosabati bilan harbiy xizmatchilarga yo‘llagan bayram tabrigida:

“So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati tubdan o‘zgardi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta’minlashga qodir bo‘lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi, deb aytishga asoslarimiz bor.

Dunyoda yuzaga kelayotgan hozirgi murakkab vaziyatda Vatanimiz mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta’minlash, eng qimmatli boyligimiz-jamiyatimizda hukm surayotgan tinchlik va totuvlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash naqadar muhim ahamiyatga ega ekanini barchamiz albatta chuqur anglaymiz.

Dunyoda ro‘y berayotgan gibrid xarakterdagi qurolli to‘qnashuvlar tahlili bizdan Qurolli kuchlarimizning jangovar harakatlar jarayonida ilgari amalda qo‘llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurasha olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda.

Bunday sharoitda, avvalo, jangovar harakatlarning samarali shakl va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarining yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim”.[1] –deb ta’kidlab o‘tdilar.

Ma’lumki shahar sharoitlarida o‘tkaziladigan maxsus operatsiyalar ancha murakkab va xavfli hisoblanadi. Jinoyatchilar tomonidan noqonuniy harakatlarni oldini olish va unga barxam berish bo‘yicha vazifalar maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar tomonidan amalga oshiriladi,bunda harbiy xizmatchi va xodimlarning balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha ko‘nikmalari yuqori saviyada bo‘lishi talab etiladi. Hozirgi tahlikali zamonda maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalarning faoliyati tobora o‘ziga xos bo‘lib bormoqda. Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlarni tayyorlash zamonaviy talablardan kelib chiqib ularning xizmat jangovar faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi. Shunday ekan ushbu vazifalarni muvoffaqiyatli bajarishda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fanini o‘rganish muhim hisoblanadi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlari o‘rganuvchilarda zamonaviy xizmat vazifalarini bajarish davomida har tomonlama tayyorlangan, malakali (tajribali), chidamli va tashabbuskor harbiy xizmatchigina tashkillashtira olishiga mustahkam ishonch shakllantirilishi lozim.

Xo‘sh balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘zi nima? Ushbu savolga javobni bir qancha manbalardan izlanip o‘rganishga harakat qilamiz.

[1] https://daryo.uz 13 yanvar, 20:52 Shavkat Miromonovich Mirziyoyev O‘zbekiston Qurolli Kuchlari tashkil etilganing 31 yilligi munosabati bilan bayram tabrigi

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi – bu binoning tashqi vertikali bo‘ylab yoki harakatlanish qiyin bo‘lgan joylar orqali obyektlar ichida jangovar-xizmat vazifalarni bajarishga imkon yaratuvchi texnika va usullar majmuidir. Amalda – bu jinoyatchi zarba berishni kutmagan yo‘nalishlarda jangovar vazifani bajarish yoki harbiy harakatlarni olib borish va bu bilan maksimal samaraga erishish qobiliyatidir; obyektning eng qiyin joylariga kirib borish mahorati.[1]

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi – bu, ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuza qismi, tashqi tomondan harakatlanish imkonsizdek ko‘ringan, qiyinchilik tug‘diruvchi joylarida jangovar va xizmat vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnika va usullar majmuidir.

Amalda – jangovar vazifalarni bajarish mobaynida obyektlarnig qiyinchilik tug‘diradigan taraflaridan ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlari deraza romlari orqali, yohud dushmanni kutmagan tomonidan yashirin tarzda ishg‘ol harakatlarini amalga oshirish mahoratini shakllantiradi.

Maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar harbiy xizmatchi va xodimlari kundalik xizmat faoliyati hamda yuzaga kelgan favqulodda holatlar jangovar-xizmat vazifalarni bajarish mobaynida duch kelgan muammolarni bartaraf etishda, balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarida ortirilgan ko‘nikma va mahoratlar qo‘l keladi.

Shularni inobatga olgan holda har bir maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar harbiy xizmatchisi va xodimi balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarida quydagilarni a’lo darajada o‘zlashtirishi lozim ya’ni:

- alpinistik anjomlar bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo’lishi shu jumladan, ularning turlari va tavsifini;
- alpinistik anjomlarning mo‘ljallanishi va vazifalaridan kelib chiqib, ulardan to‘g‘ri foydalanish usullarini bilishi;
- arqonlarni olib yurish, himoyalash hamda tayanch (stansiya) nuqtalarini yaratish usullarini;
- ko‘p qavatli bino va inshootlardan alpinistik anjomlardan foydalangan holda tushish usullari texnikasini;
- ko‘p qavatli bino va inshotlarga alpinistik anjomlardan foydalangan holda maxsus tushish elemenlarini bajarish usullari texnikasini;
- ko‘p qavatli binoning pastki qavati deraza-romi orqali xona ichkarisiga kirish texnikasi:
- ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlarini bevosita yaqindan nazorat qilish texnikasini;
- ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlari deraza-romidan bino ichkarisiga maxsus vositalarni qo‘llay olish uchun imkon beruvchi harakatlar texnikasini;

[1] Гопштейн А.И., Мартынов А.И. Промальпинизм в ответах на вопросы. М., 2009.

- alpinistik anjomlardan foydalangan holda bir bino yoki inshootdan ikkinchi binoga, inshootga yoki pastga yaradorlarni, fuqarolarni evakutasiya qilish usullari texnikasini;

- havoda muallaq turgan vertolyot yoki osma ko‘priklardan tushish texnikasini;

- havoda muallaq turgan vertolyotga alpinistik anjomlari va har xil diametrli arqonlardan foydalangan holda ko‘tarilish texnikasini.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlari maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlariga ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qavatlarida yashirinishga urinayotgan jinoyatchilarni kutmagan tomonidan alpinistik anjomlar yordamida yakka yoki kichik jangovar guruhlar tarkibida yashirin tarzda nazorat qilish texnikasini, maxsus vositalarni (yorug‘lik, tovushli granatalar va x.z.) qo‘llash uchun xavfsiz to‘g‘ri joyni (pozitsiyani) tanlab, harakatlana olish texnikasini, qisqa stvolli avtomatik qurol qo‘llay olish texnikasini, ishg‘ol qilish texnikasini shuningdek ko‘p qavatli bino va inshootlarning harakatlanishga qiyinchilik yoki to‘sqinlik qiladigan har qanday joylarida kichik jangovar guruh yoki jangovar bo‘linma tarkibida razvedka ishlarini olib borish, rekognosirovka qilish, taktik va maxsus taktik harakatlarini amalga oshirish texnikasini o‘rgatadi.

Amaliy mashg‘ulotlarda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgandan so‘ng maxsus taktik mashg‘ulotlarida binoni ishg‘ol qilish bo‘yicha maxsus operativ o‘quv harakatlarini amalga oshirish jarayonida balandlikdan ishg‘ol qilish harakatlarini amalga oshirib, olgan bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlanadi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlari harbiy xizmatchi va xodimlardan katta chidamliylik, yashovchanlik hamda ruhiy mukammalikni talab qiladi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi majmuasida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida ta’lim oluvchilarning malaka darajasidan qat’iy nazar, xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muayyan chora va qoidalar tartibiga rioya qilishi shart.

Alpinistik anjomlardan foydalanishda, bino va inshootlarda harakatlanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish har bir harbiy xizmatchini oldiga qo‘ygan eng oliy vazifasidir. Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi majmuasida faqat maxsus sertifikati mavjud bo‘lgan alpinistik anjomlari bilan amalga oshiriladi. Mashg‘ulot rahbari etib yuqori darajadagi tajribaga ega, Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi sinovlaridan o‘tgan ofitserlar tayyorlanadi hamda ularga yetarli bilim, tajriba va malakaga ega yordamchi yo‘riqchilar tayinlanadi. Arqonni bog‘lash va yuqoridan tushish mutaxassis yo‘riqchilar nazorati ostida amalga oshiriladi.[1]

[1] Uraimov M.Z. Mutaxassisliklarni tayyorlash o‘quv dasturiga asosan Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fanidan o‘quv uslubiy majmua // Toshkent, 2021. 11-16 b.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligidan mashg‘ulot rahbari xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va tan jarohati olmaslik maqsadida quydagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- mashg‘ulot boshlanishidan oldin alpinistik anjomlar hamda mashg‘ulot o‘tiladigan hudud bino va inshootlarning yaroqlilik holatini tekshirish;
- mashg‘ulot mavzusiga oid zarur bo‘lgan jihoz va anjomlarning mavjudligi;
- mashg‘ulotning turi va mavzusiga qarab o‘quv obyektini to‘g‘ri tanlash;
- ta’lim oluvchilarga xavfsizlik qoidalarini imzo ostida yetkazish.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlari o‘tkazish davomida qattiyan taqiqlanadi:

- fal arqoni ish rejimida bo‘lsa tushish yo‘nalishning tagida harakatlanish (yo‘riqchining xavfsizlik choralarinin ta’minlayotgan holat bundan mustasno);
- fal arqonini bemaqsad tortish yoki o‘ynash;
- mashg‘ulot rahbari yoki yo‘riqchining ruxsat va nazoratsiz har qanday mashqlarni bajarish;
- kuchli shamol turganda (nazarda tutilgan mashqdan tashqari);
- biror bir ishtirokchi qattiq shikastlanganda (mashg‘ulot darhol to‘xtatiladi va tegishli choralar ko‘riladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, dunyoda sodir bo‘layotgan turli ko‘rinishdagi qurolli to‘qnashuv va harakatlardan kelib chiqib, maxsus bo‘linma harbiy xizmatchi va xodimlariga balandlik–ishg‘ol tayyorgarlik fani, alpinistlar anjomlarining xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot va tushunchalarni berish hamda ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rgatish, kundalik xizmat faoliyati hamda yuzaga kelgan favqulodda holatlar sharoitida, jangovar xizmat vazifalarni bajarishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etishda muvoffaqiyatga erishish uchun balandlik–ishg‘ol tayyorgarligidan ko‘nikma va mahoratlarini oshirish muhim sanaladi. Shu bois balandlik–ishg‘ol tayyorgarligi fanini o‘qitish metodikasini zamonaviylashtirish bo‘yicha innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - Toshkent: O‘zbekiston, 2022.
2. Mudofaa doktrinasi - Toshkent: O‘zbekiston, 2018 yil, 9 yanvar.
3. Uraimov M.Z. Mutaxassisliklarni tayyorlash o‘quv dasturiga asosan Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fanidan o‘quv uslubiy majmua // Toshkent, 2021. 11-16 b.
4. Шхагапсоев З.Л., Тарчоков Б.А. Организация информационно-психологического противоборства террористической деятельности

Историческая и социально-образовательная мысль. – 2016. – Т.8.- №4.Часть 1 – с.116-119.

5. Федоров И.В. Организация использования специальных спусковых устройств при подготовке и проведении специальных мероприятий: учебное пособие для сотрудников подразделения специального назначения ФСКН России / И.В.Федоров. – Саратов: УФСКН России по Саратовской области, 2008. – 167 с.

6. Абазов А.Б. Общая характеристика оснащения (экипировки) сотрудников высотно-штурмовой группы // Образование. Наука. Научные кадры. 2015. - №5. – с.28-29

7. Факов А.М. Особенности методики обучения сотрудников специальных подразделении МВД России фасадному альпинизму // Общество: социология, психология, педагогика. 2016. - № 6 – с.94-96

Internet ma’lumotlari:

8. https://cyberleninika.ru
9. https://grifon-vpk.ru
10. https://gr.pinterest.com

PEDAGOGIKANI O‘RGANISH USULLARI VA PEDAGOGIK MAHORAT

МЕТОДЫ ИЗУЧЕНИЯ ПЕДАГОГИКИ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВА

PROMOTION OF RESEARCH METHODS AND BRANCHES OF PEDAGOGY



SOYIBNAZAROV Ulug‘bek Shonazarovich,
Harbiy fanlar nomzodi, O‘zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi katta o‘qituvchisi

СОЙИБНАЗАРОВ Улугбек Шоназарович,
кандидат военных наук, старший преподаватель
Академии Вооруженных Сил Республики Узбекистан

Mr. Ulug‘bek Sh. SOYIBNAZAROV,
Candidate of military sciences, Senior Lecturer
of the Armed Forces Academy of the Republic of Uzbekistan.

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogika fanining ilmiy-o‘rganish usullari, adabiyotlar bilan ishlash, ilg‘or tajribalarni o‘rganish, muloqot, tinglovchi yoshlar ijodini o‘rganish, talabnoma, rahbariy hujjatlarni o‘rganish, matematik usul, pedagogik mahorat va pedagogik mahoratining shakllanishi hamda takomillanishi haqqida so‘z boradi.

Калит сўзлар: usullar, ilg‘or tajribalar, ijod, o‘rganish, muassasa, pedagog, rahbariy hujjatlar, kursant-tinglovchilar, mahorat.

Аннотация: в данной статье речь пойдет о методах научного изучения педагогической науки, работе с литературой, изучении передового опыта, общении, творчестве слушающей молодёжи, изучение, применении, проработке управленческих документов, математическом методе, педагогических навыках и формировании и совершенствовании педагогического мастерства.

Ключевые слова: методы, передовой опыт, креативность, обучение, учебное заведение, преподаватель, управленческие документы, курсант-аудитория, мастерства.

Abstract: this article will talk about methods of scientific study of pedagogical science, with literature, study of advanced experiences, communication, creativity of listening Youth, Study, application, study of managerial documents, mathematical method, pedagogical skills and the formation and improvement of pedagogical skills.

Keywords: methods, advanced experiences, creativity, learning, institution, educator, management documents, cadet-audience, skill.

Kirish

Ta’limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin takomillashib borayotgan axborot-ta’lim muhiti sharoitida mustakil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. «Buning uchun, ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

O‘zbekistan Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo‘lidan borayotgan bir paytda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning

bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashdan iboratdir.

Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

Harbiy ta’lim muassasalarida ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishini va kursant (tinglovchi)larning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun harbiy ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o‘quv-tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borish lozim.

Mamlakatimiz harbiy ta’lim mustaqillik yillarida yangi rivojlanish bosqichiga ko‘tarildi.

Mamlakatda kosib noshud bo‘lsa, bor-yo‘g‘i xalq poyabzaldan yolchimaydi, o‘qituvchi noshud bo‘lsa butun boshli nobop avlodni tarbiyalaydi. *PLATON*

Pedagogikaning tadqiqot metodlari


“Usul” so‘zi yunon tilidan olingan bo‘lib, “bilish yoki tadqiqot yo‘li” ma'nolarini anglatadi.

Usul – tabiat va jamiyat hodislarini bilish, o‘rganish, tadqiq qilish, o‘zlashtirish va o‘rgatish uchun xizmat qiladigan yo‘l–yo‘riq, usul hamda uslublar majmui.

Har qanday fanning o‘z usullari bor. Pedagogika fani ham o‘zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar pedagogikaning mazmunini boyitib, yangilab borish uchun yordam beradi.

usullar qanchalik to‘g‘ri tanlansa, ta'lim-tarbiya jarayoni shu darajada takomillashadi va pedagogika fani yanada rivojlanib boradi.

Pedagogikafanining ilmiy-o‘rganish usullari quyidagilar:



Mazkur usullarning mazmun–mohiyatini tushunish uchun bir qator pedagogik usullarni o‘rganib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar bilan ishlash – pedagogika faniga doir adabiyotlar bilan tanishish va ularni o‘rganish usuli. Ta'lim-tarbiya jarayoniga oid muammolarni o‘rganish va tadqiq etish pedagogikaga bag‘ishlangan adabiyotlarni, tarixiy hujjat va manbalarni, arxiv materiallari va pedagogik matbuotni o‘rganishdan boshlanadi. Buning uchun adabiyotlar ro‘yxati tuziladi, qisqacha mazmuni bayon etiladi va zarur ma'lumotlar konspektlashtiriladi.

Ilg‘or tajribalarni o‘rganish – ta'lim-tarbiya sohasida pedagoglar tomonidan erishilgan yutuqlarni o‘zlashtirish usuli. Pedagogikaning ko‘pgina muammolarini hal etishda ta'lim-tarbiya sohasida orttirilgan tajribalarni o‘rganish muhim ahamiyaga ega. Mazkur metod qo‘llanganida ilg‘or o‘qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda oddiy o‘qituvchilarning faoliyatlari ham o‘rganiladi va yutuq hamda kamchiliklar aniqlanadi.

Muloqot – ta'lim–tarbiya jarayonini yaxshilash yoki yaratilgan ilmiy farazlarning qanchalik to‘g‘ri ekanligini aniqlash maqsadida qo‘llaniladigan usul. Odatda, o‘qituvchilar va o‘quvchilar jamoasi bilan, ota–ona va keng jamoatchilik bilan yakka yoki guruhli tartibda ish olib borishda muloqot usuli katta samara beradi.

Tinglovchi yoshlar ijodini o‘rganish – ta'lim–tarbiya oluvchilarning o‘ziga xos individual tartibdagi faoliyatlariga doir omillar tahlil qilib, muayyan xulosalarga kelish uchun zamin yaratadigan usul. Yoshlarning yozgan daftarlari, tutgan kundaliklari, she'r va hikoyalari, insholari, ilmiy maqolalari, mustaqil ishlari ular ma'naviyatni o‘rganish uchun manba bo‘lib xizmat qiladi. Yoshlar ijodi ularning qobiliyatini va iqtidorlilarini aniqlashga yordam beradi.

Talabnoma – ilmiy farazlarning yangiligini bilish, aniqlash, yoshlarning yakka yoki guruh tarkibidagi fikrlarini, qarashlarini, qiziqishlarini, kelajak orzu–istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o‘tkaziladigan usul. Talabnomanomalar o‘tkazishdan ko‘zlangan asosiy maqsad oz vaqt ichida o‘quvchilarning fikrini va dunyoqarashini yoppasiga aniqlashdan iborat.

Oliy harbiy ta’lim muassasasi rahbariy hujjatlarini o‘rganish – Qo‘rolli Kuchlarimiz rahbariyati tomonidan ta'lim–tarbiya sohasiga oid qabul qilingan qaror va yo‘riqnomalarni ijrosini hujjatlar orqali o‘rganish usuli. Uning yordamida pedagogik jamoa faoliyati haqida aniq ma'lumotlarni olish mumkin. Oliy harbiy ta'lim muassasasi hujjatlarini – o‘qituvchi va kursant –tinglovchilar soni, ularning shaxsiy hujjatlari, o‘quv rejasi va jadvallar, o‘quv dasturlari, baholash jurnallari, pedagoglar kengashining qarorlari va boshqa rasmiy ish qog‘ozlari tashkil etadi. Mazkur usuldan muassasa ilmiy-pedagogik faoliyatini tekshirish, yutuq va kamchiliklarini aniqlash hamda tegishli chora-tadbirlar belgilash maqsadida foydalaniladi.

Matematik metod – ta'lim–tarbiya sohasida amalga oshirilgan ishlarning raqamlarda ifodalash, tahlil qilish va qiyoslash uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda bir

talabaning fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichlaridan boshlab, toki butun respublikamiz miqyosida maorif tizimida amalga oshirilayotgan ishlarning holatigacha bo‘lgan ma'lumotlar matematik usuldan foydalangan holda aniqlanadi. Bu metod eksperiment natijalarini to‘g‘ri baholanishini va xulosalarning ishonchli bo‘lishini ta'minlaydi.

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo‘lur. *Mahmudxo‘ja Behbudiy*

Mazkur metodlarning mazmun–mohiyatini tushunish pedagog kadrlarni o‘z kasbining egasi bo‘lishlari demakdir.

Inson, qaysi kasb egasi bo‘lmasin, o‘z kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishi uchun undan zarur bilim, ko‘nikma hamda malakalar mavjudligi bilan birga, kasbiy mahorat ham talab qilinadi. Pedagogik faoliyat ham bundan istisno emas. Ofitserlarning professional faoliyatida pedagogik jarayon, ya’ni bo‘ysunuvchilarga rahbarlik qilish, ularga ta’lim berish va tarbiyalash asosiy o‘rin egallaydi. Shuning uchun ham har bir ofitser, u o‘qituvchi bo‘ladimi yoki komandir (boshliq)mi, o‘z kasbiy faoliyatini yuksak saviyada amalga oshirishi va bu faoliyatdan ko‘zlangan maqsadlarga erishishi, qoniqish hosil qilishi o‘zining kasbiy mahoratini rivojlantirish haqida qayg‘urishi lozim.

Ofitser-o‘qituvchining pedagogik mahorati haqida fikr yuritishdan oldin harbiy-pedagogik faoliyatga bog‘liq quyidagi bir nechta tushunchalarning ma’nosini anglab olish muhim hisoblanadi.

Harbiy o‘qituvchi (harbiy pedagog) – harbiy ixtisosligini puxta egallagan, boy harbiy xizmat tajribasiga ega bo‘lgan, umumiy va harbiy psixologik-pedagogik bilimlarni, harbiy xizmatchilar ta’limi va tarbiyasi metodikasini yaxshi o‘zlashtirgan yuksak madaniyatli, kompetentli mutaxassis.

Harbiy-pedagogik faoliyat o‘qituvchi (komandir, boshliq)larning bo‘ysunuvchi harbiy xizmatchilarni, tinglovchi va kursantlarni mamlakatni qurolli himoya qilish bilan bog‘liq jangovar vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bilimlar, ko‘nikmalar va malakalar bilan qurollantirish hamda harbiy-kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq maqsadli faoliyati.

Har qaysi mas’uliyat his etgan, o‘z kasbiy faoliyati davomida muvaffaqiyatga erishishni maqsad qilgan, atrofidagi odamlar nazarida «o‘z ishining ustasi» degan ijobiy taassurot uyg‘otishni istagan inson mahorat qirralarini egallashga intiladi.

Mahorat – muayyan ish, xatti-harakat yoki kasbiy faoliyatning ustalik, mohirlik bilan, san’atkorona tashkil etilishiga imkon beradigan bilim, ko‘nikma, malakalar majmui.

Mahorat har qanday soha vakilining o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi davomidagi muvaffaqiyati garovi bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir kasbning o‘ziga xos xususiyatlari, mutaxassisning bilimi, ko‘nikmalari va malakalari, kasbiy tayyorgarligi darajasi va boshqa talablardan kelib chiqib mahorat

qirralari belgilanadi. Ushbu mavzuda ofitser-o‘qituvchining pedagogik mahorati to‘g‘risida fikr yuritiladi.

Pedagogik mahorat bu – «Pedagogik ensiklopediya»da shunday ta’rif berilgan:

«Pedagogik mahorat qalb amri bilan ishlaydigan va bolalarni sevadigan har bir pedagog egallashi mumkin bo‘lgan ta’lim va tarbiyaning yuksak va tinimsiz takomillashib boruvchi san’atidir».

Yuqorida keltirilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega. Uning shakllanishi, yuksak darajalarga o‘sib yetishi uchun vaqtning o‘tishi kifoya emas, buning uchun o‘qituvchidan tinimsiz mehnat, izlanish, ilmiy-nazariy bilimlarni va amaliy tajribani boyitib borish talab qilinadi.

Pedagogik mahorat ko‘p qirrali va keng ma’noli tushuncha bo‘lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Shu bilan birga ta’kidlash lozimki, pedagogik mahorat darajasi o‘qituvchining pedagogik stajiga bog‘liq emas. Bir qarashda inson ma’lum bir sohada qancha ko‘p yil faoliyat yuritsa tajribasi va mahorati shunchalik yuqori bo‘ladi, deb o‘ylash mumkin. Biroq, har doim ham shunday bo‘lavermaydi. Kimdir kasbiy mahorat cho‘qqilariga qisqa vaqtda erishadi, boshqa birov esa, uzoq yillar davomida faoliyat yuritsa ham ko‘zga ko‘rinarli yutuqlarga erisha olmaydi.

Ofitserning harbiy-pedagogik sifatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish ichki qarama-qarshiliklarga ega hamda ko‘pgina omillarning ta’sirida kechuvchi jarayondir. Bu jarayon o‘zo‘zidan kechmaydi, balki boshqariladigan bo‘lib, birinchi navbatda har bir ofitserning bilimi saviyasi, dunyoqarashi, aqliy, estetik va jismoniy rivojlanishi darajasiga, mas’uliyatiga, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga bog‘liqdir.

Pedagogik mahoratining shakllanishi va takomillashuvi ofitser-o‘qituvchi shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma’naviy rivojlanishidagi qarama-qarshiliklarni yengish orqali erishiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bu qarama-qarshiliklar quyidagilardan iborat:

ofitserning bilimi, umumiy ma’lumotliligi va xulqiy tajribasi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar;

ofitser-o‘qituvchining nimani va qanday bajarish kerakligini tushunishi va amaliy harakatlari o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar;

turli sharoit va vaziyatlarda ofitserning pedagog sifatida o‘zini tutishi bilan bog‘liq qarama-qarshiliklar;

o‘z pedagogik taktining rivojlanganligi darajasi to‘g‘risidagi ofitserning shaxsiy bahosi va boshliqlari, hamkasblarining fikri, bergan bahosi o‘rtasidagi qarama-qarshiliklar va boshqalar.

Bunday qarama-qarshiliklarni hal etishning muhim sharti sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlarini, ofitser uchun zarur bo‘lgan sifatlarni tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish

yo‘llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tomonidan to‘g‘ri tushunishni ko‘rsatish mumkin.

O‘rta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi Yunon ilmi va falsafasining Sharqdagi eng yirik targ‘ibotchisi va uning rivojiga ulkan hissa qo‘shgan, «ikkinchi muallim» nomini olgan Abu Nasr al-Forobiy (873 – 930) o‘z asarlarida har bir kishi jamiyatga, davlatga munosib inson bo‘lishi uchun ta’lim va tarbiya olishi lozim deb hisoblaydi. Yoshlarga ta’lim va tarbiya beradigan ustoz shogirdiga nisbatan juda qattiq zug‘um qilishga intilmasligi, shuningdek, haddan tashqari ko‘p yon berishga ham intilmasligi lozim, chunki ortiqcha zug‘um shogirdda ustozga nisbatan nafrat uyg‘otadi, bordi-yu, shogird ustozning juda ham yumshoqligini payqab qolsa, bu hol ustozni mensimaslikka va u beradigan bilimga sovishiga olib keladi, deb uqtiradi u.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev, Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464-bet.
2. Mirziyoev Sh. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan Vatan himoyachilariga bayram tabrigi //Vatanparvar, 2017-yil 14-yanvar.
3. Mirziyoev Sh. Qurolli kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir. /O‘zbekiston Respublikasi xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi //Vatanparvar, 2018-yil 13-yanvar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining umumharbiy Nizomlari. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 496 b.
5. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: O‘qituvchi, 2011. – 206 b.
6. Nosirov K.J., “Pedagogika psixologiya”.// K.J. Nosirov, – T.: O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasi oliy harbiy bojxona instituti nashriyoti, 2017. – 253 b.
7. Mutalipova M.J. «Pedagogik mahorat» moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: TDPU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi, 2017. –190 b.
8. Satib-Aldiyev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. – T.: Sharq, 2005. – 256 b.
9. Satib-Aldiyev A. Pedagogik mahorat asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.:O‘R MV Uslubiy markazi, 2013. – 86 b.

HARBIY XIZMATCHILARNING JANGOVAR-MAXSUS TAYYORGARLIGIDA BALANDLIK-ISHG‘OL TAYYORGARLIK FANINING ROLI VA O‘RNI

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДИСЦИПЛИНЫ ВЫСОТНО-ШТУРМОВОЙ ПОДГОТОВКИ ПО БОЕВОЙ-СПЕЦИАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКЕ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

THE ROLE AND PLACE OF THE SCIENCE OF HIGH RISE ASSAULT TRANING IN THE COMBAT SPECIAL TRANING OF MILITARY PERSONAL



URAIMOV Muzaffar Zuxriddinovich,
O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi sikli boshlig‘i.
УРАИМОВ Музаффар Зухриддинович,
Начальник цикла Специализированного учебного центра Национальной гвардии Республики Узбекистан.
URAIMOV Muzaffar Zuxriddinovich,
The head chair of the specialized educational center of the National guard of the Republic of Uzbekistan.

Annotatsiya. Harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligida, ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlariga yashirinishga uringan jinoyatchilarni izlab topish, nazorat qilish, qo‘lga olish hamda yo‘q qilishda Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani muhim o‘rin tutadi.
Kalit so‘zlar: ishg‘ol qilish, jangovar-maxsus, ko‘p qavatli binolar, alpinistik anjomlar, izlab topish, nazorat qilish, qo‘lga olish hamda yo‘q qilish.

Аннотация. Большую роль занимает предмет Высотно-штурмовой подготовки при выполнение специально-боевых задач как прочёсывание, контролирование, задержание и уничтожение противника, пытавшийся скрыться в многоэтажном здании.
Ключевые слова: штурм, специально-боевая, многоэтажные здания, альпинистки снаряжения, прочёсывания, контроль, задержания уничтожения.

Annotation. It takes an important role the subject of high rise assault training bu completing special combat mission as to find, control, detain and destroy the enemy who trying to hide inside the multy-story building.
Keywords: high rise assault, combat special, multy-story, alpenistic tools, finding, controling, detention, destruction.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoev tomonidan, Qurolli Kuchlarimiz bo‘linmalarining o‘quv, jangovar tayyorgarligining ma’no-mazmunini tubdan o‘zgartirish, harbiy kadrlar, birinchi navbatda chuqur bilimga ega bo‘lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual yetuk mutaxassislarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish kerakligi haqida bir qator vazifalar qo‘yilmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mamlakatimizning har bir sohasi kabi O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, armiya va xalq birligini ta’minlash borasidagi joylarda davlat hokimiyati organlarining rolini oshirish, ta’lim tizimi takomillashtirish bo‘yicha ishlar butunlay yangi sifat bosqichiga ko‘tarildi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu bilan bir qatorda unib-o‘sib kelayotgan yosh avlod qalbida Vatanga sodiq va xalq taqdiri uchun yuksak sadoqat bilan xizmat qilish mas’uliyati tuyg‘usini shakllantirish maqsadida, vatanparvarlik tarbiyasi sohasida mohiyat e’tiboriga ko‘ra noyob tizim yaratilib, uning doirasiga mamlakatimiz aholisining keng qatlamlari qamrab olinib, malakali va yetuk kadrlar hamda kadrlar zaxirasini yaratish uchun xizmat qilib kelmoqda. Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida mutaxassislarni tayyorlash hamda malakasini oshirishda asosiy fanlardan biri balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani hisoblanadi. Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarini sifatli tashkillashtirib o‘tkazish o‘tkazish uchun maxsus o‘quv majmuasi bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Yosh o‘rganuvchilarni muntazam ravishda balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani bo‘yicha tayyorlash lozim deb ko‘rilsa, yopiq tipdagi o‘quv majmuasidan foydalanish bir muncha samara beradi. Yopiq tipdagi balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv majmuasida ko‘p qavatli bino ko‘rinishidagi inshoot, tik turgan baland zina, kechuv harakatlarini amalga oshirish uchun maxsus joylar va avvaldan tortib qo‘yilgan trosli ob’ektlar 1-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan. Havoda muallaq turgan vertolyotdan tushish (десантирования), binoning yuqori qavatlariga (qismlari) alpinist anjomlaridan foydalanmagan holda ko‘tarilish, katta hajmli arqon yordamida ko‘tarilish va osma ko‘priklardan ishg‘ol jarayonida tezkorlik bilan tushish uchun mo‘ljallangan inshootning namunaviy ko‘rinishi 2-rasmda aks ettirilgan.



1-Rasm



2-Rasm

Yopiq tipdagi Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv majmuasi o‘rganuvchilarning boshlang‘ich pallasida juda qo‘l keladi. O‘ziga ishonch, har bir harakatni xatosiz mukammal o‘zlashtirib olishiga katta xizmat qiladi.

Ochiq tipdagi o‘quv majmua iqlimning qishki davridan boshqa paytlarda yosh o‘rganuvchilar bilan mashg‘ulotlarni tashkillashtirib o‘tkazish mumkin bo‘ladi. Tabiatning jazirama va ayozli sovuq davrlarida faqat ma’lum malakaga ega o‘rganuvchilar bilan tashkillashtirib o‘tkazish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ko‘p qavatli

bino ko‘rinishidagi namunaviy inshoot 3-rasmda ko‘rsatilgan, bino tirqishlari orqali binoning yuqori qavatlariga ko‘tarilish hamda havoda muallaq turgan vertolyotda tushish (десантирования) uchun mo‘ljallangan ob’ekt 4-rasmda o‘z aksini topgan, shu bilan birga 5-rasmda ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlariga binoning ayvoncha (балкон) tomonidan alpinist anjomlaridan foydalanmagan holda ko‘tarilish binoni ishg‘ol qilish uchun mo‘ljallangan ob’ekt.



3-Rasm



4-Rasm



5-Rasm

Harbiy xizmatchilarni jangovar-maxsus tayyorgarligida, zamonaviy talablardan kelib chiqib, ko‘p qavatli bino ko‘rinishidagi maxsus-taktik o‘quv bino va inshootlari bilan ta’minlanishi lozim bo‘ladi.

Maxsus-taktik o‘quv bino va inshootlari qishki va yozgi bo‘lishi mumkin. Harbiy xizmatchilarni boshlang‘ich tayyorgarligi bo‘lsa va ularda Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘uloti qishki mavsumga to‘g‘ri kelguday bo‘lsa, albatta yopiq tipdagi o‘quv binosi mavjud bo‘lgani maqsadga muvofiq.

Ushbu ko‘p qavatli bino ko‘rinishidagi maxsus-taktik o‘quv bino va inshootlari har tomonlama jihozlangan hamda xavfsizlik choralari ko‘rilgan, zamon talablariga javob beradigan darajada bo‘lsa, harbiy xizmatchilarning boshlang‘ich hamda mukammal harakatlarni to‘liq o‘zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Harbiy xizmatchilarni tayyorlash zamonaviy talablardan kelib chiqib ularning xizmat jangovar faoliyati bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Dala o‘quv mashg‘ulotlariga chiqishlari va majmuaviy (kompleks) tarzida olib boriladigan o‘quv mashg‘ulotlarining davomiyligi tinglovchilar tomonidan, o‘tilayotgan o‘quv savolini o‘zlashtirish uchun zarur bo‘lgan davomiylikda to‘liq amalga oshiriladi.

Mustahkam malaka hosil qilish maqsadida, o‘rganuvchilarga amaliy mashg‘ulotlarda mashqlar va belgilangan me’yor (normativ)lar bajariladi.

Amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish jarayonida joylardagi o‘quv moddiy-texnik bazasidan (shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasining boshqa vazirlik va idoralariga

qarashli) imkoniyatdan kelib chiqib to‘liq foydalaniladi.

Harbiy xizmatchilarni tayyorlash va qayta tayyorlashda asosiy e’tiborni ularning Vatanga sadoqat ruhida, O‘zbekiston Respublikasi manfaatlarini himoya qilish yo‘lida jon fido qilishga shay, jangda jasur va qat’iy harakatlanish, jangovar vazifani bajarish uchun, qurol-aslaha va texnikalarni puxta ekspluatatsiya qilishga qodir bo‘lishga tarbiyalashga qaratilgan.

Tinglovchilar bilan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar yanada samarali o‘tilishi uchun O‘zbekiston Respublikasining boshqa vazirlik va idoralarining mutaxassislarini taklif qilingan holda o‘quvlar, trening va brifinglar o‘tkaziladi.

Mashqlar davomida ortiqcha tushuntiraman qabilida o‘quv vaqtini maqsadsiz sarflash, o‘quv joylarini tez-tez almashtirish, davomli va sergap muhokama va h.k.larga yo‘l qo‘yilmaydi. Mashg‘ulotlarning yuksak samaradorligi va qizg‘inligiga erishilgan. Mashg‘ulotlar davomida tinglovchilarda bellashuv ruhi rivojlantirish nazarda tutilgan.

Mashg‘ulotlarni rejalashtirish o‘quv fanining taqsimoti soatlar hisobiga muvofiq amalga oshirilgan.

O‘quv dasturi mavzularining tinglovchilar tomonidan o‘rganilishi ma’ruza, amaliy, guruhiy, kompleks mashg‘ulotlar va mustaqil ish davomida amalga oshiriladi. Tinglovchilar bilimga chuqur egalik qilishi maqsadlarida dasturda ko‘rsatilgan fanlar tadrijiy va boshqa fanlar bilan hamkorlikda o‘rganiladi. Bu maqsad yo‘lida, nazariy ahamiyat kasb etuvchi mavzular ma’ruzalardan boshlanadi. Amaliy ahamiyat kasb etuvchi mavzular esa, o‘rganuvchilarga amaliy, guruhiy va kompleks mashg‘ulotlarda yetkaziladi.

Barcha mashg‘ulotlarda o‘rganuvchilarda zamonaviy xizmat vazifalarini bajarishni faqat har tomonlama tayyorlangan, malakali (tajribali), chidamli va tashabbuskor harbiy xizmatchigina tashkillashtira olishiga mustahkam ishonch shakllantirilishi lozim.

Quyidagilar o‘quv mashg‘ulotlarining asosiy turlaridir:

Ma’ruza.

Guruh mashg‘uloti.

Amaliy mashg‘uloti.

Mustaqil ish.

Mashg‘ulotlar zamonaviy o‘quv texnikasi va texnik vositalari hamda ko‘rgazmali qo‘llanmalar bilan jihozlangan sinflar o‘tkaziladi.

O‘quv mashg‘ulotlar olib borish jarayonida turli xil uslubiy va zamonaviy o‘qitish shakllaridan foydalaniladi. O‘quv fanini yaxshi o‘zlashtirish uchun o‘qitishning samarali uslublari qo‘llanilgan (muammoli vaziyatlar tuzilishi, hamkorlikdagi faoliyat fikri tashkillashtirilishi, yakka topshiriqlar berilishi), axborot texnologiyalari va slaydli filmlar qo‘yib berilishi ko‘zda tutilgan.

Mavzularni o‘zlashtirish uchun o‘quv darsliklar, elektron shakldagi o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruzalar matnlari, elektron ma’lumotlar bazasi va proektorlardan

foydalaniladi.

Bundan tashqari, mavzu bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun o‘qitishning «Blis so‘rov», «BBB», «Aqliy hujum», «Muammoli vaziyat», «Holatlarni sahnalashtirish» singari turli uslub va zamonaviy shakllari qo‘llaniladi. Mavzuni o‘qitish jarayonida modellashtirish va simulyatsiya markazlaridagi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va amaliy o‘yinlar keng qo‘llaniladi. Ma’ruza, amaliy va guruhiy mashg‘ulotlar vaqtida o‘qituvchilar interfaol doskalardan keng foydalaniladi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligi, shuningdek hamkorlikdagi idoraviy xizmatlarning faoliyatini tashkillashtirishda kiritilgan o‘zgarishlar, yoki xizmat faoliyatining talablariga o‘zgartirishlar kiritilsa mavzularga tegishliligi bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritiladi.

Jahon arenalari va yaqin sharq hududlarida olib borilayotgan maxsus operatsiyalar shuni ko‘rsatmoqdaki asosiy jangovar harakatlar hamda terrorchi guruhlar uchun shahar sharoitida va qishloq hududlarida terrorchilik harakatlarini olib borish uchun eng qulay va tez ko‘zdan tez g‘oyib bo‘lish imkonini beruvchi usuliga aylanib ulgurgan. Shahar hududlarida xufiyona harakatlangan holda tinch aholini garovga olib, ko‘p qavatli binolarga yashirinishga urinmoqda, bu esa o‘z o‘rnida maxsus bo‘linmalar oldiga qo‘yilgan vazifani sifatli va samarali bajarishga bir muncha qiyinchiliklar tug‘dirmoqda. Shuni inobatga olib balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha, maxsus bo‘linmalar harbiy xizmatchilari o‘quv jarayonida kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari lozim.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi fani Respublikamiz maxsus bo‘linmalarida, xorijiy davlatlar bilan o‘tkazilgan treninglarda hamda ko‘p yillik xizmat faoliyat mobaynida orttirilgan tajribalarga tayangan holda, Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazida ta’lim oluvchi harbiy xizmatchilarning tinchlik va urush davrlarida Vatan oldidagi burchini mohirona bajarish uchun bilim va ko‘nikmalarini oshirishga mo‘ljallangan.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi – bu, ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuza qismi tashqi, harakatlanish imkonsizdek ko‘ringan, qiyinchilik tug‘diruvchi joylarida maxsus jangovar hamda xizmat vazifalarni bajarish imkonini beruvchi texnika va usullar majmuidir.

Huquq tartibot organlari maxsus bo‘linmalari, harbiy xizmatchi va xodimlarining kundalik xizmat faoliyati hamda yuzaga kelgan favqulodda holatlar jangovar-xizmat vazifalarini bajarish mobaynida duch kelgan muammolarni bartaraf etishda, balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarida ottirilgan ko‘nikma va mahoratlar qo‘l keladi.

Harbiy xizmatchi va xodimlar:

Bilishi kerak:

alpinistik anjomlarning turlari va tavsifi;

balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi fanida qo‘llaniladigan Alpinistik anjomlarni boshqa yaqin fanlarda foydalaniladigan anjomlar bilan farqlay olishi;

alpinistik anjomlarning maqsad va vazifasidan kelib chiqib, to‘g‘ri foydalana olish usullarini;

arqonlar turlari, sifati va tavsifini;

arqonlardan foydalanishda diametrini to‘g‘ri tanlay olishi va maqsadli foydalana olishni;

arqonlarni olib yurish, himoyalash hamda tayanch (stansiya) nuqtalarini yaratish usullarini;

ko‘p qavatli bino va inshootlardan alpinistik anjomlardan foydalangan holda tushish usullari texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlarga alpinistik anjomlaridan foydalangan holda ko‘tarilish usullari texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlardan alpinistik anjomlaridan foydalangan holda maxsus tushish elementlarini bajarish usullari texnikasini;

ko‘p qavatli binoning pastki qavati deraza-romi orqali xona ichkarisiga kirish texnikasini;

ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlarini bevosita yaqindan nazorat qilish texnikasini;

ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlariga yashiringan jinoyatchi va terroristlarni yo‘q qilish hamda bino ichkarisini ishg‘ol qilishga imkoniyat yaratib berish texnikasini;

ko‘p qavatli binoning yuqori qavatlari deraza-romidan bino ichkarisiga maxsus vositalarni qo‘llay olish uchun imkon beruvchi harakatlar texnikasini;

alpinistik anjomlardan foydalangan holda bir bino yoki inshootdan ikkinchi binoga, inshootga yoki pastga yaradorlarni, fuqarolarni qutqaruv ishlarida kechuv (эвакуатсия) xarakatini qilish usullari texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlarga alpinistik anjomlardan va har xil diametrdagi arqonlar yordamida havoda muallaq turgan vertolyot yoki osma ko‘priklardan tushish texnikasini;

havoda muallaq turgan vertolyotga alpinistik anjomlari va har xil diametrli arqonlardan foydalangan holda ko‘tarilish texnikasini.

Bajara olishi kerak:

ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qavatlarida yashirinishga urinayotgan jinoyatchi va terrorchilarni kutmagan tomonidan alpinistik anjomlar yordamida yakka yoki kichik jangovar guruhlar tarkibida yashirin tarzda nazorat qilish texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qavatlarida yashirinishga urinayotgan jinoyatchilarni kutmagan tomonidan alpinistik anjomlar yordamida yakka yoki kichik jangovar guruhlar tarkibida yashirin tarzda maxsus vositalarni (yorug‘lik, tovushli granatalar va x.z) qo‘llash uchun xavfsiz to‘g‘ri joyni (pozitsiyani) tanlab, harakatlana olish texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qavatlarida yashirinishga urinayotgan jinoyatchilarni kutmagan tomonidan alpinistik anjomlar yordamida yakka yoki kichik jangovar guruhlar tarkibida yashirin tarzda harakatlanib, qisqa stvolli avtomatik qurol qo‘llay olish texnikasini;

ko‘p qavatli bino va inshootlarning yuqori qavatlarida yashirinishga urinayotgan jinoyatchilarni kutmagan tomonidan alpinistik anjomlar yordamida yakka yoki kichik jangovar guruhlar tarkibida yashirin tarzda harakatlanib ishg‘ol qilish texnikasini.

ko‘p qavatli bino va inshootlarning harakatlanishga qiyinchilik yoki to‘sqinlik qiladigan har qanday joylarida kichik jangovar guruh yoki jangovar bo‘linma tarkibida razvedka ishlarini olib borish, rekognossirovka qilish, taktik va maxsus taktik harakatlarini amalga oshirish texnikasi;

Uslubiy ko‘rsatmalar:

Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘zlashtirishda nazariy, guruhiy hamda amaliy mashg‘ulotlar qamrab olgan.

Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda xavfsizlik qoidalariga qat’iyan rioya qilgan holda mashg‘ulot rahbari hamda instruktorlar tomonidan tashkillashtirilib amalga oshiriladi.

Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi nazariy o‘quv mashg‘ulotlari o‘quv sinflarda tashkillashtiriladi va jangovar tayyorgarlik daftarlariga konspektlashtirilib boriladi.

Balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi guruhiy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlar balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv majmuasida amalga oshiriladi. Guruhiy mashg‘ulotlar asta sekin osondan murakkabga qarab (zinama-zina metodini qo‘llagan holda), avval yerda keyin binoning birinchi va ikkinchi qavatlaridan foydalanib, har bir harbiy xizmatchi bilan yakka (individual) tartibda xavfsizlik qoidalariga qat’iyan rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Amaliy mashg‘ulotlarga zaruratidan kelib chiqib bir yoki bir necha mutaxassislik bo‘yicha katta tajribaga ega yoki o‘quv markazlarida ushbu yo‘nalish bo‘yicha ta’lim olgan harbiy xizmatchilardan yo‘riqchi sifatida o‘quv nuqtalariga jalb qilinishi mumkin. Amaliy mashg‘ulotlarda balandlik – ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha bilim va ko‘nikmaga ega bo‘lgandan so‘ng maxsus taktik mashg‘ulotlarida binoni ishg‘ol qilish bo‘yicha maxsus operativ o‘quv harakatlarini amalga oshirish jarayonida balandlikdan ishg‘ol qilish harakatlarini amalga oshirib, olgan bilim va ko‘nikmalarini yanada mustahkamlanadi.

Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlarida harakatlanishdan avval barcha harbiy xizmatchilarning alpinistik anjomlari, shaxsiy himoya vositalari, yuk qoplarining me’yor sifati va darajasini yana bir bor nazoratdan o‘tkazilishi lozim bo‘ladi. Shu bilan birga balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi o‘quv mashg‘ulotlari harbiy xizmatchi va xodimlardan katta chidamlilik, yashovchanlik hamda ruhiy mukammallikni talab qiladi.

Shahar tipidagi hududlarda maxsus operatsiyalarni o‘tkazish, xizmat va jangovar vazifalarni bajarish jarayonida ko‘p qavatli bino va inshootlar kabi bir qancha omillarga ya’ni qiyinchiliklarga duch kelamiz. Ushbu to‘siqlarni yengib o‘tishda bizga balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarida ottirgan bilim va tajribalari qo‘l keladi.

Shahar tipidagi hududlarda maxsus operatsiyalarni o‘tkazish ya’ni binoni ishg‘ol qilish jarayonida binoning ichki tarafini nazorat qilish 6-rasmda aks ettirilgan. Bino

ichkarisida yashirinib qurolli qarshilik ko‘rsatayotgan jinoyatchilarga qarata o‘q uzish jarayoni 7-rasmda ko‘rsatib o‘tilgan.



6-Rasm



7-Rasm

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Qurolli Kuchlar tizimidagi maxsus vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalari harbiy xizmatchilarining kundalik hamda jangovar xizmatlarini sifatli va mukammal darajada bajarishlari, shu bilan birga yangi zamonaviy maxsus-taktik harakatlarini sifatli bajarilishida balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi mashg‘ulotlarining o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Uraimov M.Z. Balandlik-ishg‘ol tayyorgarligi bo‘yicha O‘quv uslubiy majmua O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Toshkent.:2021. – 133 b.

2. Uraimov M.Z, Shoniyatov Sh.Sh. Alpinistik anjomlar turlari va tavsifi. O‘quv amaliy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Toshkent.: 2020. – 56 b.

3. Uraimov M.Z, Parajillaev U.G. tugunlar va bog‘lamlar turlari. O‘quv amaliy qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Ixtisoslashtirilgan o‘quv markazi, Toshkent.: 2020. – 37 b.

4. Боевая подготовка спесназа. Ардашев А.Н.изд: Эксмо, Яуза. 2014 г.

5. Подготовка разведчика. Система спесназа ГРУ. Заруский Ф.Д., Тарас А.Е. изд: Ҳарвест. 1998 г.

6. Энциклопедия спесназа САС в действии 2003 год. Крофорд С.

7. Tog‘ tayyorgarligi I.U.Nazarov. Tog‘ tayyorgarligi bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma.

MILLIY TA’RBIYA VA MA’NAVIY-QADRIYATLAR TA’LIM TARBIYA OMILI SIFATIDA

ABIBULLAEVA P.,
Ajiniyoz nomidagi NMPI assistent o‘qituvchisi

Rezyume. Maqolada milliy ta’rbiya va ma’naviy-qadriyatlar ta’lim ta’rbiya asosi ekanligi yoritilgan.
Kalit so‘zlari: Milliy tarbiya, qadriyatlar, axloq, xalq, jamiyat, oila.

Резюме. В статье подчеркивается, что национальное воспитание и духовно-нравственные ценности являются основой образования.
Ключевые слова: Национальное воспитание, ценности, мораль, народ, общество, семья

Summary. The article emphasizes that national education and spiritual and moral values are the basis of education
Key words: National education, values, morality, the people, the community, the family

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyaviy faoliyati, umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli, xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirishdan iborat.

Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi, biror-bir jamiyat imkoniyatlarini, odamlar ongida ma’naviy va axloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib, o‘z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratilib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi. Biz ma’naviy qadriyatlarning tiklanishini, milliy o‘zlikni anglashni xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlari bilan uzviy bog‘liq, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz. Jamiyatimizning, xalqimizning ming yillik ma’naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan Islom madaniyatini tiklash o‘z taqdirini o‘zi belgilash, tarixiy xotiraga, madaniy-tarixiy birlikka yega bo‘lish yo‘lidagi g‘oyat muhim qadam bo‘ldi. Ma’naviy qadriyatlarning yana bir qudratli manbayi an’anaviy oila va qarindoshlik munosabatlari odobidan iboratdir. Kattalarni hurmat qilish, o‘zaro yordamlashish, kelajak avlod haqida g‘amxo‘rlik qilish hamisha uning asosiy qoidalari bo‘lib kelgan.

Axloqiy tarbiya — shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim omili. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida ma’naviyaxloqiy tarbiya muhim o‘ringa ega bo‘lib, uni samarali tashkil etish o‘quvchida ma’naviy-axloqiy ongni shakllantirishga yordam beradi. Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlarini o‘quvchilar ongiga singdirish, ularda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari hamda axloqiy madaniyatni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon bo‘lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiyaning asosi axloq va axloqiy me’yorlardir.

Axloq (lotincha “moralis” — xulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs xatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo‘lgan xulq-atvor qoidalari, mezonlari yig‘indisi. Axloqiy me’yorlar to‘g‘risidagi bilimlar o‘quvchilar ongiga ta’lim va tarbiya jarayonida singdirilib boriladi. Axloqiy tarbiyaning natijasi o‘quvchilarda axloqiy ong, axloqiy faoliyat ko‘nikmalari va axloqiy madaniyatning shakllanishida ko‘rinadi.

“Axloq”, “xulq” va “atvor” so‘zlari arabcha so‘z bo‘lib, ular o‘zbek tilida ham o‘z ma’nosida qo‘llaniladi. Ayrim odamlar „Axloq — kishilarning har bir jamiyatga xos xulq me’yorlari majmuyi“ deyishsa, boshqalar yesa „Axloq — ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, hamma sohalarda kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish funksiyasini bajaradi“, deyishadi. Axloq me’yorlari xulq-atvorning regulyatori sifatida odat me’yorlariga zid xatti-harakat axloqsizlik harakati deb qaraladi. Shunisi ham borki, huquq majburiy bo‘lsa, axloq ixtiyoriydir. Axloqiy tarbiya odamlarni nomusli vijdonli, adolatli, vatanparvar, mehnatsevar bo‘lishga o‘rgatadi. Axloqiy tarbiyada yaxshi xulqni takomillashtirish uchun kurashiladi. Xalq ta’limi tizimida o‘qitish tarbiyalanuvchilarning axloqiy mukammallashishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Ularda ong bilan xulq birligi tarbiyalanadi. Shaxsning jamoat va vatanga, mehnatga, kishilarga, o‘z xulqiga munosabatlari quyidagilarda o‘z aksini topgan:

a) jamiyatga, vatanga muhabbat va sadoqatni tarbiyalash;

b) mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;

d) atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat, yuqori muomala madaniyatiga ega bo‘lgan shaxsni shakllantirish;

e) shaxsning o‘ziga, o‘z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalash.

Mamlakatimiz istiqlolining dastlabki kunlaridanoq, buyuk ma’naviyatimiz va qadriyatlarimizni, xalqimizning yaratgan boy madaniy merosini avaylab-asrash va keyingi avlodga yetkazish oldimizda turgan muhim masalalardan biridir. Ma’lumki, har qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodni qanday ta’lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog‘liq.

Qadriyatlar — inson uchun ahamiyatli bo‘lgan millat manfaatlari yo‘lida xizmat qiladigan erkinlik, ijtimoiy adolat, tenglik, haqiqat, ma’rifat, go‘zallik, yaxshilik, halollik, burchga sodiqlik singari fazilatlarni o‘zida mujassamlashtiradi. Qadriyatlar o‘zining mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi, ya’ni:

— tabiiy qadriyatlar (yashash uchun zarur bulgan tabiiy shart-sharoitlar);

— iqtisodiy qadriyatlar (ishlab chiqarish kuchlari va vositalari);

— ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar (yerkinlik, tenglik, adolat, tinchlik, hamkorlik);

— ilmiy qadriyatlar (bilimlar, tajribalar, yutuqlar);

— falsafiy qadriyatlar (g‘oyalar, mafkuralar, konsepsiyalar);

— badiiy qadriyatlar (san’at, adabiyot, madaniyat);

— diniy qadriyatlar (iymon, ye’tiqod, vijdon, savob).

Shu bilan birga, fanda qadriyatlarning milliy va umuminsoniy turlarga ajratilishi an’ana tusiga kirgan. Milliy qadriyatlar ma’lum bir millat, xalq va yelatlarning o‘z

tarixiy taraqqiyotida yaratadigan barcha moddiy va madaniy (ma’naviy) boyliklari yig‘indisidan iboratdir.

